



CHARLZ DIKKENS

KATTA UMIDLAR

• ROMAN II KITOB •

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

CHARLZ DIKKENS

KATTA UMIDLAR

II

Roman



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

UO*K: 821.111-31
KBK 84.(4Bbr)
D 50

Tahrir hay'ati:


**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboyo
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:

Shoazim MINOVAROV

Hammasi oddiy voqeadan boshlanadi. Yosh Filipp qabriston yonida o'ynab yurganida qamoqdan qochgan mahbus uni tutib oladi va boladan o'zi uchun yegulik va egov olib kelishini talab qiladi. Mana shu voqea bolaning kelajagini o'zgartirib yuboradi.

Aziz kitobxon! Mashhur ingliz yozuvchisi Charlz Dikkensning „Katta umidlar“ romani sizning sevimli asarlaringiz qatoridan o'rin olishiga ishonamiz.



ISBN 978-9943-6340-7-7

© Sh. Minovarov (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muayassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

IKKINCHI QISM

XXIX BOB

Miss Xevishem eshigining qo'ng'irog'ini titroq qo'lim bilan chalib, nafasimni rostlab olish va yurak urishimni bosish uchun eshikka orqamni o'girdim. Uyning eshigi ochilganini, hovlidagi qadam tovushlarini eshitdim, lekin ko'cha eshikning zanglab ketgan oshiq-moshig'i g'ijirayotganida ham o'zimni hech narsani eshitmaganga oldim.

Nihoyat yelkamga qo'l tekkizganlaridan keyin seskanib o'girildim. Qarshimda orasta kulrang libosda turgan, miss Xevishemnikida qorovullik qilishi tasavvurimga sig'maydigan insonni ko'rib, rostakamiga seskanib tushdim.

– Orlik?

– Ha, ha, yosh xo'jayin, o'zgarishlar faqat sizning hayotingizda bo'lgani yo'q. Siz kiring, kiring ichkariga. Ko'cha eshik ochiq qolmasin deyishgan.

Men ichkariga kirdim, Orlik eshikni qulfladi va oldimga tushdi.

– Ha, – dedi u yelkasi osha orqasiga qarab. – Bu menman, shu yerdaman.

– Qanday qilib bu yerga kelib qolding?

– Yurib keldim, – dedi u qo'pollik bilan. – Sandig'imni esa aravada olib kelishdi.

– Bu yerga yaxshilab o'mashib olganga o'xshayapsan?

– Nima qilibdi. Buning yomon yeri yo'q, yosh xo'jayin.

Bunisiga aslo ishonmasdim. Aytganlarini yaxshilab o‘ylab ko‘rarkanman, u og‘ir nazarini yerdan uzib, menga boshdan oyoq yaxshilab tikildi.

– Ustaxonadan ketibsan-da, demak? – so‘radim men.

– Shu ham ustaxona bo‘libdimi? – dedi Orlik atrofga alam bilan qarab. – Ustaxonaga o‘xshaydimi, a?

Undan Gerjerilarnikidan ketganingga ko‘p bo‘ldimi, deb so‘radim.

– Bu yerda kunlar bir xil o‘tadi, – dedi u, – sanash oson emas.

– Buni o‘zim ham bilaman, Orlik.

– Bo‘lmasam-chi, – dedi u quruqqina qilib. – Axir olimsizlar.

Bu vaqt ichida uyga kirib keldik. Ma‘lum bo‘lishicha, Orlik eshik oldidagi kichkina derazali xonani egallagan ekan. Xona Parijda eshik og‘alari istiqomat qiladigan tor hujralarni eslatardi. Devorga bir nechta kalit osib qo‘yilgan, ularning yoniga Orlik ko‘cha eshikning kalitini ham ilib qo‘ydi. Xona tartibsiz, tor, uyquga tortadigan edi, u ham emas, bu ham emas, odam qiyofasidagi yumronqoziq yashaydigan qafas; deraza oldida, soyada qiyofasi tebramayotgan Orlik esa ana shu qafasdagi yumronqoziq edi.

– Bu xonani hecham ko‘rmaganman, – dedim men. – Bu yerda ilgari qorovul ham bo‘lmagan.

– Bo‘lmagan, – tasdiqladi u, – keyin uy qorovulsiz, bu esa xavfli, degan gaplar tarqaldi, bu joylarda esa qochqinlar va boshqa darbadarlar kezib yurishadi. Shunda meni bu yoqqa tavsiya qilishdi, negaki har qanday odamga kuchim yetadi; men rozi bo‘ldim. Bu yerda ish og‘ir emas, bosqonlarga dam berib, temirni toblashdan osonroq... U o‘qlangan.

Nazarim devorga osib qo‘yilgan, qo‘ndog‘i mis bilan qoplangan miltiqda to‘xtaganini Orlik sezib qoldi.

– Xo‘sh, – dedim men bu suhbatdan zerikib, – yuqoriga, miss Xevishemning oldiga chiqaveraymi?

– Agar bilsam, til tortmay o‘lay, – javob berdi Orlik, keyin butun gavdasi bilan kerishib, beo‘xshov silkinib oldi. – Menga buyurilgan narsalarnigina bilaman. Manavi bolg‘acha bilan qo‘ng‘iroqchani uraman, siz esa birortasini uchratmaguningizcha yo‘lakdan boravering.

– Meni kutishayotgandir?

– Til tortmay o‘la qolay, agar bilsam! – dedi u.

Shunda men bir paytlar qo‘pol boshmoqlarimda yurgan uzun yo‘lakka burildim, Orlik qo‘ng‘iroqchaga zarba berdi. Qo‘ng‘iroq ovozi tinmay turib yo‘lak oxirida miss Sara Poket paydo bo‘ldi.

– Bu sizmisiz, mister Pip? – dedi u.

– Menman, miss Poket. Mister Poket va oilasi salomat ekanliklarini sizga ma‘lum qilishdan xursandman.

– Hammalarining aqli hamon kirmagan, xolos! – xo‘rsindi u g‘amgin bosh chayqab. – Salomatlikdan ko‘ra ularga ko‘proq farosat kerak. Eh, Metyu, Metyu! Yo‘lni bilasiz-a, ser?

Nega bilmayin – bu qorong‘i zinadan juda ko‘p marta tushib-chiqqanman. Endi esa yengilgina shahar poyabzalida undan yuqoriga chiqdim va avvalgidek miss Xevishemning eshigini qoqdim. O‘sha zahoti uning ovozini eshitdim:

– Bu Pip. Kira qol, Pip!

Xonim avvalgidek pardoz stolining yonida, o‘sha ko‘ylagida, hassasining dastasiga dahanini tirab va o‘choqdagi olovga tikilib o‘tirardi. Uning yonida esa kiyilmagan oq boshmoqchani diqqat bilan tomosha qilib, men avval hecham ko‘rmagan bashang libosli xonim o‘tirardi.

– Kir ichkariga, Pip, – dedi miss Xevishem menga qaramay. – Kir, kir. Ahvollaring yaxshimi, Pip? Go‘yo men qirolichadek qo‘limni o‘pyapsanmi, a? Xo‘sh?

Kutilmaganda u boshini ko'tarmay turib menga o'girildi va yarim jiddiy, yarim hazil ohangda takrorladi:

– Xo'sh?

– Menga aytishdiki, miss Xevishem, – gap boshladim men tortinchoqlik bilan, – siz lutfan men bilan ko'rishmoqni ixtiyor etibsiz va men o'sha zahoti yetib keldim.

– Xo'sh?

Men avval sira uchratmagan bashang kiyingan xonim boshini ko'tarib, kaminaga ayyorona nazar soldi va men Estellaning ko'zlarini tanib qoldim. Lekin u shunchalar o'zgargan, go'zallashgan va jozibador ediki, barkamollik yo'lida shunchalar ilgarilab ketgandiki, joyimda qotib qolgandek bo'ldim. Unga qarab turar ekanman, yana to'pori qishloq bolasiga aylanayotganimni dahshat bilan his qilayotgandim. Oh, o'sha lahzalarda unga qo'lim aslo yetmasligini, bizni ajratib turgan jarlikni qanchalar chuqur his etgandim!

Estella menga qo'lini uzatdi. Men duduqlanib, uni yana ko'rib turganimdan naqadar xursandligimni va ushbu kunni uzoq kutganimni aytgan bo'ldim.

– Ayt-chi, Pip, u judayam o'zgaribdimi? – so'radi miss Xevishem, menga yirtqichona qarash qilib va o'rtamizda turgan stulga, o'tir, degan ma'noda hassasi bilan urib qo'ydi.

– Kirib kelganimda, miss Xevishem, na yuzida va na butun qiyofasida hech bir tanish yerini ko'rmagandim, endi esa qanchalar hayratlanarli, borgan sari ko'proq o'sha...

– Qanaqasiga? Oldingi Estellanimi? – gapimni bo'ldi miss Xevishem. – Lekin u mag'rur, zolim bo'lgan, sen esa undan qutulmoqchi eding. Esingda yo'qmi?

Men bularning hammasi uzoq o'tmishda qolgani, o'shanda ahmoq bo'lganim, yana shunga o'xshash narsalarni botinmaygina aytdim. Estella xotirjam tabassum qildi

va haqligimni aytdi, o'sha paytlarda u, darhaqiqat, istagan odamining toqatini toq qila olardi.

– Pip-chi, u o'zgaribdimi? – so'radi miss Xevishem.

– Juda ham o'zgaribdi, – dedi Estella menga qarab.

– Avvalgidek to'pori va qo'pol emasmi? – dedi miss Xevishem Estellaning sochlarini silay turib.

Estella kulib yubordi, qo'lidagi boshmoqqa qaradi, yana kuldi, menga qaradi va boshmoqni qo'ydi. U hozir ham men bilan kichkina bolaga bo'lgandek munosabatda edi, lekin meni o'ziga tortmoqdaydi.

Bir vaqtlar menda g'ayrioddiy taassurotlar uyg'otgan, orzular bilan yo'g'rilgan nimqorong'i xonada o'tirardik; Estellaning hozirgina Fransiyadan qaytgani, endi Londonda yashashi menga ma'lum bo'lgandi. U avvalgidek mag'rur, o'zbilarmon edi, lekin endi bu sifatlar uning lato-fati bilan shunchalar uyg'unlashib ketgandiki, ularni Estellaning jozibasidan ajratishning imkoni yo'q edi, balki, men nohaqdirman, lekin shunday qilinsa, nazarimda, gunoh bo'ladigandek edi.

U yerda kechgacha o'tirishim, mehmonxonada tunab qolishim, ertasiga Londonga jo'nab ketishimga qaror qilindi. Uzoq davom etmagan suhbatdan so'ng miss Xevishem bizlarni bog'da sayr qilib kelishga jo'natdi, qaytganimizdan keyin, uning aytishicha, avvalgi vaqtlardagidek, o'rindiqda uni olib yurishim kerak edi.

Mana nihoyat Estella ikkimiz o'zim bir vaqtlar kirishga jur'at etgan o'sha darchadan tashlandiq bog'ga kirib bordik; o'shanda meni yosh, rangpar janob, endilikda Gerbert bilan olishuv kutayotganini bilmagandim; meni hayajon qamrab olgan, qizdagi ko'ylakning yoqasiga ham oshiq edim; u esa xotirjam va o'z-o'zidan ma'lumki, kamzulimning etagiga oshiq emasdi. Olishuv bo'lgan joyga yaqin kelganimizdan keyin, Estella to'xtab, dedi:

– Ahmoq ekanman, o‘shanda yashirinib, olishuvingizni kuzatgandim; lekin juda mamnun bo‘lgandim.

– Meni juda munosib taqdirlagandingiz.

– Rostdanmi? – dedi Estella, go‘yo hammasini unut-gandek, befarqlik bilan. – Shuni bilamanki, men bilan vaqt o‘tkazaman, deb kelgani uchun raqibingizni juda ham yo-mon ko‘rardim.

– Hozir u bilan qalin do‘stmiz, – dedim men.

– Shunaqami? Aytmoqchi, esimga tushdi, uning otasi-dan saboq olyapsiz chog‘i?

– Ha. – Iqroram o‘zimga yoqmayotgandi, go‘yo men maktab o‘quvchisiman-u, Estella men bilan yosh bola-lardek munosabatda bo‘lmoqdaydi.

– O‘shandan beri mavqeyingiz ham, kelajakka umid-laringiz ham o‘zgardi, tanishlaringizning davrasini ham o‘zgartirdingiz.

– Bu tabiiy, – dedim men.

– Bu zarur ham, – dedi Estella kibr bilan. – Endi av-valgi tanishlaringiz bilan bordi-keldini uzsangiz to‘g‘ri ish bo‘lardi.

To‘g‘risini aytsam, Joni borib ko‘rish rejasi menda hamon bor edi, deb aniq aytolmayman, lekin shunday bo‘lganida ham Estellaning so‘zlaridan keyin u tutundek tarqab ketgandi go‘yo.

– O‘sha vaqtlarda, – dedi Estella olishuvimiz bo‘lib o‘tgan zamonnin nazarda tutayotganini bildirish uchun qo‘lini biroz silkitib, – sizni oldinda qanday omad kutayot-ganini hali bilmasmidingiz?

– Tushimga ham kirmagan.

Bog‘ning yo‘lkasi bo‘ylab yonma-yon yurib borar ekanmiz, u o‘ziga qanchalar ishonsa, qanchalar mag‘rur bo‘lsa, men shunchalar itoatkor ekanimni, ikkalamizning oramizdagi farqni ich-ichimdan his qilmoqdaydim! Agar

taqdir aynan meni, boshqa birovni emas, uning uchun yaratgan, deb ishonmaganimda, bu holatdan ko'proq ezilgan bo'lardim.

Bog' yana ham yovvoyilashib, quyuqlashib ketgan, shuning uchun unda sayr qilish mushkul edi, uch marta u yoqdan bu yoqqa borib kelganimizdan keyin yana pivoxonaning hovlisi oldidan chiqdik. Men Estellaga eski bochkalar ustida yurayoganida uni ko'rgan joyimni ko'rsatdim, u o'sha tomonga bir lahzaga, sovuq nazar tashladi-da:

– Rostdanmi? – dedi.

Unga uydan chiqib, menga go'sht va pivo berganini eslatdim.

– Esimda yo'q, – dedi Estella.

– Qanday qilib meni yig'latganingiz esingizda yo'qmi? – so'radim men.

– Yo'q, – dedi u bosh chayqab va teskari o'girildi.

Uning esida yo'q edi, unga farqi yo'q, bundan men yana yig'lab yubordim, unsiz, yuragimdan yig'ladim, to'vush chiqarmay, achchiqdan achchiq ko'zyosh to'kdim.

– Sizga shuni aytishim kerakki, – dedi Estella, aslzoda sohibjamol menga lutf qilayotgandek, – menda yurak yo'q; ehtimol, buning xotiraga ham aloqasi bordir.

Men bunga shubham bor, degan ma'noda nimalarnidir aytgan bo'ldim. Siz yanglishyapsiz. Bunday sohibjamolda yurak bo'lmasligi mumkin emas.

– O, albatta, – dedi Estella, – albatta menda yurak bor, ya'ni pichoq ursa yoki o'q o'tsa bo'ladigan yurak. Turgan gapki, agar u to'xtab qolsa, men o'laman. Lekin nima demoqchiligimni tushunib turibsiz. Menda hech bir ko'ngli bo'shlik... hech bir hissiyot... tuyg'ular... zavq-shavq yo'q. Hazillashmayapman, – davom etdi Estella chehrasi allanechuk qorayib. Agar tez-tez uchrashib turishimizga to'g'ri kelsa, hozirdanoq eslab qolganingiz yaxshi. Yo'q! –

U og‘iz ochishga chog‘langanimni sezib, meni shahd bilan to‘xtatdi. – Hech kimga lutf ko‘rsatmaganman. Hech kimni hech qachon yoqtirmaganman.

Biz necha zamonlardan beri tashlab qo‘yilgan pivoxonaga nazar soldik. Shunda Estella, uni dastlab kelgan kunim ko‘rgan, tomning tagidagi ayvonchaga ishora qilib, o‘sha yerga chiqib olib, mening dahshat qoplagan aft-anzorimni kuzatgani esida ekanini aytdi. Ko‘zlarim bilan oppoq bilakning harakatini kuzatar ekanman, yana o‘sha xira, noaniq sharpani ko‘rayotgandek bo‘ldim va seskanib ketdim. Buni sezib, Estella qo‘limni ushladi, xayolot tarqab ketib, ko‘zdan yo‘qoldi.

Bu nimaydi o‘zi?

– Sizga nima bo‘ldi? – so‘radi Estella. – Yana qo‘rqdingizmi?

– Agar siz hozirgina aytgan narsalarga ishonganimda, qo‘rqqan bo‘lardim, – dedim men gapni boshqa mavzuga ko‘chirish uchun.

– Demak, menga ishonmabsiz? Mayli, aytdim-qo‘ydim. Tez orada miss Xevishemning yoniga qaytishingiz kerak, u sizni kutayotgandir ham, lekin menimcha, g‘ildirakli kursini itarib yurishni ham boshqa eski odatlar bilan birga to‘xtatish lozim. Yana bir marta bog‘ni aylanamiz-da, keyin – uyga. Ha, ha. Bugun shafqatsizlik qilib, ko‘zyoshlaringizni oqizishga sizni majbur qilmayman. Bugun kuzatuvchim bo‘lib, menga hamrohlik qilasiz.

Meni undan ajratib turgan narsa yoshimizdagi farq emasdi – yoshimiz, Estella biroz katta ko‘rinsa-da, deyarli teng edi – undagi bor jozibaga va menga qilinayotgan muomalaga singib ketgan tegmanoziklik homiy bekam bizni bir-birimizga mo‘ljallab qo‘yganiga ishonishimga qaramay, hissiyotlarim jo‘shib ketgan kezlarda meni azobga solardi. O‘zimga rahmim kelardi!

Nihoyat biz uyga qaytdik va bu yerda vasiyim miss Xevishemning oldiga ish bilan kelganini, tushlikni shu yerda qilishini eshitib, hayron bo'ldim. Kelgunimizcha yarim chirigan dasturxon yozilgan xonadagi daraxt shoxlariga o'xshagan shamdonlarda shamlar yoqib qo'yilgan, miss Xevishem o'rindiqlarda o'tirib meni kutmoqdaydi.

To'y dasturxoni qoldiqlarining yonida sekin yo'lga tushishimiz bilanoq, nazarimda, g'ildirakli o'rindiq o'timishga qarab yurib ketayotgandek bo'ldi. Lekin ushbu motamsaro xonada, tirik marhumaning motamsaro qarashlari ostida Estella yanada jozibador, yanada latofatli ko'rinishda, meni o'ziga ko'proq maftun etmoqdaydi.

Vaqt o'tib borar, tushlik vaqti yaqinlashmoqda va Estella kiyinib olish uchun bizni tark etishi kerak edi. O'rindiqni uzun stolning o'rtasiga yaqin joyda to'xtatdim; miss Xevishem burishib yotgan qo'lini musht qilib tugdi va sarg'ayib yotgan dasturxon ustiga qo'ydi. Eshikning yoniga borgach, Estella o'girilib qaradi va miss Xevishem unga uzoqdan o'pich yo'lladi; u bu ishni shunchalar ehtiros bilan ado etdiki, seskanib ketdim.

Estella chiqib ketib ikkalamiz qolgach, xonim menga o'girilib, shivirladi:

– Ko'rdingmi uni – go'zal, latofatli, sarvqomat. Zavqlanyapsanmi undan?

– Undan zavqlanmaslikning iloji yo'q, miss Xevishem.

Miss Xevishem bo'ynimdan ushlab o'ziga tortdi va boshimni pastga engashtirib, dedi:

– Uni yaxshi ko'r, sev uni, sev! Senga qanday muomala qilyapti?

Javob berishga ulgurmasimdan (agar ushbu savolga umuman javob berishga qodir bo'lsam), u takrorladi:

– Yaxshi ko'r, sev uni, sev! Senga yon bossa – sev. Seni azoblasa – baribir sev. Agar yuragingni tilka-pora qilsa,

yosh o'tgan sari og'riqning kuchi orta boradi – baribir sev, sev uni, sev!

Favqulodda shahd bilan aytilgan ushbu so'zlardan larzaga tushdim. Xonim shunchalar hayajonda ediki, bo'ynimni quchoqlab turgan qo'l muskullari kuch bilan tortilganini his etayotgandim.

– Quloq sol menga, Pip! Estellani uyimga, uni yaxshi ko'rishlari uchun olganman. Uni yaxshi ko'rishlari uchun o'stirdim va tarbiya qildim. Unga ko'ngil bog'lashlari uchun, hozir u qanday bo'lsa shunday katta qildim. Yaxshi ko'r uni! Senga chin muhabbat nima ekanini aytaman, – dedi u tez va g'ayritabiiy tarzda shivirlab. – Bu ko'r-ko'rona sadoqat, javobsiz itoat, o'zingni kamsitish, bu – savol bermasdan, na o'zingga, na butun dunyoga quloq osmasdan ishonish, seni azoblayotgan insonga butun qalbingni berib qo'yish... menga o'xshab!

So'zlar dahshatli uv tortish bilan yakunlandi. Miss Xevishemni zo'rg'a ushlab qoldim: u kutilmaganda o'zining kafanko'ylagida o'rindiqdan turib ketib, boshini kuch bilan devorga urib, hayot bilan vidolashmoqchi bo'lgandek, qo'li bilan havoga zarba berdi.

Bularning hammasi bir necha lahzada sodir bo'ldi. Uni o'rindiqqa o'tqazar ekanman, xushbo'y sovunning hidini tuydim.

Soat to'qqizlarda, Estella Londonga kelganida menga xabar berilishi va uni pochta maydonida kutib turishim to'g'risida shartlashib oldik; keyin men uning qo'lidan ushlab xayrlashdim va chiqib ketdim.

XXXVII BOB

Mister Uemmikning uolvortcha qarashlaridan xabardor bo'lish uchun eng qulay fursat yakshanba degan xayolda, keyingi yakshanba qasrga tashrif buyurdim. Qal'a devor-

lari yoniga kelganimda bayroq o'z ustunida mag'rur hilpirar, ko'prik bo'lsa ko'tarib qo'yilgandi; lekin bunday vahimali manzaradan hech bir cho'chimay, eshik oldida turib qo'ng'iroqni chaldim va Qariya meni xotirjam qarshi oldi.

– O'g'lim sizni kelib qolsa kerak, degandi, ser, – dedi chol ko'prikni mahkamlab qo'yayotib, – yakshanbalik sayridan tezda qaytishini aytib qo'yishni buyurgandi. O'g'lim sayr qilishda tartibni yoqtiradi. O'g'lim hamma narsada tartib bo'lishini yoqtiradi.

Uemmik unga qanday bosh silkitsa, men ham shunday qildim va ichkariga kirib, kamin oldiga joylashdim.

– Ser, – dedi chol qo'llarini olovda isita turib baland ovozda, – o'g'lim bilan idorasida tanishgan bo'lsangiz kerak? – Bosh irg'adim. – Xo'sh! Eshitishimcha, o'g'lim o'z ishining ustasi ekan, ser? – Kuchliroq bosh irg'adim. – Ha, ha, menga ham shunday deyishgandi. U advokatlarning ishini qiladimi? – Yanada kuchliroq bosh irg'adim. – Ana shunisi uning eng qiziq hunari, – dedi chol, – negaki u advokatlikka emas, duradgor-bochkasozlikka o'qigan.

Qariya mister Jeggersning shuhratidan xabardor yoki xabardor emasligini bilgim keldi va cholning qulog'iga baland ovozda uning ismini aytdim. U kulib, yaxshi kayfiyat bilan:

– Yo'q, albatta, siz haqsiz, – deb hafsalamni pir qildi.

Hozirgi kungacha, uning so'zlari nima maqsadda aytilgani va uning fikricha nimalar deb hazil qilgan bo'lishim mumkinligini bilmayman.

Agar uni suhbatga undamasam, to'xtovsiz bosh irg'ashimga to'g'ri kelardi, shuning uchun undan hayotingizda nima ish bilan shug'ullangansiz, siz ham bochka yasaganmisiz, deb so'radim. Oxirgi ikkita so'zni baland ovozda bir necha marta takrorlaganimdan keyin, barmog'im bilan gap u to'g'risida ekaniga ishora qildim, chol tushundi.

– Yo‘q, – dedi u, – men omborchi bo‘lganman, omborchi. Avvaliga anavi yerda, – u qo‘li bilan mo‘rini ko‘rsatdi, taxminimcha, Liverpulni nazarda tutayotgandi, – keyin bu yerda, Londonda. Lekin kasallik menga yopishib oldi, axir, ser, mening qulog‘im og‘ir.

O‘zimni chuqur hayratga tushgandek ko‘rsatdim.

– ...Ha, ha, qulog‘im yaxshi eshitmaydi; shunday qilib ushbu dard menga yopishib olganidan keyin o‘g‘lim advokatlik bilan shug‘ullanishga qaror qildi va menga qaray boshladi, sekin-asta ana shu mulkni sotib olib, obod qildi. Aytgan so‘zlaringizga kelsak, ser, – davom etdi qariya xandon otib kularkan, – yo‘q, albatta, siz haqsiz.

O‘ylab topishim mumkin bo‘lgan eng o‘tkir gapim ham cholning tasavvuridagi hazilchalik kuldira olmagan bo‘lardi, deb o‘ylab turgandim, kamin yonidagi devordan qandaydir ovoz kelib, „Jon“ degan yozuvli taxtacha o‘z-o‘zidan ko‘chib tushgandek bo‘ldi. Nigohimni ilg‘agan qariya tantana bilan:

– O‘g‘lim keldi! – dedi. Keyin ikkalamiz ko‘tarma ko‘prik tomon shoshildik.

Uemmikning chohning narigi tomonidan qo‘l silkib, men bilan salomlashayotganini ko‘rish g‘alati tomosha edi, negaki qo‘l uzatsa osongina yetadigan masofada edim. Qariya ko‘prikni shunchalar ishtiyoq bilan tushirishga kirishgandiki, unga yordam ham taklif qilmay, Uemmik biz tomonga o‘tib, miss Skiffins bilan tanishtirmaguncha kutib turdim, u uyga ayol kishi hamrohligida qaytib keldi.

Miss Skiffins ko‘rinishidan qishloq ayollariga o‘xshar va hamrohi singari pochta sohasiga aloqador edi. U Uemmikdan uch yoshlar chamasi yoshroq va yurish-turishidan ma‘lum miqdorda ko‘char mulk sohibasi edi. Ko‘ylagi shunday bichilgandiki, belidan yuqori qismi old va orqa

tomonlardan varrakni eslatardi; ko'ylagining rangi menga juda ham to'q sariq, qo'lqoplariniki juda ham to'q yashil ko'rindi. Lekin ayni paytda u ko'rinishidan tarbiya ko'rgan ayol bo'lib, Qariyaga hurmati balandligi bilinib turardi. Tez orada men miss Skiffinsning qasrga tez-tez kelib turishiga amin bo'ldim. Biz uyga kirdik va men Uemmikni kelganidan otasini xabardor qilib turuvchi ixtirosi bilan tabrikladim. Uemmik kaminning boshqa tomonidagi devorga e'tibor berishimni so'rab, g'oyib bo'ldi. Tez oradi yana nimadir ovoz chiqardi va bu safar devordan „Miss Skiffins“ yozuvli taxtacha ajralib chiqdi. Keyin „Miss Skiffins“ yopilib, „Jon“ ajraldi; keyin „Miss Skiffins“ va „Jon“ bir vaqtning o'zida ko'chib va yana bir vaqtning o'zida yopildi. Uemmik qaytib kelgach, uning dono mexanikasini ko'klarga ko'tarib maqtay ketdim, u bo'lsa:

– Bilasizmi, bularning hammasi Qariya uchun – ham yoqimli, ham foydali. Shuni ham bilib qo'yingki, ser, bu yerga keladiganlarning orasida qurilmaning siridan faqat qariya, miss Skiffins va men xabardormiz, – dedi.

– Mister Uemmik uni o'zi o'ylab topib, o'zi yasagan, – deya izoh berdi miss Skiffins.

Xonim shlapasini yechishga hozirlik ko'rayotganida (yashil qo'lqoplarini uyda mehmonlar borligining isboti uchun oqshom davomida yechgani yo'q), Uemmik menga bog'ga chiqib sayr qilishni va qish faslida orolning ko'rinishiga nazar solishni taklif qildi. U uolvortcha qarashlarini menga ma'lum qilish niyatidaligini tushunib, ushbu imkoniyatdan darhol foydalandim.

Yaxshilab o'ylab olib, masalani go'yo birinchi marta-dek bayon qilishga kirishdim. Uemmikka Gerbert Poketning taqdiridan xavotirda ekanim, u bilan ilk tanishuvmiz va olishuvimiz to'g'risida aytib berdim. Gerbertning oilasi, fe'l-atvori, tirikchilik uchun mablag'ni faqat ota-

Abdulla Oqilov nomidagi
viloyat AKM
INV No 2021/32-41

sidan olishini, qachon va qancha olishini oldindan sira bilmasligini gapirib berdim. Londonga yangi kelganimda u bilan muloqotda bo'lganim katta foyda berganini, nazarimda, agar men va umidlarim bo'lmaganida u yaxshiroq yashagan bo'lardi, deb o'ylashimni tan oldim. Miss Xevishem to'g'risida bir og'iz ham gapirmaganim holda, ehtimol, Gerbertning yo'lida to'g'anoq bo'lganimni, lekin uning oliyjanob ekani va hech qachon shubhalar, mayda fitnalar va qasos olishlar bilan o'zini yerga urmasligini tushuntirdim. Ana shu barcha sabablarga ko'ra, shuningdek, Gerbert do'stim bo'lgani va uni yaxshi ko'rganim uchun, qanday qilib mening imkoniyatlarim bilan hozirning o'zida Gerbertni, uni ruhan qo'llab-quvvatlash maqsadida, hech bo'lmasa yiliga yuz funt daromad bilan ta'minlash, keyinchalik biron-bir kichikroq korxonaning ulushini olib berish yuzasidan shunchalar keng tajriba va aloqalarga ega Uemmikdan maslahat olishga umid bog'layotganimni aytdim. Gapimning nihoyasida Gerbert yordamim to'g'risida nafaqat bilmasligi, taxmin ham qilmasligi zarurligini, boshqa hech kim bilan maslahatlasha olmasligimni tushuntirdim. Keyin Uemmikning yelkasi-ga qo'limni qo'yib, dedim:

– Sizga murojaat qilishga majbur bo'ldim, lekin bu ancha sertashvish ish ekanini bilaman. Ammo ayb o'zingizda – meni mehmonga chaqirishingiz kerak emasdi.

Uemmik bir daqiqa jim qoldi, keyin uyqudan uyg'on-gandek shartta gapirdi:

– Xo'sh, mister Pip, sizga faqat bir narsani ayta olaman: juda oliyjanob ishga qo'l uryapsiz, jin ursin.

– Ana shu oliyjanob ishni amalga oshirishda menga yordam bering.

– Oh, – dedi Uemmik bosh chayqab, – bu men qiladigan ish emas.

– Axir hozir siz ishxonada emassiz-ku, – qayd qildim men.

– Bunisi to‘g‘ri, – fikrimga qo‘shildi Uemmik. – Mo‘l-jalga aniq urdingiz. Quloq soling, mister Pip. Men bir o‘ylab ko‘raman, nazarimda, hammasini siz xohlagandek tashkil qilsa bo‘ladi. Miss Skiffinsning akasi – hisobchi va savdo vakili. U bilan gaplashib ko‘raman va siz uchun bi-ror nima o‘ylab topamiz.

– Sizga qanday minnatdorchilik bildirishni bilmayman.

– Aksincha, – dedi Uemmik bosh chayqab, – men sizga rahmat aytishim kerak, siz bilan o‘ta xususiy shaxslar si-fatida gaplashayotgan bo‘lsak ham, bir narsani botinib tan olmoqchiman, Nyugeyt changi odamga yopishib qoladi, bunday ishlar esa undan forig‘ bo‘lishga yordam beradi.

Yana biroz shu mavzuda suhbatlashib, qasrga qaytdik, u yerda miss Skiffins choyga tayyorgarlik ko‘rish bilan ovora edi. Eng mas‘uliyatli ish – qoqnon qovurish – Qariya zim-masiga yuklangandi. Saxovatli mo‘ysafid bu ishga shun-chalar ishtiyoq bilan kirishib ketgandiki, beixtiyor yog‘ga qo‘shib o‘zini ham eritib yubormasaydi, degan xavotir uyg‘otardi. Bizni ramziy emas, haqiqiy mehmondorchilik kutmoqdaydi. Qoqnon bo‘laklari kamin olovida qovurilib, ishtahani qitiqlab chirsillar, Qariya shunchalar ko‘p non qovurgandiki, taxlam ortida o‘zi ko‘rinmay ketgandi; miss Skiffins bo‘lsa shunchalar ko‘p choy tayyorlagan ediki, uying orqasidagi jonivorlar ham qattiq shovqin solib zi-yofatda ishtirok etish niyatini bildirishmoqdaydi.

Bayroq tushirilgan, zambarak kerakli vaqtda otilib bo‘lgan, men ushbu shinam xonada o‘zimni kengligi ham, chuqurligi ham to‘qqiz qulochdan kam bo‘lmagan choh bilan tashqi dunyodan ajratilgandek his qilayotgandim. Devorda vaqti-vaqti bilan yengil ovoz chiqarib dam miss Skiffins, dam Jonning taxtachasi ko‘chib chiqishini hisobga

olmaganda, qasrdagi xotirjamlikka hech narsa rahna solmayotgandi; taxtachalarda allaqanday kamchilik bo'lib, avvaliga ularning harakati meni biroz cho'chitdi, keyin ko'nikib qoldim. Miss Skiffins o'ziga ishonch bilan bekalik qilayotganini ko'rib, u har yakshanbada bu yerda choy quysa kerak, deb o'yladim; yangi oy nurida ifodalangan yoqimsizgina, qirraburun ayol kishining yon tomondan tasvirlangan shakli tushirilgan qadimgi to'g'nag'ichni ko'rib, ko'char mulkning ushbu namunasini unga Uemmik sovg'a qilgan, deya taxmin qildim.

Biz barcha non bo'laklarini yeb, shunga mos ravishda choy ichdik. Ayniqsa, Qariya burniga yog' surib olgan yovvoyi hindular qabilasi boshlig'ining o'zi bo'ldiqo'ydi. Oqsoch qiz yakshanba kunlari o'z oilasi bag'rida qolsa kerak, negaki, miss Skiffins choynak-piyolalarni yuvib qo'ydi; u bu ishni shunchalar mohirlik bilan bajardiki, hech birimizga erish tuyulmadi. Keyin u yana qo'lqoplarini kiyib oldi va hammamiz olovga yaqinroq o'tirdik, Uemmik bo'lsa:

– Qani, qariya, gazetalarda nimalarni yozishibdi? – dedi.

Qariya ko'zoynagini taqishga hozirlik ko'rar ekan, Uemmik bu narsa odat tusiga kirgani, gazetani ovoz chiqarib o'qish cholga tom ma'noda lazzat berishini menga tushuntirdi.

– Izohning, menimcha, hojati yo'q, – dedi Uemmik, – axir uning ermagi u qadar ko'p ham emas, to'g'rimi, Qariya?

– Ajoyib, Jon, ajoyib, – javob qildi chol o'ziga murojaat qilayotganlarini ko'rib.

– O'qishdan to'xtagan vaqtida unga bosh irg'ab turing, – dedi Uemmik, – unga boshqa hech narsa kerak emas. Xo'sh, mo'ysafid otaginam, biz kutyapmiz.

– Ajoyib, Jon, ajoyib! – javob qildi quvnoq chol kishiga yoqadigan ishchanlik va mamnuniyat bilan.

Qariyaning mutolaasi menga mister Uopsning buvisi ochgan maktabni eslatdi, farqi shunda ediki, ovozi kalit teshigidan chiqayotganga o'xshardi. Chol hamma sham-lar iloji boricha o'ziga yaqin turishini talab qilganidan va dam boshini, dam gazetani olovga tiqib olishiga bir bah-ya qolayotganidan unga porox saqlanayotgan ombordek ko'z-quloq bo'lib turish zarur edi. Lekin Uemmik sabot va mehr bilan hushyorligini yo'qotmas, Qariya esa necha marta o'limga yaqin kelganidan xabar ham topmay, o'qish-dan to'xtamasdi. U bizga qaragudek bo'lsa, o'zimizni o'ta qiziqayotgandek va hayratlanayotgandek ko'rsatar va yana mutolaaga qaytmaguncha boshimizni silkitib turardik.

Nihoyat, Qariya o'z ovozi bilan o'zini allalab, uxlab qoldi. Shunda Uemmik e'tiborimizga kichkina qozoncha, stakanlar va ikki yuzi qip-qizil ruhoniyni aks ettiruvchi chinni qopqoqli qora shishani taqdim etdi. Biz qaynoq grog¹ bilan kayfiyatimizni ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ldik, uyqudan uyg'onishga uringan Qariya ham undan bosh tortmadi. Grogni miss Skiffins aralashtirib turdi, shunda u mister Uemmik bilan bir stakandan ichayotganini sezdim. Turgan gapki, miss Skiffinsga uyiga kuzatib qo'yishni tak-lif qilib o'tirmadim va Qariya bilan dildan xayrlashib va yoqimli o'tgan oqshom uchun minnatdorlik bildirib, birin-chi bo'lib u yerdan chiqib ketishni afzal ko'rdim.

Bir hafta ham o'tmay Uemmik menga xat yozib, biz xu-susiy shaxslar sifatida muhokama qilgan ish bo'yicha ayrim narsalarni aniqlashga muvaffaq bo'lgani va men bilan yana bir marta suhbatlashishni istayotganini ma'lum qildi. Men yana Uolvortga – uning uyiga bordim, keyin u yerda yana

¹Grog – musallas qaynatib tayyorlanadigan spirtli ichimlik.

bo'ldim, bir necha marta biz Sitida ham uchrashdik, lekin Litl-Britenda bu haqda og'iz ham ochmasdik. Ish shu bilan yakunlandiki, biz yaqindagina oyoqqa turgan, mablag' va farosatli yordamchiga ehtiyoji bor, vaqti kelib ma'lum miqdorda daromad olgach, o'sha yordamchini sherik qilishga rozi bo'lgan halol yosh savdogar – kemalarda yuk tashish shartnomalari bo'yicha vositachini topdik. Biz u bilan mavzusi Gerbert bo'lgan maxfiy shartnoma tuzdik va men unga besh yuz funtimning yarmini naqd to'ladim, shuningdek, yana ma'lum miqdor mablag'ni, qisman – bo'lib-bo'lib, daromadlarim hisobidan, qisman – mulkimni boshqarishga kirishganimdan keyin to'lash majburiyatini oldim. Muzokaralarni miss Skiffinsning akasi olib bordi. Uemmik boshidan oxirigacha yo'l ko'rsatib turdi, lekin shaxsan o'zi ularda ishtirok etmadi.

Hammasi shu qadar ustalik bilan amalga oshirildiki, bu ishda mening ishtirokim borligi Gerbertning xayoliga ham kelmadi. Oqshomlarning birida u qanchalar baxtiyor chehra bilan uyga qaytgani va meni buyuk yangilikdan xabardor qilganini sira unutmaman: u tasodifan allaqanday Klarriker (yosh savdogarning ismi shunday edi) bilan tanishibdi va ana shu Klarriker nimagadir uni yoqtiribdi va... ehtimol... orziqib kutilgan baxtli tasodif, mana u. Kunlar o'tib, uning ishonchi ortib, chehrasi yorishib borgani sayin sadoqatimga ishonchi komil bo'lib boraverdi, deb o'ylayman, negaki uning baxtiyor ekanini ko'rgan kezlarimda ko'zlarimga quvonch yoshlari quyilib kelaverardi.

Hamma narsa iziga tushib, Gerbert birinchi marta Klarrikerning idorasiga ishga borgan, kechki payt esa omadi kelganidan to'lib-toshib men bilan to'xtamay suhbatlashgan kuni esa yolg'iz qolishim bilan, umidlarimdan kimgadir naf yetganini o'ylab, chindan ham yig'lab yubordim.

XXXVIII BOB

Hayotimning ushbu sahifasini Bentli Dramlning ismini tilga olmasdan yopa olmayman, bil'aks, u to'g'rida jon deb og'iz ochmagan bo'lardim!

Kunlarning birida Gerbert ikkimiz a'zo bo'lgan „Qayinzordagi chittaklar“ klubining Chittaklari to'la tarkibda yig'ildilar va har doimgidek mustahkam do'stlik hamda omad yo'lida urishib olishga ulgurdilar. Raislik qiluvchi Chittak Qayinzorni tartibga chaqirib, Draml biron-bir xonimning salomatligi uchun qadah so'zi aytmaganini eslatdi – klubning qoidalariga ko'ra o'sha kuni bu sharafligi vazifani u ado etishi kerak edi. Qadahlar davra aylanib bo'lgach, bu ablahning menga bepisand va ma'noli qarayotganini sezib qoldim, lekin hayron bo'lib o'tirmadim – bir-birimizga toqat qilolmasdik. U Estella ismli qizning salomatligi uchun ichishni taklif qilganida g'azabim qo'zg'adi!

– Familiyasi-chi? – so'radim men.

– Ishingiz bo'lmasin, – dedi jahl bilan Draml.

– U qayerda yashaydi? – so'radim men. – Bunisini aytishga majbursiz.

Bu chindan ham Chittaklar qoidasida bor edi.

– Richmondlik Estella, jentlmenlar, – dedi Draml, savolni men bermagandek. – Go'zallikda beqiyos.

(– Beqiyos go'zallik nima ekanini tushunadigandek gapiradi-ya, befahm tentak! – shivirladim Gerbertga.)

– Men bu xonimni taniyman, – dedi Gerbert hamma ichib bo'lgach.

– Rostdan-a? – dedi Draml.

– Men ham taniyman, – dedim men alvondek qizarib.

– Rostdan-a? – dedi Draml. – E Xudoyim!

Bu befarosat ustingizga likop yoki stakan uloqtirishdan boshqa javob topolmasdi, lekin hozirgi so'zlari eng

o'tkir qochiriqdan ham qattiqroq ta'sir qilgandi, men o'sha zahoti o'rnimdan turib, o'zini hurmat qiladigan Chittak ushbu Qayinzorda (biz bunday iboralarni ishlatishni yoqtirardik) turib, o'zi hatto uzoqdan bo'lsa-da, tanimaydigan xonimning salomatligi uchun qadah ko'tarishni taklif qilganini oriyatsizlik deb baholayman, dedim. Mister Draml o'rnidan turib ketib, buni qanday tushunish kerak, dedi. Agar huzurimga sekundantlaringizni yuborishni istab qolsangiz, meni qayerdan topishni bilasiz, deb javob qaytardim.

Nasroniylar yurtida bunday gap-so'zlardan keyin qon to'kilishining oldini olsa bo'ladimi, degan savol Chittaklar safiga parokandalik soldi va bahs shunchalar qizg'in tus oldiki, mendan keyin yana olti hurmatli Chittak ularni qayerdan topishni hamma bilishiga umid bildirdilar. Nihoyat Qayinzor (or-nomus mahkamasi vazifasi unga yuklangan bo'lganidan) qaror qildi: agar mister Draml o'sha xonim bilan tanish bo'lish baxtiga sazovor ekaniga kichkina bo'lsa ham dalil topib ko'rsatsa, mister Pip jentlmen va Chittak sifatida undan „qizishib ketgani va gaplari uchun“ kechirim so'raydi. Katta ketishimiz sovib qolmasligi uchun, ajrim ertasi kuniga belgilangandi va Draml ertasi kuni Estelladan yozma tasdiq ko'tarib keldi, unda Estella xushmuomalik bilan haqiqatan ham Draml bilan bir necha marta raqs tushishdan mamnun bo'lganini tasdiqlagandi. „Qizishib ketganim va ...lar uchun“ kechirim so'rashdan va meni istalgan yerdan topish to'g'risida aytganlarimning mutlaqo asossiz ekanidan kelib chiqib, ularni qaytarib olishdan boshqa ilojim qolmagandi. Draml ikkimiz yana bir soatcha janjallashdik, Qayinzor bo'lsa betartib bahslar va gap talashishlar bilan ovora bo'ldi, pirovardida Chittaklar orasidagi do'stlik va xayrixohlik hech qachon bunchalar mustahkam bo'lmagan, deb e'lon qilindi.

Oradan ko'p o'tmay, Draml uning orqasidan yurayotganiga, qiz esa bunga chidayotganiga ishonch hosil qildim, bu unchalar qiyin bo'lmadi. Yana bir muddat o'tgach, u umuman Estellaning izidan qolmaydigan bo'ldi va biz endi deyarli har kuni to'qnash keladigan bo'lib qoldik. U qaysarlik bilan qizni ta'qib etar, Estella esa ustalik bilan oshiqni yanada qiziqtirardi: dam u bilan xushmuomala, dam sovuq munosabatda bo'lar, ba'zan maqtashni boshlar, keyin ochiqchasiga mazax qilar, ayrim hollarda eski tanishini ko'rgandek qarshilar, ba'zan esa, o'zini tanimaganga olardi.

Lekin, mister Jeggers aytmoqchi, O'rgimchak, tarki odat – amri mahol, o'ljasini shoshmasdan poylab yotishga o'rgangandi. Bundan tashqari u boyligi va aslzodaligi kuchiga ko'r-ko'rona ishonar, bu esa mustahkam iroda va maqsadni aniq belgilashning o'rmini bosardi. Shunday qilib Estellaga qaysarlik bilan qorovullik qilishni davom ettirib, O'rgimchak qat'iyat bilan juda ham ko'p yorqin qanotli parvonalarni chetga surib qo'yar va ko'pincha to'r yoyib, shiftdan ayni zarur paytda tushib kelardi.

Richmondga uyushtirilgan shahar ballaridan birida (u paytlarda bal uyushtirish hamma yerda odat tusiga kirgandi) Estella barcha boshqa sahibjamollarni ortda qoldirdi, to'pori Draml bo'lsa, undan bir qadam ham nari ketmadi va Estella unga shunchalar xayrixohlik ko'rsatdiki, qiz bilan gaplashib olishga qaror qildim. Vaqtini topib, Estella guldonlar oldida birga uyga qaytish uchun missis Brendlini kutayotganida, uning yoniga keldim.

– Charchadingizmi, Estella?

– Biroz, Pip.

– Tushunarli.

– Lekin bevaqt charchadim: bugun hali Satis Xauzga xat yozishim kerak.

– So‘nggi g‘alaba to‘g‘risida axborot berish uchunmi? Eh, Estella, arzimaydigan g‘alaba bu!

– Bu bilan nima demoqchisiz? Men g‘ayrioddiy hech narsani sezganim yo‘q.

– Estella, – dedim unga, – huv anavi burchakdagi sizdan ko‘z uzmayotgan odamga bir qarang.

– Nega endi unga qarashim kerak? – e‘tiroz bildirdi Estella, men tomonga o‘girilar ekan. – Siz aytgandek, huv anavi burchakdagi odamning qiziq joyi bormi?

– Sizdan xuddi ana shuni so‘ramoqchiydim, – dedim men. – Axir butun kecha mobaynida u atrofingizdan ketmadi.

– Yonayotgan sham atrofida kapalaklar ham, turli qo‘ng‘izlar ham aylanaveradi, – dedi Estella o‘sha tomonga boqib. – Sham ularni to‘xtata oladimi?

– Yo‘q, – javob berdim men, – lekin Estella to‘xtata oladi-ku?

U bir daqiqa jim turib, keyin kulib yubordi.

– To‘g‘risini aytsam, bilmadim. Ehtimol, shundaydir. Nima deb o‘ylasangiz o‘ylayvering.

– Lekin, Estella, menga quloq soling. Dramldak nafratga loyiq odamga xayrixohlik qilayotganingizdan chuqur iztirobdaman. Axir bilasiz-ku, uni hamma yomon ko‘radi.

– Nima bo‘libdi?

– Boyligi va yana qandaydir miyasini yegan ajdodlaridan boshqa maqtanadigan narsasi yo‘qligini bilasizmi; bilasiz-ku axir, to‘g‘rimi?

– Nima bo‘libdi? – dedi u yana bir marta va uning ajoyib ko‘zlari yanada kattaroq ochilayotgandi.

Ushbu iboradan nariroq bo‘lish uchun uni o‘zim ham takrorladim:

– Nima bo‘libdi? Bundan men qiynalyapman, axir.

U meni aynan meni – qiynoqqa solish uchun Dramlga

ko'ngilchanlik qilyapti, deb o'zimni ishontira olganimdaydi, ancha yengil tortgan bo'lardim; lekin Estella har doimgidek shunchaki mening bor ekanimni unutib qo'ygan, binobarin bu to'g'rida gap ham bo'lishi mumkin emasdi.

– Pip, – dedi Estella xonaga ko'z yugurtirib olib, – sizga buning qanday ta'sir qilayotgani to'g'risida ahmoqona gaplarni bas qiling. Ehtimol, bu boshqalarga ta'sir qilayotgandir, ehtimol, menga shu narsa kerakdir. Buni muhokama qilishning keragi yo'q.

– Yo'q, kerak, – e'tiroz bildirdim men, – chunki men odamlarning: „U jozibasi va latofatini ana shu manfur kimsa va ahmoqqa sarf qilyapti“, – deyishlariga chiday olmayman.

– Men esa chidayman, – dedi Estella.

– Oh, Estella, bunchalar takabbur, bunchalar qaysar bo'lmang!

– Endi meni takabbur va qaysar deyapsiz, hozirgina befarosat odamga ko'ngilchanlik qilyapsiz, deb tanqid qiluvdingiz, – dedi Estella qo'llarini yoyib.

– Buni sira inkor eta olmaysiz, – dedim men sabrsizlik bilan, – bugun mening ko'z o'ngimda, hech qachon menga... nasib qilmagan qarashlar va tabassumlarni unga hadya qildingiz.

– Nahotki sizni o'zimga rom qilib, aldashimni istasangiz, – dedi Estella kutilmaganda menga jiddiylik va diqqat, hatto jahl bilan nazar solib.

– Demak, siz uni o'zingizga rom qilib, aldayapsiz, shundaymi, Estella?

– Ha, uni va ko'p sonli boshqalarni, sizdan boshqa hammani. Ana, missis Brendli kelyapti. Boshqa hech narsa demayman.

Endi, ushbu bobni uzoq vaqtdan beri qalbim ardog'ida bo'lib kelgan va uni borgan sari yangi og'riqqa duchor qilayotgan insonga bag'ishlaganimdan keyin, uzoq zamon-

lardan beri pishib kelayotgan, hali men Estellaning mavjud ekanini bilmagan, uning go'daklarcha ongini miss Xevishem zaharlay boshlamagan vaqtdayoq sodir bo'lishi muqarrar bo'lgan hodisa mavzusiga o'tishimga hech narsa to'sqinlik qila olmaydi.

Sharq ertaklarining birida hikoya qilinishicha, podshohning to'shagiga uzilib tushishi kerak bo'lgan to'rtburchak tosh bo'lagini uzoq vaqt tosh konida yo'nib, yana shuncha vaqt u osilib turishi lozim bo'lgan arqon uchun qoya oralab yo'lak ochib, asta-sekinlik bilan toshni yuqoriga ko'tarib, shiftga mahkamlab, arqonning ikkinchi uchini uzoq vaqt yo'lakdan o'tkazib, katta temir halqaga bog'lab qo'ygan ekanlar. Og'ir mashaqqatlar ortda qolib, belgilangan soat yetib kelgach, sultonni yarim kechada uyg'otibdilar va arqonni chopib tashlash uchun qo'liga o'tkir bolta tutqazibdilar; podshoh arqonni uzib tashlabdi va shift o'pirilib tushibdi. Men bilan ham shunday bo'ldi: mendan uzoqda va yaqinda sodir bo'lishi muqarrar hamma narsa amalga oshdi; nihoyat, mana, bolta bir lahzaga ko'tarilib tushdi-yu, boshimdagi tom o'pirilib, meni vayronalari bilan ko'mib tashladi.

XXXIX BOB

Yigirma uchga kirdim, tug'ilgan kunimdan keyin bir hafta o'tgan bo'lsa ham, umidlarim borasida biron-bir aniqlik kiritadigan boshqa bir og'iz so'z ham eshitmadim. Barnard musofirxonasidan ko'chib chiqqanimizga bir yildan ko'p bo'lgan va biz endi Templda – Garden-Kortda, shundoqqina daryo bo'yida yashardik.

Bir kun oldin Gerbert Marselga ish bilan jo'nab ketgandi. Bir o'zim qolib, yolg'izlikdan yuragim siqilayotgandi. Ertaga yoki bir haftadan keyin nimadir oydinlashadi, deb kutaverishdan, umidlarim puchga chiqaverishidan

charchab, bezovtalikdan o‘zimni qo‘yarga joy topolmay, do‘stimning quvnoq chehrasi va samimiy hozirjavobligini qo‘msayotgandim.

Soat o‘n birgacha kitob o‘qish uchun soatni qarshimga, stol ustiga qo‘yib olgandim. Kitobni yopishga ulgurmasimdan avliyo Pyotr ehromi va Sitidagi ko‘plab cherkovlarning soatlari, biri olib, biri qo‘yib, vaqt necha bo‘lganidan darak bera boshladilar. Shamol shovqini zang tovushini g‘ayrioddiy qilib o‘zgartirar, shamol bu tovushlarni ilib, parchalab tashlayotganiga quloq solib turganimda, zinadan qadam tovushi keldi.

Nimagadir cho‘chib tushdim va dahshatdan badanim muzlar ekan, negadir marhuma opam esimga tushdi. Noxush qo‘rquv soniyasi o‘tib ketdi, men yana quloq solib, ko‘tarilayotgan odam pillapoyalarni ehtiyotkorlik bilan paypaslab bosayotganini eshitdim. Zinadagi fonuslarning o‘chib qolgani esimga tushib, stol ustidagi chiroqni qo‘limga oldim va zinaga chiqdim. Pastdan chiroqning yorug‘i ko‘rindi, shekilli, qadam tovushlari tinib qoldi.

– Pastda kim bor? – qichqirdim men zina to‘sig‘i osha engashib.

– Men, – dedi kimdir quduq ichidan gapirayotgandek.

– Sizga qaysi qavat kerak?

– Yuqori qavat. Mister Pip.

– Bu menman. Biror narsa bo‘ldimi?

– Hech narsa bo‘lmadi, – dedi ovoz.

Qadamlar yana yuqoriga ko‘tarila boshladi.

Chiroqni zina ustida tutib turmoqdaydim, nihoyat uning yog‘dusi inson qiyofasini yoritdi. Chiroq kitob o‘qishga mo‘ljallangan bo‘lib, qalpoq kiygizilgani uchun o‘sha odamni bir lahzagagina yoritdi.

Ana shu bir lahza ichida o‘zimga mutlaqo notanish bo‘lgan, yuqoriga tikilib turgan ko‘zlarida men bilan uch-

rashuvdan tushunarsiz quvonch va hayajon sezilib turgan qiyofani ko'rib ulgurgandim.

O'sha odamning ko'tarilishiga mos ravishda chiroqni harakatlantirar ekanman, ustidagi libosi sifatli matodan, lekin dengiz sayohatchilariga mo'ljallab, qo'pol bichimda tikilganini qayd qildim. Uning sochlari oppoq va uzun edi. U chayir, hali juda baquvvat, yuzi oftob va shamollarda qoraygan erkak kishi edi. Mana, u so'nggi ikki pillapoyani bosib o'tdi, chiroq yog'dusi ikkalamizni yoritardi, uning qo'l uzatayotganini ko'rib, hayratdan qotib qoldim.

– Kechirasiz, nima ishingiz bor edi? – so'radim undan.

– Nima ish? – qaytardi u qadamini to'xtatar ekan. – E, ha. To'g'ri, ijozatingiz bilan ishimni bayon qilsam.

– Ichkariga kirishni xohlaysizmi?

– Ha, – dedi u. – Ichkariga kirishni xohlayman, mister.

Uning yuzida barq urib turgan men bilan uchrashuvdan xursandlik va o'ziga bo'lgan ishonch asabimga tegayotganidan, savolim u qadar xushmuomalik bilan berilmagandi. Ushbu xursandchilikka sherik bo'lishimni kutayotganidan ham jahlim chiqa boshlagandi. Nima bo'lganda ham, uni xonaga olib kirdim va chiroqni stol ustiga qo'ygach, qo'limdan kelgancha xushmuomalik bilan unga nima kerak ekanini so'radim.

U atrofga, o'zi hamma narsaga aloqadordek zavqlanib emas, ko'proq ma'qullab nazar soldi, keyin qalin yo'l kamzulini va shlapasini yechdi. Shundagina men uning boshi ajin bosgan va tuksiz ekanini, faqat ikki chakkasidagina uzun, oppoq sochlarni ko'rdim, lekin nima sababdan u bu yerda paydo bo'lganini izohlay oladigan hech bir narsani payqamadim. Aksincha, keyingi daqiqada u menga ikkala qo'lini uzatdi.

– Bu nima degani? – so'radim men aqldan ozgan odam bilan muloqot qilyapman, degan xayolda.

U mendan ko‘zini olib qochdi va o‘ng qo‘li bilan boshini sekin siladi.

– Insonning bu narsaga chidashi qiyin, – dedi u past, bo‘g‘iq tovushda, – shuncha vaqt kutsang, shuncha chaqirim yo‘l bosib kelsang; lekin bu yerda sening aybing yo‘q – sen ham, men ham aybdor emasmiz. Besh daqiqadan keyin hammasini aytib beraman. Besh daqiqa sabr qilib tur, iltimos.

U o‘choq oldidagi o‘rindiqqa cho‘kdi va katta, qoraygan, tomirlari o‘ynab yotgan qo‘llari bilan yuzini to‘sisib oldi. Unga diqqat bilan qaradim va biroz orqaga chekindim, lekin taniy olmadim.

– Yon atrofda hech kim yo‘q, shundaymi? – so‘radi u yelkasi osha menga qarab.

– Kech bo‘lganda uyimga bostirib kirgan sizdek begona bir odamni bu nega qiziqtirib qoldi?

– Hozirjavobga o‘xshayapsan! – dedi u va boshini shunchalar mehr bilan chayqatdiki, o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim va g‘azablanib ketdim. – Hozirjavob bo‘lib o‘sganing yaxshi bo‘libdi! Lekin menga tegma, aks holda afsus yeb qolasan.

U sezib qolishga ulgurgan niyatimdan voz kechdim, negaki, endi uning kim ekanini bilgandim! Yuz belgilari-ni alohida oladigan bo‘lsam, birortasini ham eslay olmadim, lekin uning kim ekanini fahmlagandim! Agar shamol va yomg‘ir meni o‘tmishdan ajratib turgan yillarni tarqatib yuborib, o‘tmishni to‘sisib turgan barcha narsalarni uchirib ketib, bugungiga butkul o‘xshamagan sharoitda biz birinchi marta uchrashgan qabristonga ikkimizni olib borib tashlaganlarida ham, bugun xonamda, kamin oldida o‘tirgan tanish mahbusni hozirgidek ishonch bilan tanib olmagan bo‘lardim. Uning cho‘ntagidan egovni chiqarishi, bo‘ynidan ro‘molini yechib, boshini bog‘lab olishi, qo‘llari bilan

o'zini quchoqlab olishi, sovuq qotgandek g'ujanak bo'lib, mendan ko'z uzmay, xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurishi shart emasdi. Bir daqiqa oldin uning kimligini taxmin ham qilib bo'lmaydigandek tuyulgan bo'lsa-da, u hali dalil-isbotlarni ishga solmayoq, uni tanib bo'lgandim.

U yana stol oldiga keldi va yana ikkala qo'lini menga uzatdi. Nima qilishni bilmasdan – hayron bo'lganimdan boshim aylana boshlagandi – istamaygina qo'llarimni uzatdim. U ularni qattiq siqdi, lablariga olib bordi va darrov qo'yib yubormadi.

– Sen oliyjanoblik qilding, o'g'lim, – dedim u. – Barakalla, Pip! Men buni unutganim yo'q!

O'zgarib ketgan qiyofasidan meni bag'riga bosmoqchi bo'layotganini tushunib, qo'limni ko'kragiga tirab, uni nari itardim.

– Yo'q, – dedim men. – Keragi yo'q! Agar bolaligimda qilgan ishim uchun minnatdor bo'lsangiz, umid qilamanki, uni isbot qilish uchun tuzalish yo'liga o'tgansiz. Agar bu yerga menga minnatdorchilik bildirish uchun kelgan bo'lsangiz, o'zingizni qiynab o'tirishga hojat yo'q edi. Meni qanday qilib topganingizni bilmayman, lekin bu ishni yaxshi niyatda qilganingiz ko'rinib turibdi va sizni o'zimdanda itarmoqchi emasman; lekin, turgan gapki, shuni tushunishingiz kerakki...

Uning sinchkov nazari shu qadar izohtalab ediki, u yog'iga gapirolmay qoldim.

Birmuncha muddat bir-birimizga jim qarab turganimizdan keyin u:

– Turgan gapki, tushunishingiz kerak, dedim. Aynan nimaning, turgan gapki, tushunishingiz kerak ekan? – deb so'radi.

– Endi hamma narsa o'zgarganini va men eski, tasodifiy tanish-bilishlikni aslo tiklamoqchi emasligimni. Tavba qilib, boshqa odamga aylangansiz, deb o'ylash menga yo-

qadi. Sizga buni aytish ham yoqadi. Minnatdorchilik izhor etish uchun kelganingiz, minnatdorchilikka, sizning fikringizcha, munosib ekanim ham yoqadi. Lekin yo‘llarimiz boshqa-boshqa. Ivib ketibsiz, holdan toygan ko‘rinasiz. Ketishdan oldin biror narsa ichib olishni istaysizmi?

U bo‘yniga yana ro‘molini tashlab olgan va sinchkov nazarini mendan uzmay, uning uchini tishlab-tishlab qo‘ymoqdaydi.

– Mayli, – dedi u hamon mendan ko‘z uzmay va ro‘molining uchini og‘zidan chiqarmay. – Mayli, ha, rahmat, ketishdan oldin biror nima ichaman.

Devor yonidagi kichik xontaxtada shishalar va stakanlar qo‘yilgan patnis bor edi. Uni kamin yoniga olib kelib, mehmonimdan nima ichishini so‘radim. U so‘z demay, deyarli qaramay shishalardan biriga ishora qildi va men grog tayyorlashga kirishdim. Qo‘limni titratmay ushbu vazifani ado etishga qanchalar harakat qilmay, u bo‘ynidagi ro‘molning uzun uchini og‘zidan olishni unutib, o‘rindiqqa suyanib olib, mendan ko‘z uzmay o‘tirganidan, buning uddasidan chiqish qiyin bo‘ldi. Nihoyat stakanni unga uzatdim va ko‘zlari jiqqa yoshligini ko‘rib, hayron qoldim.

Hozirgacha uning tezroq ketishini istayotganimni ko‘rsatish uchun hatto o‘tirmayotgandim. Lekin uning ko‘ngli bo‘shashganini ko‘rib, men ham bo‘shashdim hamda vijdonim qiynala boshladi.

– So‘zlarimni ko‘nglingizga olmassiz, deb umid qilaman, – dedim men ikkinchi stakanga grog quyib va o‘zim uchun kursi hozirlab. – Sizni xafa qilmoqchi emasdim va agar beixtiyor shunday qilgan bo‘lsam, meni kechirishingizni so‘rayman. Salomatligingiz uchun sizga baxt tilayman!

Stakanni lablarimga olib borganimda, u og‘zini ochishi bilan ko‘kragiga tushib qolgan ro‘molning uchiga hay-

ron bo'lib qaradi va menga qo'l uzatdi. Men uni siqdim, keyin u grogni ichib, yengi bilan peshona va ko'zlarini artdi.

– Nima bilan shug'ullanasiz? – so'radim undan.

– Qo'y, qoramol boqdim, yana ko'p narsalarga urinib ko'rdim, – dedi u, – anavi yoqda, Yangi Dunyo¹da, notinch dengiz bilan bir necha ming chaqirim narida.

– Hayotda omadingiz kelgandir, deb umid qilaman?

– Juda ham omadim keldi. Men bilan boshqalar ham borishgandi, ular ham boyib ketishdi, lekin menga yetishga ularga yo'l bo'lsin. U tomonlarda obro'yim juda baland.

– Bularni eshitishdan juda xursandman.

– Bunday deyishing juda ham yaxshi, aziz o'g'lim.

Bu so'zlar va ular qanday ohangda aytilganiga e'tibor berib o'tirmasdan, hozirgina esimga tushib qolgan mavzuga murojaat qildim.

– Bir vaqtlar oldimga bir odamni yuborgandingiz, – dedim men. – Topshirig'ingizni bajarganidan keyin uni hech ko'rdingizmi?

– Bir marta ham ko'rmadim. Ko'ra olmasdim ham.

– O'shanda u meni topdi va ikkita bir funt sterlingli qog'oz pullarni topshirdi. O'zingiz bilasiz, u vaqtlarda kambag'al bola edim, kambag'al bola uchun ikki funt katta boyluk edi. O'shandan beri siz kabi mening ham ishlarim yurishib ketdi va endi o'sha pullarni qaytarib olishingizni so'rayman. Ularni boshqa bir kambag'al bolaga berishingiz mumkin.

U hamyonimni stol ustiga qo'yib, uni ochishim va birin-ketin ikkita bir funt sterlingli pulni ichidan olishimga qarab turdi. Ular yangi, toza edi, pullarni tekislab mehmonimga uzatdim. Mendan ko'z uzmay turib, u pullarni

¹*Yangi Dunyo* – Amerikaning kashf etilish davridagi nomi.

uzunasiga bukladi, keyin aylana qilib o‘rab, lampaning ustida yoqib yubordi va qo‘lini patnis ustiga tashladi.

– Endi men so‘rashga botinmoqchiman, – dedi u qovoq solayotgandek tabassum qilib va tabassum qilayotgandek qovoq solib, – ikkalamiz izg‘irin turgan botqoqlikda suhbatlashganimizdan beri, qanday qilib badavlat bo‘lib ketding?

– Qanday qilib?

– Ha, qanday qilib?

U grogni oxirigacha ichib, o‘rnidan turdi va olovga yaqin borib, og‘ir, qoraygan qo‘lini o‘choqning tokchasiga qo‘ydi. Keyin quritib olish va isitish uchun bir oyog‘ini panjaraga qo‘ydi, ivib ketgan boshmoqdan bug‘ chiqqa boshladi; lekin uning boshmoq bilan ham, olov bilan ham ishi bo‘lmay menga diqqat bilan tikilishda davom etmoqdaydi. Mana endi meni titroq bosayotgandi.

Og‘zimni ochdim, lablarimni qimirlatsam-da, ovoz chiqmayotgandi, nihoyat bir amallab (aniq chiqqan bo‘lmasa ham) mulkiy merosni kutayotganimni aytdim.

– Nafratga sazovor bandi qanday mulk to‘g‘risida gap borayotganini bilishi mumkinmi?

– Bilmadim, – dedim men g‘o‘ldirab.

– Nafratga loyiq bandi gap kimning mulki to‘g‘risida borayotganini bilishi mumkinmi?

– Bilmadim, – dedim yana g‘o‘ldirab.

– Qani, bir topishga urinib ko‘ray-chi, – dedi sobiq mahbus, – voyaga yetganingdan beri yiliga necha pul ol-yapsan! Birinchi raqam, masalan, beshmi?

Qalbim bezori telbaning qo‘lidagi og‘ir bolg‘a misol tepayotganini his qilib, o‘rnimdan turdim va kursiga suyanib, suhbatdoshimga termilib qoldim.

– Endi, vasiy masalasida, – davom etdi u. – To‘g‘rirog‘i, yigirma bir yoshga kirguningcha vasiyingmi, shunga

o'xshash odammi bo'lgan. Allaqanday ish yurituvchi ham bo'lishi mumkin. Familiyasining birinchi harfi, masalan, nima edi? „J“ emasmi mabodo?

Dunyoyimni yashin yog'dusi birdaniga yoritgandek bo'ldi va ustimga umidsizlik, haqorat, xavf-xatar, ehtimoliy ko'ngilsizliklar oqimi yopirilib, nafasimni bo'g'ib qo'yayozdi.

– Tasavvur qilgin-a, – deb u yana gap boshladi, – o'sha familiyasi „J“ dan boshlanadigan, to'lig'ini aytadigan bo'lsak, Jeggers degan ish yurituvchining ishonchli vakili Portsmutga dengiz orqali kelsa, kemadan tushsa va sen bilan uchrashsa. Hozirgina o'zing: „Meni qanday qilib topganingizni bilmayman“, deding. Xo'sh, seni qanday qilib topibman, a? Juda ham oson-da: Portsmutdan Londondagi bir odamga maktub yozdim va manzilingni bilib oldim. U odamning ismi nima, deysanmi? Ha, Uemmik!

Birov o'ldiraman, deb tahdid qilsa ham o'sha lahzada og'zimni ocholmagan bo'lardim. Bir qo'lim bilan kursiga suyanib turar, ikkinchisini, nazarimda, hozir yorilib ketadigan ko'kraginga qo'yib, mehmonimga talmovsirab qaraganimcha, qotib qolgandim. Keyin ko'z oldim qorong'ila-shib, xona chir aylana boshladi va men vahima ichida kursini mahkam ushlab oldim. U meni suyab qoldi, divanga o'tqazib, atrofimga yostiqlar qo'yib, suyantirdi va qarshimda bir oyog'ini bukib, tiz cho'kdi. Endi xotiramda aniq jonlangan va meni dahshatga solgan yuzi yuzimga juda yaqin turardi.

– Ha, Pip, aziz bolaginam, men seni jentlmen qildim! Men, boshqa hech kim emas! O'shandayoq bir gineya topsam ham, uni senga beraman, deb qasam ichgandim. Keyinroq, omadim kelib boyib ketsam, sen ham boy bo'lasan, deb qasam ichdim. Tuz tatimagan kunlarim bo'ldi, lekin zorlanmadim, sen yaxshi yashasang bo'ldi, dedim. Qo'lim qo'limga tegmay mehnat qildim, sen ishlamasang

bo'ldi, dedim. Xo'sh, nima bo'libdi, o'g'lim? Bu gaplarni mendan minnatdor bo'lishing uchun aytyapti, deb o'ylayapsanmi? Aslo unday emas. Bularni shuni bilib qo'yishing uchun aytyapmanki: hamma ta'qib qilgan, lekin sen hayotini saqlab qolgan qo'tir it shu darajaga yetdiki, qishloq bolasini jentlmenga aylantirdi va bu jentlmen – sensan Pip!

Agar qarshimda eng qo'rqinchli maxluq turgan bo'lganida ham undan bu qadar ijirg'anmagan, bu qadar dahshatga tushmagan, bu qadar nafratlanmagan bo'lardim.

– O'zing bir qara, axir, – davom etdi u cho'ntagimdan soatni olib va uzugimni burab, tosh tomonini o'ziga qaratib; menga qo'l tekkizganida ilonni ko'rgandek etim jimirlab ketdi, – oltin soat, chiroyliligini aytmaysanmi: jentlmenga arzimabdimi! Bunisi esa olmos, atrofi yoqut bilan o'ralgan: jentlmenga yarashmaydimi! Kiyimlaringga qara – nafis va chiroyli. Bulardan zo'rini topib bo'lmasa kerak! Kitoblarni aytmaysanmi! – U xonaga ko'z yugurtirdi. – Javonlar to'la, yuzlab kitoblar! Axir sen ularni o'qigansan? Bilaman, bilaman, kelgan paytimda ham o'qiyotganding. Xa-xa-xa! Menga ham kitob o'qib berasan-a, o'g'lim? Agar ular boshqa tilda bo'lsa, bir so'zini ham tushunmayman, lekin baribir, sen bilan faxrlanaman.

U yana qo'llarimni labiga olib bordi, yana badanimga muz yugurdi.

– O'zingni qiynama, Pip, gapirma, – dedi u yana yengi bilan peshonasi va ko'zlarini artib olgach, tomog'ida nimadir „qult“ etdi – bu tovush xotiramda yaxshi saqlanib qolgandi! Qanchalar jiddiy gapirsa, undan shunchalar ko'p nafratlana-yotgandim. – Sen uchun hozir eng yaxshisi, jim yotish, o'g'lim. Axir sen bugungi kunni men kabi yillab kutmagansan; menga o'xshab uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rmagansan. Lekin nahotki biror marta bo'lsa ham bularning hammasini men qilayotganimni o'ylab ko'rmagan bo'lsang?

– Yo‘q, yo‘q, yo‘q, – deya javob qaytardim. – Tasavvur ham qilmaganman!

– Ana ko‘ryapsanmi, bular mening ishim, boshqa hech kimniki emas. Va bu to‘g‘rida o‘zim va mister Jeggersdan boshqa hech kimsa bilmaydi.

– Nahotki boshqa hech kim bo‘lmagan bo‘lsa? – so‘radim men.

– Bo‘lmagan, – dedi u hayratdan ko‘zlarini katta ochib, – yana kim bo‘lishi kerak? Oh, bolaginam, chiroyingga bir qara! Xo‘sh, ayt-chi, shahlo ko‘zlar ham bormi? Biror joyda senga tinchlik bermayotgan shahlo ko‘zlar bormi?

Oh, Estella, Estella!

– Ular seniki bo‘ladi, o‘g‘lim, qanchaga tushsa ham. Sendek bir ma‘lumoti bor jentlmenning qo‘lidan hech narsa kelmaydi, demayapman; lekin pul bilan yengilroq ko‘chadi-da! Boshlagan gapimning davomini senga aytib beray, bolaginam. Qo‘ylarga qarab yurgan paytimdagi o‘sha qorovulxonada menda aqcha paydo bo‘ldi (ularni menga fermer-xo‘jayinim dunyodan o‘tayotib qoldirdi, u bizga o‘xshaganlardan edi), keyin muddatim tamom bo‘ldi, men asta-sekin mustaqil ish yuritib ko‘ra boshladim. Nimaiki qilmay, sen to‘g‘ringda o‘ylardim. Biror yangi ishga qo‘l uraman-da, o‘zimga-o‘zim: „Bular bolaniki, bo‘lmasa la‘natlar bo‘lsin menga!“ deyman. Va hamma narsada hayratlanarli darajada omadim chopa boshladi. U yerlarda obro‘yim baland, deb aytgandim senga. Xo‘jayinimdan qolgan va o‘zim dastlabki yillarda ishlab topgan pullarni Angliyaga, mister Jeggersga jo‘natdim – hammasi senga edi, o‘shanda u mening maktubimga ko‘ra seni olib ketgani kelgandi.

Qaniydi, u o‘shanda kelmagan bo‘lsa! Qaniydi, taqdirimdan unchalar rozi bo‘lmasam-da, ustaxonada qolgan va baxtli bo‘lgan bo‘lsam!

– Jentlmenni katta qilayotganimni bilish o‘zim uchun

katta mukofot edi. Men piyoda, koloniyachilar esa ustimga chang otib, zotdor otlarda yurgan bo'lsalar nima bo'libdi? Bilasanmi nimalarni o'ylandim? Mana eshit: „Hammangiz bir bo'lsangiz ham teng kela olmaydigan jentlmenni katta qilyapman!“ Ular bir-birlariga: „To'g'ri, omadi kelyapti, lekin yaqinda u mahbus edi, hozir ham savodsiz, qo'pol odam“, deganlarida, bilasanmi nimalarni o'ylandim? Mana nimani: „Mayli, men jentlmen emasman, savodim ham yo'q, lekin mening jentlmenim bor. Sizlarda yerlaringiz va podalaringiz bor, lekin birortangizda Londonda haqiqiy jentlmen bormi?“ Ana shu xayol bilan o'zimda kuch topib yurdim. Qachonlardir bu yerga albatta kelib, bolaginamni ko'rib, eng yaqin odamimdek unga hamma narsani ochiq aytishni ham ko'nglimga tugib yurdim.

U qo'lini yelkamga qo'ydi. Bu qo'lga qon sachragan bo'lishi mumkin, degan xayolda seskanib tushdim.

– U yerlardan ketish menga oson bo'lmadi, Pip, qolaversa bu ish xatarli ham edi. Lekin maqsadlarimga doimo erishib kelganman, maqsad qanchalik qiyin bo'lsa, shunchalik matonatli ham bo'lganman, hammasini o'ylab, mustahkam reja tuzib qo'ygandim. Mana nihoyat, shu yerdaman. Aziz bolaginam, men shu yerdaman!

Men xayollarimni jamlashga harakat qilayotgandim, lekin miyam ishlamasdi. Bu odamning gaplarini emas, yomg'ir va shamol shovqinini eshitayotgandek edim; hatto u jimib qolganida ham uning ovozi boshqa tovushlardan ajratishga qodir emasdim.

– Meni qayerga joylashtirasan? – so'radi u biroz vaqt o'tgach. – Meni qayergadir joylashtirishing kerak, o'g'lim.

– Uxlashgami? – so'radim men.

– Ha. Bugun mazza qilib uyquga to'ymoqchiman, necha oylardan beri dengizlarda adashib, uloqib yurganimni bir tasavvur qilgin-a!

– Men bilan yashaydigan do‘stim hozir shaharda emas, – dedim men divandan turayotib, – uning xonasida yota qoling.

– U ertaga ham kelmaydimi?

– Yo‘q, – qanchalar harakat qilmay, alahlayotganga o‘xshardim, – ertaga ham kelmaydi.

– Negaki, bilasanmi, o‘g‘lim, – dedi u ovozi pasaytirib va uzun barmog‘ini ko‘kragimga tahdid bilan qadab, – ehtiyot choralarini ko‘rishimiz kerak.

– Tushunmayapman. Ehtiyot choralari?

– Ha-da. Bo‘lmasa, qasam ichib aytamanki, o‘ldirishadi!

– Nega o‘ldirishadi?

– Axir men bir umrga surgun qilinganman. Qaytib kelish men uchun o‘lim degani. Keyingi paytlarda juda ko‘p odam qaytib keldi, agar ushlab olsalar, meni ham dor kutishi aniq.

Shunisi yetmay turuvdi! Bu sho‘rpeshona yillar davomida o‘zining la‘nati oltin va kumushlaridan menga kishan yasabgina qolmay, hayotini garovga qo‘yib oldimga kelgan, endi uning taqdiri mening qo‘llarimda edi! Agar undan nafratlanmay, yaxshi ko‘rganimda; agar u menda ijirg‘anish emas, chuqur nafasat va zavq uyg‘otgandaydi, ahvol men uchun hozirgichalik yomon bo‘lmasdi. Aksincha, u holda men yurakdan va tabiiy ravishda uni xavf-xatardan himoya qilishga urinib ko‘rardim.

Qiladigan birinchi ishim – ko‘chadan chiroq nurini ko‘rib qolmasliklari uchun darpardalarni yopish bo‘ldi, keyin eshiklarni ham yopib, qulfladim. Ana shular bilan ovo-ra bo‘lib turganimda, u stol oldida rom ho‘plab, pechene yeyotgandi. Unga qarab turib botqoqlikda ovqat yeyotgan tanish mahbus ko‘zimga ko‘rinib ketdi. Uning egilib, oyoqlaridagi kishanni egovlay boshlashini kutayotgandek edim.

Gerbertning xonasiga kirib, kirish eshigi qulflog‘liq ekaniga, u yerga biz gaplashib o‘tirgan xona orqaligina kirish mumkinligiga ishonch hosil qildim-da, mehmonimdan hozir yotasizmi, deb so‘radim. U ha, deb javob qildi, lekin ertalab uyg‘onganida mening „jentlmencha“ ichki kiyimlarimdan kiyimoqchi ekanini aytdi. Ichki kiyimni olib, to‘shak yoniga qo‘ydim, xayrlashayotib qo‘llarimni silkita boshlagandi, yana badanimga muz yugurdi.

Nihoyat, undan bir amallab qutuldim, keyin o‘choqqa ko‘mir tashladim va uxlashga botinolmay, olov yonida o‘tirdim. Yana bir soatcha to‘la karaxtlik o‘ylashimga yo‘l qo‘ymadi; va nihoyat o‘ylay boshlagach, asta-sekin tamom bo‘lganimni, men suzayotgan kema parchalanib ketganini tushunib yetdim.

Miss Xevishemning menga tegishli rejalari xomxayol bo‘lib chiqdi; Estella hech qachon meniki bo‘lmaydi; Satis Xausda mendan xasis qarindoshlarga zarba berish uchun, qurbon qilgani boshqa hech kimni topa olmaganlaridan, qalb o‘rnida murvat o‘rnatilgan qo‘g‘irchoq o‘rnida foydalanganlar – dastlabki og‘riqli xulosalarim ana shular bo‘ldi. Lekin meni eng chuqur, eng og‘ir iztirobga solgan fikr shundan iborat ediki, qandaydir jinoyatlari uchun qamalangan, hozir o‘zim xayol surib o‘tirgan mana shu xonadan olib chiqib ketib, Old-Beyli darvozalari yonida dorga osishlari mumkin bo‘lgan sobiq mahbusni – ana shu odamni deb Joni tashlab kelaveribman.

Pip umidlarining ikkinchi fasli shu yerda tugaydi.

XL BOB

Qo‘rqinchli mehmonimni xavf-xatardan himoya qilish fikri darrov miyamga kelgani yaxshi bo‘lgandi; ushbu fikr uyg‘onishim bilan xayolimdan o‘tdi va shuurimni band qilayotgan boshqa pala-partish o‘ylarni vaqtincha nari surdi.

Uni xonamga berkitish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Buning uddasidan baribir chiqolmasdim va har qanday urinish faqat shubha uyg'otgan bo'lardi. To'g'ri, Qasoskorni ishdan bo'shatganimga ko'p bo'lgandi, lekin endi menga qip-qizil basharali kampir xizmat qilar va yordam berishi uchun uvadalariga burkangan jiyanini o'zi bilan olib kelardi; ularni xonalardan biriga kiritmaslik qiziqishlarini uyg'otgan va nihoyasi yo'q gap-so'zlarga asos yaratish bilan barobar edi. Ikkalalari ham shabko'r, nazarimda, kalit teshigidan yillar mobaynida ko'p mo'ralaganlari uchun, ikkalalari ham, albatta, chaqirilmagan vaqtda paydo bo'lishardi. Ikkalasining ham qo'li egri ekanini hisobga olmaganda bu ulardagi yagona muqim xislat edi. Ushbu ikki xonimcha bu yerda qandaydir sir bor, deb o'ylamasliklari uchun ertalab ularga kutilmaganda qishloqdan amakim mehmonga kelib qoldi, deb aytishga qaror qildim.

Bu qarorni qorong'ida sham yoqish uchun gugurt izlab yurganimdayoq qabul qilgandim. Hech narsa topolmay, qorovulni fonusi bilan boshlab kelish uchun eng yaqin darvozaga yo'l olishga majbur bo'ldim. Paypaslab, qorong'i zinadan pastga tushayotganimda burchakda g'ujanak bo'lib o'tirgan odamga qoqilib ketdim.

Bu yerda nima qilyapsan, degan savolga o'sha odam umuman e'tibor qilmadi va o'zini chetga oldi, xolos. Buni ko'rib men qorovulxonaga chopib bordim va qorovulni chaqirib, birga qaytayotganimizda gap nimadaligini unga tushuntirdim. Shamol shunchalar kuchli esardiki, oxirgi yonib turgan sham ham o'chib qolmasin deya zinadagi fonuslarni yoqib o'tirmadik, lekin butun zinani tepadan pastgacha qarab chiqdik va hech kimni topolmadik. Shunda o'sha odam xonamizga kirib olmaganmikan, degan fikr xayolimga keldi; men qorovulning fonusidan shamimni yoqib oldim va uni dahlizda qoldirib, hamma

xonalarni, mehmon uxlayotgan xonani ham, diqqat bilan qarab chiqdim. Hamma yoq tinch, yo'qligimda hech kim ichkariga kirib olmagan.

Aynan shu kecha zinada ayg'oqchi yashiringan bo'lishi mumkinligidan bezovta edim va qorovuldan biror narsani bilib olish maqsadida unga ichkilik uzatib, kecha bitta-yarimta ichib olgan kimsa darvozadan kirmovdimi, deb so'radim. Bo'lmasam-chi, dedi u, bunaqalardan uchta-si kirdi, har xil vaqtda. Bittasi Faunten-Kortda yashaydi, qolgan ikkitasi Templ-Leynda, qorovul ularning uylariga qaytganlarini ko'ribdi. Mana shu uyda biz bilan bir qatorda ijaraga turadigan yagona odam ikki haftacha oldin shahardan chiqib ketgandi, tun paytida u qaytib kelmagani aniq edi – zinadan ko'tarilayotib, eshigi muhrlanganini ko'rgandik.

– Darvozadan kam odam kiradi, ser, – dedi qorovul stakanni uzatar ekan, – havo juda aynib ketdi. Soat o'n bir-da, sizni so'rab kelganlaridan keyin anavi uch jentlmendan boshqa hech kim kirmadi.

– Ha, ha, – shoshilib tasdiqladim men, – amakim kulgandi.

– Uni, albatta, ko'rgansiz-a, ser?

– Ha. Albatta, ko'rdim.

– U bilan kelgan odamni ham ko'rdingizmi?

– U bilan kelgan? – qayta so'radim men.

– Menga shunday ko'rindi, – javob berdi qorovul. – U uyingiz qayerdaligini so'rash uchun to'xtaganida anavi odam ham to'xtadi, keyin u bu yoqqa qarab kelganida uni ham ergashdi.

– Ko'rinishi qanaqaydi?

Qorovul uni yaxshilab ko'ra olmabdi, ko'rinishidan oddiy odamga o'xshatibdi; kiyimi changga o'xshabdi, ustida qora plash bor ekan. Qorovul bularning bariga ahamiyat

bermayotgani tabiiy edi, negaki bu narsalarga jiddiy yondashish uchun menda bor sabablar unda yo'q edi.

– Sizni qanday chaqirishni ham bilmayman, – dedim shivirlab, ertalab mehmonim dasturxon atrofidan joy olganidan keyin. – Hammaga amakim, deyapman.

– To'g'ri, o'g'lim! Amaki, deb chaqiraver.

– Kelayotib, o'zingizga biron-bir ismi-sharif o'ylab topgandirsiz?

– Ha, o'g'lim. O'zimga Provis, degan familiyani tanladim.

– Uni saqlab qolmoqchimisiz?

– Albatta-da, boshqalaridan uning nimasi yomon, balki, senga boshqacharog'i yoqar?

– Haqiqiy familiyangiz nima o'zi? – shivirlab so'radim men.

– Megvich, – deb javob berdi u ham shivirlab, – ismim Abel.

– Hayotda kim bo'lishni orzu qilgandingiz?

– Mahbus bo'lishni, o'g'lim.

U buni qandaydir kasbni e'lon qilgandek aytdi.

– Kecha oqshom Templga kirayotganingizda... – gap boshladim men voqealarning kechagina bo'lib o'tganiga hayron bo'lib, chunki oradan ko'p vaqt o'tgandek edi.

– Xo'sh, nima ekan, o'g'lim?

– Kecha darvozadan kirib, qorovuldan meni so'raganingizda yoningizda birorta odam bormidi?

– Yonimda? Yo'q, hech kim yo'q edi, o'g'lim.

– Sizga yaqinroq joyda-chi?

– To'g'risini aytsam, sezmadim, – dedi u o'y surib, – negaki bu yerda hamma narsa men uchun yangi. Lekin kimdir bordek va ortimdan kirib kelgandek tuyulgandi.

– Londonda sizni tanishadimi?

– Tanishmaydi, deb umid qilaman, – javob qildi u va

yana meni dahshatga solib, barmog‘i bilan bo‘ynini ko‘rsatdi.

– Londonda ilgari bo‘lganmisiz?

– Kamdan kam. Ko‘proq poytaxtdan narida yurganman, o‘g‘lim.

– Sizni... Londonda sud qilishganmi?

– Nechanchi martasida? – so‘radi u menga hushyorlik bilan qarab.

– Oxirgisida. – U bosh silkib tasdiqladi. – O‘shanda Jeggars bilan tanishgandim. U meni himoya qilgandi.

Endigina nimaga mahkamaga tortilgansiz, deb so‘ramoqchi bo‘lganimda u stolda turgan pichoqni qo‘liga olib, havoda aylantirdi va:

– Nima ayb ish qilgan bo‘lsam, ishlab, tovonini to‘lab bo‘ldim! – dedi va nonushta qila boshladi.

U ovqatni ochofatlik bilan yer, harakatlari qo‘pol, yoqimsiz edi. Botqoqlikka unga ovqat olib borib berganimdan beri tishlari kamaygandi, qo‘y go‘shti parchasini yamayotganda jag‘ tishlari bilan uni yaxshiroq tishlash uchun boshini bir tomonga egganida, ochiqqan qari ko‘ppakka juda ham o‘xshab ketardi.

Bundan har qanday odamning ishtahasi bo‘lgan bo‘lardi, men bo‘lsam shundoq ham nonushtaga qo‘l urmagandim va qovog‘imni solib, stoldan ko‘z uzmay, nafraitimni yashira olmay bo‘g‘ilmoqdaydim.

– Ha, o‘g‘lim, gunohkorman, yaxshi ovqatlanishni xush ko‘raman, – deya o‘zini oqlash uchun izoh berishga harakat qildi u nihoyat likopdan bosh ko‘tararkan, – bu mening doimiy kamchiligim. Agar shu aybim bo‘lmaganida, balki, boshimga kamroq kulfat orttirarmidim. Tamakisiz ham tura olmayman. Meni dunyoning narigi chekkasida qo‘y boqishga yuborganlarida, tamaki bo‘lmaganida, yuragim siqilganidan o‘zim ham qo‘yga aylanib qolgan bo‘lardim.

Shu soʻzlarni aytib, u stoldan turdi, qalin kurtkasining choʻntagidan kichkina qora trubka va bir chimdim „habash bargi“ deb ataladigan oʻtkir, qora tamaki oldi. Trubkasini toʻldirgach, tamakining qolganini qutiga solgandek yana choʻntagiga tashladi, keyin qisqich bilan kamindan choʻgʻ olib, trubkasini yoqdi, olovga orqa oʻgirib, yana oʻzining yoqtirgan harakati bilan ikkala qoʻlini menga uzatdi.

– Mana, – dedi u qoʻllarimdan ushlab va trubkasini burqsitib, – mana men yetishtirgan jentlmen! Haqiqiy jentlmen, oliy nav. Senga qarash qanchalar yoqimli menga, Pip! Shu yerda turib, senga qarashdan charchamagan boʻlardim, oʻgʻlim! Mening jentlmenim koʻlmak suvlar oralab yurmaydi; jentlmenimning etiklariga loy yopishmasin. Otlar sotib olishing kerak, Pip! Minadiganlari, aravaga qoʻshiladiganlari, xizmatkorlar uchun alohida. Bu qanaqasi, koloniyachilar ot minisharmish-da (tagʻin zotdorlarini, jin ursin ularni), mening Londondagi jentlmenim piyoda yurarkanmi? Yoʻq, yoʻq, biz ularga tushlarida ham koʻrmaganlarini koʻrsatamiz, toʻgʻrimi, Pip?

U choʻntagidan katta, yaxshilab toʻlatilgan hamyon oldi va uni stol ustiga tashladi.

– Bu yerda hamma xarajatlarga yetadigan mablagʻ bor, bolaginam. Bular seniki. Mening hamma narsam seniki. Bor mulkim meniki emas, seniki. Qoʻrqma, bu hali hammasi emas. Yana bor! Men Vatanga mening jentlmenim jentlmenlarcha pul sarflashini koʻrish uchun qaytib kelganman. Menga shu kerak, xolos. Menga unga qarab quvonish kerak xolos. Hammangizni jin ursin, yasama sochli hakamlar, burnimga chang purkagan koloniyachilar, mening jentlmenim haqiqiy jentlmen boʻladi, sizlar unga teng kelolmaysiz, – dedi u xonaga nazar solib va barmoqlarini qattiq shiqillatib.

– Jim boʻlsangiz-chi! – xitob qildim men qoʻrquv va

nafratdan o'zimni tutolmay. – Siz bilan gaplashib olishim kerak. Nima qilish kerakligini o'ylab olishim kerak. Sizni xavfdan himoya qilish uchun nima qilishim kerakligini bilib olishim kerak, bu yerda qancha bo'lasiz, rejalaringsiz qanday?

– To'xta, Pip, – dedi u qo'lini yelkamga qo'yib va negadir xotirjam tortib. – Biroz to'xta. Hozirgina men oshirib yubordim. Yarashmaydigan, noo'rin gaplarni aytdim. Sen biroz to'xta. Eshityapsanmi, Pip, meni kechir. Boshqa qaytarilmaydi.

– Avvalo, – yana gap boshladim men yig'lab yuboray deb, – sizni tanib qolmasliklari va yana qamab qo'ymasliklari uchun qanday ehtiyot choralari ko'rilishi mumkin?

– Yo'q, o'g'lim, – dedi u hamon itoatkorlik bilan. – Avvalo bu emas. Avvalo yarashmagan qiliqlar xususida. Men bekorga shuncha yil jentlmen o'stirmadim, u bilan qanday muomala qilish kerakligini bilaman. Eshityapsanmi, Pip, men yarashmagan gaplarni aytib yubordim, yarashmagan. Meni kechir, o'g'lim.

Uning gaplari ham achchiq, ham kulgili edi. Zaharxandalik bilan unga dedim:

– Kechirdim, kechirdim. Xudo haqi, bir narsani qaytaraverishni to'xtating!

– Yo'q, Pip, biroz shoshilma, – dedi u o'jarlik bilan, – shundan shu yoqqa o'zimni uyaltiradigan qiliqlarni ko'rsatish uchun kelmaganman. Endi, o'g'lim, davom et. Nima deyotganding?..

– Sizni o'zingiz yo'l qo'ygan xatardan qanday himoya qilsak ekan?

– Xatar unchalar katta emas. Agar meni sotmasalar, hech qanday xatarning o'zi yo'q, desak ham bo'laveradi. Meni kim sotishi mumkin? Agar Jeggars yoki Uemmik sotmasa.

– Ko‘chada sizni tasodifan tanib qolishsa-chi?

– Tanib qoladigan odamning o‘zi yo‘q, menimcha, – dedi u. – Gazetalarga, mana A.M. Botani-Beydan qaytib keldi, deb e‘lon bermoqchi emasman; ko‘p yillar o‘tib ketdi, Xudoga shukr, hech kim bundan manfaatdor ham bo‘lmaydi. Lekin senga bir narsani aytaman, Pip: agar xavf yuz marta kattaroq bo‘lganida ham, seni ko‘rgani baribir kelgan bo‘lardim.

– Bu yerda qancha bo‘lmoqchisiz?

– Qancha bo‘lmoqchiman? – qaytardi u menga hayron bo‘lib qarab va hatto trubkasini og‘zidan chiqarib. – U yoqqa qaytib bormayman. Bu yerdan endi ketmayman.

– Qayerda yashaysiz? – so‘radim men. – Sizni nima qilishim kerak? Qayerda xavfdan uzoqda bo‘lasiz?

– Bezovta bo‘lma, o‘g‘lim, – dedi u. – Pulga sun‘iy soch ham, upa ham, istagan libosingni, masalan, kalta shim va paypoqlarni ham, xullas, xohlagan narsangni olsa bo‘ladi. Shu yo‘l bilan mengacha ko‘p odamlar berkinib yurishgan, men ham boshqalardan kam emasman. Qayerda yashashga kelsak, o‘zing menga maslahat ber.

– Bu haqda hozir osongina gapiryapsiz, – dedim men, – lekin kecha, o‘lim xavfi bor, deb qasam ichayotganingizda hazillashmagan edingiz, shekilli?

– Bugun ham, ushlab olsalar o‘ldiradilar, deb qasam ichishim mumkin, – dedi u yana trubkasini og‘ziga solarikan. U yana ikkala qo‘limdan ushladi va trubkasini burqsitib, mulkiga qaragandek, menga boshdan oyoq razm so‘lib chiqdi.

Bu orada men, ikki-uch kundan keyin, Gerbert qaytib kelgach, Provisga yaqin oradan tinch bir xona topish lozim, degan xayolga kelib bo‘lgandim. Gerbertni sirdan voqif qilishimiz kerakligi men uchun kunday ravshan edi va bundan ancha yengil tortajagimni ham bilardim. Lekin

mister Provis (uni shunday deb chaqirishga qaror qildim) buni darrov tushunishni xohlamadi. U Gerbertni ko'rib, u to'g'rida yaxshi xulosaga kelganidan keyingina bunga rozi bo'lishini ma'lum qildi.

– Hatto o'shandayam, o'g'lim, – dedi u cho'ntagidan g'ilofli, yog' bosib ketgan Injilni olarkan, – biz unga qasam ichiramiz.

Uyimning yonginasida – Esseks-stritda, derazalari Templga qaragan ancha obro'li pansion bor edi; eng avval o'sha yoqqa yo'l oldim va omadim chopib, Provis amakim uchun uchinchi qavatdan xona oldim. Keyin bir necha do'konlarni aylanib chiqib, unga fermer qiyofasini berish uchun zarur narsalarga buyurtma berdim. Bu ishlardan qutulgach, faqat shaxsiy ishlarim bo'yicha Litl-Britenga yo'l oldim. Mister Jeggars stol oldida o'tirgan ekan, lekin meni ko'rishi bilan turib, kamin oldiga keldi.

– Esingizda bo'lsin, Pip, – dedi u, – ehtiyot bo'ling.

– Albatta, ser, – dedim men, negaki kelayotib hamma aytadigan gaplarimni o'ylab, pishirib kelgandim.

– O'zingizni ham, boshqa hech kimni ham qiyin ahvolga solib qo'ymang, – davom etdi mister Jeggars. – Tushundingizmi – hech kimni. Menga hech narsa aytib bermang. Hech narsani bilishni xohlamayman: qiziquvchan emasman.

Turgan gapki, uning hamma narsadan xabardor ekanini tushunib yetgandim.

– Menga aytilgan gaplarning to'g'ri ekaniga ishonch hosil qilmoqchi edim, xolos, mister Jeggars. Bu gaplarning haqiqat emasligiga umid qilmayman, lekin baribir tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim.

Mister Jeggars bosh irg'adi.

– Lekin siz: „Aytishdi“ dedingizmi yoki „Xabar qilishdi“ dedingizmi? – so'radi u boshini bir tomonga qiyshaytirib

va menga emas, yerga qarab tinglayotgandek. – „Aytishdi“ – shaxsiy muloqotni bildiradi, menimcha. Yangi Janubiy Uelsdagi odam bilan muloqot qilishingiz mumkin emas axir.

– „Xabar qilishdi“ bo‘la qolsin, mister Jeggars.

– Juda yaxshi.

– Abel Megvich, degan odam noma‘lum saxovatpe-sham o‘zi ekanini xabar qildi.

– To‘g‘ri, – dedi mister Jeggars. – Anavi... Yangi Janubiy Uelsdagi odam.

– Faqat uning o‘zimi? – so‘radim men.

– Faqat uning o‘zi, – javob berdi mister Jeggars.

– Sizni o‘zim chiqargan noto‘g‘ri xulosalar va qilgan xatolarim uchun qaysidir ma‘noda mas‘ul qilish darajasida befahm emasman; lekin har doim gap miss Xevishem ustida boryapti, deb o‘ylab kelgandim.

– O‘zingiz to‘g‘ri qayd qilganingizdek, Pip, – dedi mister Jeggars menga xotirjam qarab va ko‘rsatkich bar-mog‘ini tishlay turib, – buning uchun men aslo javobgar bo‘la olmayman.

– Menga esa bu shu qadar haqiqat bo‘lib tuyulgandiki, ser, – davom etdim men nadomat bilan.

– Lekin hech bir dalil-isbotlar bo‘lmagan, Pip, – dedi mister Jeggars boshini tebratib va kamzulining etaklarini yig‘ishtirib. – Tuyulgan narsaga hech qachon ishonmang; faqat dalillarga ishoning. Hayotda bundan yaxshiroq qoida yo‘q.

– Boshqa aytadigan gapim yo‘q, – xo‘rsindim men biroz o‘ylab turib. – Olgan xabarimni tekshirib ko‘rdim, hammasi tamom bo‘ldi.

– Mana endi, – dedi mister Jeggars, – hamonki Yangi Janubiy Uelsdagi... Megvich, nihoyat o‘zini bildirgan ekan, o‘zingiz ham ishonch hosil qilishingiz mumkinki, siz

bilan suhbatlarimizda boshidan oxirigacha men qat'iy dalillarga suyanib kelganman. Biror marta ham dalillarni bayon qilishda ulardan chetga chiqmaganman. Sizga bular ravshanmi?

– Albatta, ser.

– Men... Yangi Janubiy Uelsdagi Megvichni u menga... Yangi Janubiy Uelsdan xat yozganida, faqat dalillar bilan ish ko'raman, mendan boshqa hech narsani kutmang, deb ogohlantirganman. U o'z xatida, qachonlardir sizni bu yerda, Angliyada uchratish to'g'risida o'ylayotganiga ishora qilgandi. Uni bu to'g'rida boshqa eshitmay; afv etishlariga hech bir umid yo'q; bir umrga surgun qilingansiz; agar qaytib kelsangiz, oliy jazo tayinlanishi muqarrar bo'lgan jinoyatni amalga oshirgan bo'lasiz, deb ogohlantirganman. Bu to'g'rida Megvichni ogohlantirganman, – dedi mister Jeggers ko'zlarimga tik qarab, – bu haqda unga yozib yuborganman. Ogohlantirishimni e'tiborga olganiga shubha qilmayman.

– Shubhasiz, ser, – dedim men.

– Uemmikning menga aytishicha, – davom etdi mister Jeggers hamon ko'zimdan ko'zini uzmay, – Portsmutdan, allaqanday koloniyachidan xat olganmish, ismi Narvismi yoki...

– Yoki Provis, – dedim men.

– Yoki Provis. Rahmat sizga, Pip. Ehtimol, chindan ham Provisdir? Ehtimol, siz uning familiyasi Provis ekani ni bilarsiz?

– Ha.

– Demak, siz uning familiyasi Provis ekanini bilasiz. Shunday qilib, Provis familiyali koloniyachi Megvichning nomidan manzilingizni so'rab Portsmutdan xat yuboribdi. Menga ma'lum bo'lishicha, javoban Uemmik unga sizning manzilingizni xabar qilgan. Yangi Janubiy Uelsdagi

Megvich to'g'risidagi ma'lumotlarni, ehtimol, siz Provisdan olgandirsiz.

– Ha, Provisdan, – javob berdim men.

– Xayr, Pip, – dedi mister Jeggers, menga qo'lini uzatar ekan. – Sizni ko'rib xursand bo'ldim. Yangi Janubiy Uelsga, Megvichga xat yozsangiz yoki Provis orqali xabar yuborsangiz, ko'p yillik ishimiz bo'yicha batafsil hisobotni, shuningdek, tasdiqlovchi hujjatlarni, qolgan pul bilan, biroz miqdorda pul qolgan, sizga topshirishimizni aytib qo'ying. Xayr, Pip!

Nihoyat, oqshomlarning birida ovqatlanib bo'lib, charchab-horib uxlab qolganimda – kechasi bosinqirab, dam olishdan mahrum edim – uzoq kutilgan qadam tovushlaridan uyg'onib ketdim. Men surgan stulning tovushidan uxlab yotgan Provis ham tez uyg'ondi va o'sha zahoti uning qo'lida xanjar yarqiradi.

– Sekin! Bu Gerbert! – dedim unga va o'sha onda Fransiyadagi barcha yo'llarning xushbo'y hidini anqitib, xonaga Gerbert kirib keldi.

– Gendel, azizim, salom, salom va yana salom! Uyda bir yil bo'lmagandayman. Shoshma-chi, balki, chindan ham bir yil bo'lgandir, nega bunchalar ozib, rangpar bo'lib qolding! Gendel, azizim... Oh, afv etishingizni so'rayman.

Otilib chiqayotgan so'zlar oqimi va qizg'in qo'l siqishlar to'xtadi, u Provisni ko'rib qolgandi. Unga diqqat bilan qarashni to'xtatmasdan, Provis shoshmay pichog'ini oldi, ayni paytda cho'ntagidan boshqa narsa chiqardi.

– Gerbert, do'stim – dedim men eshikni mahkam qulflar ekanman. Gerbert hayratdan qotib qolgandi. – Juda g'alati voqea sodir bo'ldi. Bu odam... mening mehmonim...

– Hammasi yaxshi, o'g'lim! – dedi Provis qora kitobchasi bilan oldinga o'tarkan. Keyin u Gerbertga murojaat qildi: – O'ng qo'lingizga oling! Agar kimdir sizdan

bir og'iz so'z eshitsa, Xudoning qahriga uchrang. Injilni o'ping!

– Aytganini qil, – shivirladim Gerbertga.

Va Gerbert, menga mehr va hayrat bilan qarab turgani holda, bo'ysundi. Shundan keyin Provis, uning qo'lini siqib, dedi:

– O'zingiz tushunib turgandek, siz endi qasam bilan bog'langansiz. Agar Pip sizni jentlmen qilmasa, borib turgan yolg'onchi bo'la qolay.

XLI BOB

Uchovlon kamin oldiga o'tirgach, men o'z sirimni bayon qilib berganimdan keyin Gerbertning qanchalar xavotirlangani va hayratlanganini tasvirlab o'tirmayman. Gerbertning chehrasida men o'z hissiyotlarimni, birinchi o'rinda – men uchun shuncha zahmat chekkan insonga bo'lgan nafratimning aks etganini ko'rdim.

Bu odamning yutuqlarimdan qanchalar xursandligining o'ziyoq oramizda o'tib bo'lmas to'siq paydo qilgandi. Bir martagina „noto'g'ri xatti-harakat qilgani“ istisno qilindigan bo'lsa (hikoyamni tugatishim bilan Gerbertga ham bu to'g'rida gapiraverib bezor qilib yubordi), u mening baxtiyor hayotimga hech narsa rahna solmayapti, degan fikrdaydi. Meni jentlmen qilib o'stirgani va pullarini men jentlmenlarcha sarflayotganimni ko'rish uchun kelganini aytib, maqtanayotganda, u o'zi uchun ham, men uchun ham gapirayotgandek edi. Meni bularning hammasidan xursand, o'zi kabi g'urur va quvonchga to'lib-toshib yuribdi, degan ishonchda edi.

Tun yarmidan o'tganida uni Esseks-Stritdagi yangi xonadonining eshigigacha eson-omon kuzatib qo'ydim va orqasidan eshikni yopib, u kelganidan beri birinchi marta biroz yengillik his qildim.

Gerbert meni quchoq ochib kutib oldi, men esa do'stga ega bo'lishning qanchalar katta baxt ekanini har doimgidan ko'proq his qildim. U menga qisqagina hamdardlik bildirib, ko'nglimni ko'targanidan keyin, o'tirib, nima qilishimiz kerakligini muhokama qila boshladik.

Provis butun oqshom mobaynida o'tirgan kreslo o'z joyida, olov oldida turganidan (saxovatpeshamda xonada bir joyning o'zida o'tirish, trubkasi va „habash bargi“, pichog'i va qartalari bilan bir xil ishlarni, qora taxtaga yozib qo'yilgan vazifani bajarayotgandek tutish kabi qamoqxona odatlari bor edi) Gerbert beixtiyor unga o'tirib oldi va o'sha zahoti sapchib turib ketib, uni nari surdi va boshqa o'rindiqli egalladi. Shundan keyin u saxovatpeshamni juda yomon ko'rib qoldi deyishga, o'zimning ham munosabatim shunday deb aytishga ehtiyoj qolmagandi. Ikkalamiz ham buni tan olib bo'lgandik.

– Xo'sh, – dedim men Gerbert boshqa kresloga joylashib bo'lgach. – Endi nima qilamiz?

– Mening bechora, aziz Gendelim, – javob qildi u boshining ikki chetini ushlab, – shunchalar hayratdamanki, o'ylashga ham qodir emasman.

– Men ham xabar topishim bilan shunday ahvolga tushgandim, Gerbert, lekin nimadir qilish kerak. U yangi rejalar tuzib yuribdi – otlar, foytunlar, qimmatbaho liboslar. Uni qanday qilib bo'lsa ham to'xtatish kerak.

– Demak, undan pul ololmayman, degan fikrdasan...

– Albatta-da! – gapini bo'ldim Gerbertning. – Axir uning kim ekanini bir o'ylab ko'r! Qiyofasining o'zidan it hurkadi!

Ikkalamizning ham badanimizda titroq turdi.

– Lekin, Gerbert, bu qanchalar dahshatli bo'lmasin, u, ko'rinishidan, menga bog'langan, qattiq bog'langan. Shunchalar ham baxtsizlik bo'ladimi!

– Bechora, aziz Gendelim, – takrorladi Gerbert.

– Keyin, agar hozir u bilan aloqani uzsam va bir pennisini ham olmasam, o‘tmish uchun undan qanchalar qarzдор ekanimni bir o‘ylab ko‘r! Umuman, hamma yog‘im qarz, endi hech narsadan umidim yo‘q, kasb egallamagan va hayotda hech narsaga yaramaydigan bir paytimda, ularni qanday to‘layman?

– „Hech narsaga yaramayman“, emish. Iltimos, unday dema, – e‘tiroz bildirdi Gerbert.

– Nimaga yarayman? Askar bo‘lishim mumkin, boshqa hech narsaga yaramayman. Agar do‘stona maslahating va ko‘magingni kutayotganimni bilmaganimda, ehtimol, shunday qilardim ham.

Shu yerga kelganda, ko‘zyoshlarimni tiya olmadim, Gerbert, turgan gapki, o‘zini ko‘rmaganga oldi, faqat qo‘limni qattiq siqib qo‘ydi.

– Nima bo‘lganda ham, azizim Gendel, – dedi u biroz sukut saqlab, – askarlik xizmati to‘g‘ri kelmaydi. Modomiki uning homiyligidan va pullaridan voz kechmoqchi ekansan, vaqti kelib undan olgan pullaringni ham qaytarib berishni o‘ylayotgandirsan. Askarlik xizmatida qarzni uzib bo‘larkanmi! Qolaversa, bu g‘irt tentaklik. Kamtarona bo‘lsa ham, yaxshisi, Klarrikerning idorasiga ishga kirsang ma‘qulroq bo‘ladi. Bilasanmi, unga sherik bo‘lib qolsam kerak.

Sho‘rpushona! Kimning pullari unga bunday imkoniyatni berganini bilsaydi!

– Lekin bu yerda boshqa masala ham bor, – davom etdi Gerbert. – Bu savodsiz, qaysar odam, yillar davomida yagona orzu bilan yashagan. Uning ustiga (balki, adashayotgandirman), u hech narsadan qaytmaydigan, aytganini qiladigan odamga o‘xshayapti.

– Buni yaxshi bilaman, – dedim ma‘qullab. – Isboti uchun ko‘rganlarimni aytib berishim mumkin.

Keyin unga avval esga olinmagan voqeani – ikkinchi mahbus bilan olishuvini hikoya qilib berdim.

– Ko‘rdingmi, – dedi Gerbert. – O‘zing o‘ylab ko‘r: u hayotini xavf ostiga qo‘yib, ezgu orzusini amalga oshirish uchun bu yerga kelgan. Mana endi, shuncha mashaqqatlardan keyin, shuncha yillik kutishdan keyin, uni hayotining mazmunidan judo qilmoqchisan, orzusini buzib tashlayapsan, nazarida, butun to‘plagan boyligini yerga ur-yapsan. Bu narsa uni qanday xatti-harakatlar qilishga undashi mumkinligini o‘ylab ko‘rdingmi?

– Bu to‘g‘rida u kirib kelgan o‘sha mash‘um oqshomdan beri kecha-yu kunduz o‘y layman, Gerbert. Ishqilib, u o‘zini adliya qo‘liga topshirmasin-da, degan o‘y menga tinchlik bermaydi.

– Shubha qilmasang ham bo‘ladi, – dedi Gerbert, – shunday qiladi ham.

Aytish kerakki, bunday xavotir menda avvalboshdan bor edi, agar u ro‘yobga chiqqudek bo‘lsa, o‘zimni qotil o‘rnida ko‘ra boshlagan bo‘lardim. Mana endi Gerbertning so‘zlaridan shunchalar dahshatga tushdimki, joyimda o‘tirolmay, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladim. Gerbertga, agar Provis o‘zini topshirmay, tasodifan birov tanib qolgan taqdirda ham, uning qamoqqa olinishiga o‘zimni bilvosita aybdor hisoblash menga juda og‘ir bo‘lardi, dedim. Uning ozodlikda, yonimda yurishidan ancha mushkul ahvolda qolgandim va shu kunlarni ko‘rganimdan ko‘ra bir umrga temirchilik ustaxonasida ter to‘kishni afzal bil-sam-da, gaplarim ayni haqiqat edi.

Ammo masalani – endi nima qilish zarurligini hal qilish kerak edi.

– Eng muhimi, – dedi Gerbert, – uni tezroq Angliyadan olib ketish kerak. U bilan ketishingga to‘g‘ri keladi, aks holda u ketishga hech qachon rozi bo‘lmaydi.

– Uni qayerga olib bormay, qaytib kelishiga monelik qila olarmikanman?

– Eh, Gendel, Nyugeytdan ikki qadam narida unga bor gapni aytib berish va umidsizlikka tushirish mamlakatdan tashqarida shu ishni qilishdan qanchalar xavfli ekanini nahoiki tushunmayotgan bo‘lsang? Yo‘q, har qanday holatda ham, uni jo‘nab ketishga ko‘ndirish kerak. Tuzukroq bahona, masalan, anavi ikkinchi mahbusdan yoki o‘tmishidagi biror holatdan foydalanilsa bo‘lmaydimi?

– Hamma balo shunda-da, – dedim men Gerbertdan ikki qadam narida to‘xtab va mushkul ahvolimdan xabar topgin demoqchidek, qo‘llarimni ikki tomonga yoyib. – Uning hayoti to‘g‘risida hech narsa bilmayman. Bu yerda oqshomlari u bilan aqldan ozishimga sal qoldi, unga qarab o‘tirib, o‘ylayman: mana, hayotimni ostin-ustun qilib yuborgan inson o‘tiribdi, bolaligimda ikki kun meni dahshatga solib qo‘yganini istisno qilsak, u haqida hech narsa bilmayman.

Gerbert o‘rnidan turdi, tirsagimdan ushladi va ikkovlon xonada u yoqdan bu yoqqa yurib, gilamning gullarini o‘rgana boshladik.

– Gendel, – dedi nihoyat Gerbert va yurishdan to‘xtadi, – undan boshqa hech qachon yordam olmaslikka uzilkesil qaror qildingmi?

– Ha, albatta. O‘rnimda bo‘lsang o‘ylab o‘tirgan bo‘larmiding?

– U bilan har qanday munosabatni uzib tashlashga uzilkesil qaror qildingmi?

– Bu savolni bermasang ham bo‘lardi, Gerbert.

– Va seni deb xatarga qo‘ygan hayoti uchun xavotir olmasdan qololmaysan, binobarin, o‘zini halok qilmasligi uchun hamma chorani ko‘rmoqchisan, shundaymi? Demak, uni Angliyadan olib ketguningcha bir o‘zing bu ahvoldan chiqishni xayolingga ham keltirma. Mamlakatdan

ketganingizdan keyin tezroq masalani hal qilgin, u yog'ini nima qilishni birgalikda o'ylab ko'ramiz.

Noaniq bo'lsa ham, ushbu qarorni qo'l siqish bilan tasdiqlash va xonada u yoqdan bu yoqqa yurishni davom ettirish yoqimli edi!

– Uning tarixiga kelsak, – dedim men, – birgina imkoniyat bor: uning o'zidan so'rash kerak bo'ladi.

– To'g'ri, – dedi Gerbert, – ertalab, nonushtaga o'tirishimiz bilan so'rayver. (Gerbert bilan xayrlashayotib, mehmonimiz, birga nonushta qilish uchun barvaqt kelishini aytgandi).

Bir qarorga kelib bo'lib, uxlagani yotdik. Kechasi bilan g'alati tushlar ko'rib, uyqudan tiniqib turmadim; buning ustiga ertalab yana bir qo'rqinchli fikr xayolimga kelib qoldi: surgundan ruxsatsiz qaytib kelganini birov bilib qolsa-chi? Uxlamayotgan kezlirimda ushbu fikr meni bir lahza ham tark etmadi.

Mehmonimiz belgilangan vaqtda paydo bo'ldi, pichog'ini olib, stol oldiga o'tirdi. „Uning jentlmeni o'zini asl jentlmendek ko'rsatishi uchun“ rejalari bisyor edi va u kelgan kundan beri ixtiyorimda bo'lgan hamyonni tezroq sarflashni boshlashga meni undamoqdaydi. Xonamni va o'zi yashayotgan uyni vaqtinchalik makon hisoblar va bugunoq Gayd-parkka yaqinroq joydan „serhashamroq koshona“ tanlashni maslahat bermoqda, u yerda o'ziga ham „bir burchak“ topilishiga umid qilmoqda edi. Nonushtani tugatib, pichog'ini ishtoniga arta boshlaganida to'g'ri maqsadga ko'chdim:

– Kecha chiqib ketganingizdan keyin askarlar sizni topib olishganida botqoqlikdagi olishuvingiz to'g'risida do'stinga aytib berdim. Esingizdami?

– Bunaqa narsani esdan chiqarib bo'lmaydi!

– O'sha odam... keyin, siz to'g'ringizda biror nima bil-

moqchiydik. Judayam kam bilishim, ayniqsa, siz to'g'ringizda, juda g'alati axir. Hozirning o'zida, orqaga surmasdan, o'zingiz to'g'ringizda gapirib bera olasizmi?

– Nachora, – dedi u biroz o'ylanib turgach. – Siz, Pipning do'sti, qasam ichganingizni unutmagansiz, shundaymi?

– Juda yaxshi esimda.

– Nimaniki aytib bermay, – dedi u qat'iyat bilan, – qasam hammasiga o'tadi.

– Buni juda yaxshi tushunaman.

– Esingizdan chiqarmang! Nimaiki ayb ish qilgan bo'lsam, jazoyimni to'la o'tab bo'lganman, – dedi u hamon qat'iyat bilan.

– Shunday bo'la qolsin.

U cho'ntagidan qora trubkasini oldi va unga „habash bargi“dan solmoqchi bo'ldi, lekin barmoqlarida siqib turgan tamakiga nazar solib, chekish hikoya qilishdan chalg'itadi, degan xayolga bordi chog'i, tamakini cho'ntagiga qaytarib to'kdi, trubkasini tugmacha teshigiga tiqdi, qo'llari bilan tizzasiga tayandi va qovoq solib, jim bo'lib qoldi, keyin biz tomonga o'girildi.

XLII BOB

– Aziz o'g'lim va siz, Pipning do'sti, sizlarga kitoblarda yozilgandek yoki qo'shiqlarda kuylanadigandek, butun hayotimni aytib berib o'tirmayman, meni darrov tushunib olishingiz uchun qisqa va aniq bayon qilib beraman. Qamoqdan ozodlikka, ozodlikdan qamoqqa, keyin yana ozodlikka va yana qamoqqa – bor gap shu. Pip menga yaxshilik qilgandan keyin, dunyoning narigi burchagiga surgun qilgunlariga qadar hayotim shunday o'tdi.

Meni nimalar qilib ko'rishmadi deysiz – faqat osishga urinib ko'rmadilar. Kumush choynakdek, ustimdan qulf-

lab yurdilar. Joydan joyga ko'chirdilar, dam u shahardan, dam bu shahardan haydadilar, kishanladilar, qamchiladilar, quyondek ta'qib qildilar. Qayerda tug'ilganimni sizdan ortiq bilmayman. Es-es bilaman, ochlikdan o'lib qolmaslik uchun Esseksda sholg'om o'g'irlaganman. Kimdir qochib ketayotib meni tashlab ketgan, qandaydir chegachi ketayotib, temir o'choqni ham olib ketgandi, juda sovuq qotganman o'shanda.

Familiyam Megvich, ismim Abelligini bilardim. Qayerdan deysizmi? Mana bu qushchaning zag'izg'on, bunisi chumchuq, bunisi mayna ekanini qayerdan bilganman? Ism-sharifimni uydirma, bo'lmagan gap, deb qabul qilishim mumkin edi, lekin qushlarning nomlari to'g'ri chiqdiku, demak meniki ham to'g'ridir, deb o'ylaganman.

Va kimki o'sha juldur kiyimli, och bolakay – Abel Megvichni uchratmasin, o'sha zahoti qo'rqib ketar, yo haydab solardi, yo ushlab qamoqqa olib borardi. Meni shunchalar ko'p qamashardiki, kichkinaligimdan deyarli ozodlikda yurmaganman.

Odam ko'rsa achinadigan, turqimga chetdan qaranimda o'zim ham yig'lab yuborgan bo'lardim (to'g'ri, ko'zguga qaramaganman, ko'zguli uylarda umuman bo'lmaganman), kichkintoy juldurvaqiligimdanoq meni tuzalmasga chiqarib qo'yishgandi. Qamoqxonaga kimlardir tashrif buyurib qolsa, ularga eng avval meni ko'rsatishardi: „Manavini tuzalmaydi, deyishyapti. Qamoqdan qamoqqa ko'chib yurgani-yurgan“. Ular menga hayron bo'lib qarashardi, men ularga, ba'zilar boshimni o'lchab ko'rishardi – qornimni o'lchab ko'rsalar yaxshiroq bo'larmidi – boshqalari men o'qiy olmaydigan nasihat kitobchalarini berishardi va men tushuna olmaydigan gaplarni aytishardi. Keyin hammalari shayton haqida miyamga singdirishga urinishardi. Qanaqa shayton? Jig'ildonimni to'ldirishim

kerakmidi yo'qmi, axir?.. Yana noo'rin so'zlarni tilimga oldim, jentlmenlar bilan qanday gaplashish kerakligini bilaman, axir. Aziz o'g'lim va siz, Pipning do'sti, qo'rqmang, boshqa qaytarilmaydi.

Daydilik qildim, tilanchi bo'ldim, o'g'irlik qildim, topilganida – ishladim, lekin ish har doim ham bo'lavermasdi, kim menga o'xshagan notavonga ish berardi, hatto sizlar ham buni istamagan bo'lardingiz, ehtimol; oz-ozdan brakonyer ham, koranda ham, aravakash ham, o'roqchi ham, eski-tuski sotuvchi ham bo'lib ko'rdim, xullas, daromadi oz, g'alvasi ko'p ishlar bilan shug'ullandim va voyaga yetdim. Yo'l bo'yidagi qovoqxonada, kartoshkaning ichida yashirinib yurgan qochoq askar menga o'qishni o'rgatdi, yozishni bo'lsa daydi pahlavondan o'rgandim, u bozorlarda imzosini bir pensdan sotib yurardi. Endi meni avvalgidek qamoqxonaga tez-tez olib borishmasdi, lekin nazoratchilarga baribir ish orttirib turardim.

Taxminan yigirma yilcha avval Eksdagi poygada bir odam bilan tanishdim – agar u hozir shu yerda bo'lganida manavi kosov bilan bosh suyagini yong'oqdek chaqib tashlagan bo'lardim. Ismi Kompeson edi; zovurning ichida, ko'z o'ngingda o'sha odamni do'pposlagan edim, o'g'lim, – kecha chiqib ketganimdan keyin o'rtog'ingga hikoya qilib beribsan.

O'sha Kompeson o'zini jentlmendek tutar, umuman, haq edi, negaki, boy pansionda o'qir, savodi bor edi. U qoidasi bilan gapira olar, qiliqlari ham boyvachchalarnikidek edi. Buning ustiga yoqimtoy ham edi. Uni birinchi marta poyga arafasida, otchopar yonidagi mayxonada uchratganman, u yerga men avvallari ham borib turardim. U stol atrofida ulfatlari bilan o'tirgandi va mayxona xo'jayini (u meni tanir, o'zi yaxshi odam edi) meni chaqirib: „Manavi odam sizga to'g'ri keladi, deb o'ylayman“, deb qoldi.

Kompeson menga diqqat bilan qaradi, men unga tikildim. Zanjirli soat, uzuk, bo'yinbog'ida to'g'nag'ich, yaxshi kiyingan.

– Ko'rinishingizdan taqdir sizni ayamaganga o'xshaydi – dedi menga Kompeson.

– Ha, xo'jayin, taqdir menga hech qachon kulib boqmagan ham. (Sal avvalroq Kingston qamoqxonasidan chiqqandim – u yerga meni daydilikda ayblab qamashgandi. Meni boshqa narsada ham ayblab shu ishni qilishlari mumkin edi, lekin boshqa bahona topilmagandi).

– Taqdir o'zgarib turadi, – dedi Kompeson, – sizniki ham yaqin orada o'zgarib qolishi mumkin.

– Yaxshi bo'lardi. Umidim bor, – dedim.

– Qo'lingizdan nima ish keladi? – so'radi Kompeson.

– Agar pulini to'lasangiz, yeyish va ichish, – deb javob berdim.

Kompeson kulib yubordi, menga yana diqqat bilan qaradi va besh shilling berib, ertasiga o'sha yerga kelishni buyurdi.

Ertasiga o'sha yerga bordim va u meni yugurdak hamda sherik qilib oldi. Unga sherik nimaga kerak ekan deysizmi? U firibgarlik, soxta imzolar qo'yish, o'g'irlangan pullarni ishlatish va shunga o'xshash narsalar bilan shug'ullanardi. U o'zi sira tushmaydigan, pul ishlaydigan, boshqalarning sho'rini quritadigan qilib tuzoq qo'yardi – mana nima bilan shug'ullanardi. U temir egov kabi shafqat bilmas, qalbi ajaldek sovuq, lekin miyasi shaytonniki kabi ishlardi.

Kompeson bilan yana bir odam ishlar, uni Artur deb chaqirishardi. U kasalmand bo'lib, turqi murdanikidan ham qo'rqinchli edi. Bir necha yil davomida u Kompeson bilan bir badavlat ayolni ahmoq qilib yurdi va katta pul ishlab olishdi; lekin Kompeson yuzlab funtni poyga va qar-tada boy berardi – qo'yib berilsa u qirol xazinasini ham so-

vurib yuborgan bo'lardi. Artur vosvoslik dardiga chalinib, qashshoq holida olamdan o'tdi, o'z vaqtida Kompesonning xotini unga achinib yurardi (Kompeson xotinini aybsiz urardi), Kompesonning o'zi bo'lsa hech kimga rahmshafqat qilmasdi.

Kompeson o'ylab topgan va men bajargan hamma ishlarni sanab o'tirmayman, bunga bir hafta ham kamlik qiladi, lekin, aziz o'g'lim va Pipning do'sti, sizlarga shuni aytishim mumkinki, bu odam meni to'rlari bilan shunchalar o'rab oldiki, uning habashdan ham battar quliga aylandim. Har doim undan qarzdor edim, har doim uning hukmida edim, har doim ishlardim, har doim taqdirimdan qo'rqardim. U mendan yosh edi, lekin savodli va ming marta ayyorroq hamda shafqatsizroq edi. O'sha paytlarda ayolim bilan qiyin davrni boshimizdan o'tkazayotgandik... Yo'q, uni bekorga bu yoqqa aralashtirdim.

U ikkilanib, xotiralar kitobida kerakli yerini yo'qotib qo'ygandek, olov tomon yuzini burdi, tizzalariga yaxshilab tayandi, keyin qo'llarini ko'tarib-tushirdi va yana qo'yib yubordi.

– Bu to'g'rida gapirib o'tirish shart emas, – dedi u yana bizga o'girilib. – Kompeson bilan o'tkazgan yillarim eng mashaqqatli yillar bo'ldi. Shuning o'zidan hamma narsani tushunib olsa bo'ladi. U bilan ishlab yurganimda, bir o'zimni firibgarlik uchun mahkamaga tortganlarini aytuvdimmi?

– Yo'q, – dedim men.

– Shunaqa bo'lgan, – dedi u, – mahkamaga tortishgan va men jazoni o'tab bo'lganman. To'rt-besh yil birga ishlagan bo'lsak, bu vaqt ichida ikki yoki uch marta shubha bilan qamadilar, lekin har safar dalillar yetarli bo'lmadi. Nihoyat o'g'irlangan pullarni muomalaga kiritganimiz uchun ikkalamizni mahkamaga tortishdi, keyin boshqa

ishlarimiz ham ochilib ketdi. Kompeson o'shanda menga: „Bir-birimizni tanimaymiz, har kim o'zini himoya qiladi“, dedi, vassalom! Shunchalar qashshoq edimki, bor kiyimimni sotibgina Jeggerni yollay oldim, ustimdagi liboslarim qoldi, xolos.

Sud zaliga olib kirganlarida dastavval Kompesonning jentlmen qiyofasiga ko'zim tushdi – jingalak sochlar, qora kastum, cho'ntagida oq ro'molcha – uning oldida juldurvaqi edim, xolos. Majlis boshlanib, dalillar e'lon qilingach, aybning katta qismi menga, kichkina, arziyas qismi uning zimmasiga yuklanayotganini bilib qoldim. Guvohlarni so'roq qilishga o'tganlarida, ularning har biri asosiy jinoyatchi men ekanim, firibni men uyushtirganim, foydani men olganim xususida qasam ichishga tayyor edi. Kompesonning himoyachisi so'z olgach esa ularning hamma nayrangini tushunib yetdim. Nimalar deganini bilishni istaysizmi? „Muhtaram rais va jentlmenlar, qarshingizda ikkita odam turibdi, ko'rib turganingizdek, bir-birlariga sira ham o'xshamaydi. Biri – yoshroq, tarbiya ko'rgan, xushmuomala; ikkinchisi – kattaroq, tarbiya ko'rmagan, u bilan suhbat boshqacha bo'ladi; biri, yoshrog'i, aytish mumkinki, jinoiy ishlar qilgani aniqlanmagan, faqat shubha ostida bo'lgan; ikkinchisi, kattarog'i, ko'p marta javobgarlikka tortilgan va har safar aybi isbotlangan. Agar ulardan bittasi aybdor bo'lsa, uning kim ekani, agar ikkalasi aybdor bo'lsa, qaysi biri ko'proq aybdor ekani nahotki ravshan bo'lmasa?“ Boshqalar ham shu mazmunda chiqishlar qilishdi. O'tmishimizni ko'targanlarida, undan ham battar bo'ldi: Kompeson maktabda ham o'qigan, bolalikdagi do'stlari ham yuqori lavozimlarda ishlaydi, guvohlar uni u yoki bu klublarda, halol odamlar davralarida ko'rganlar, u to'g'rida yomon gap eshitmaganlar ham. Menga kelsak, avval ham mahkamaga tortilganman, Angliyaning u burchagidan bu

burchagiga qadar barcha qamoqxonalarda bo'lganman. So'nggi so'z berganlarida esa Kompeson gapga tushib ketdi, gapira turib ro'molchasi bilan yuz-ko'zlarini artib qo'yar, nutqiga she'r ham qo'shardi, menga navbat kelganida esa bor-yo'g'i: „Jentlmenlar, mening yonimda turgan odam – uchiga chiqqan muttaham“, deya oldim. Qaror chiqarayotganlarida, birinchi bor sudlanayotgani, menga qarshi boplab ko'rsatmalar bergani uchun, Kompesonga yumshoq jazo berishni so'radilar, mening to'g'rimda, birgina „Aybdor“ degan so'z bilan kifoyalandilar. Kompesonga: „Qarab tur, bu yerdan chiqqanimizdan keyin basharangni yoraman!“ deganimda Kompeson sudyadan o'zini himoya qilishlarini so'radi va uni mendan himoya qilish uchun yoniga ikkita qorovul qo'ydilar. Hukmni e'lon qilganlarida, Kompeson yetti yil, men o'n to'rt yil oldim, sudya unga achinib, hayotida hamma narsaga erishgan bo'lardi, dedi, men haqimda esa uchiga chiqqan jinoyatchi, xavfli odam ekanimni, ehtimol, oxirim voy bo'lishini aytdi.

Provis hayajondan titray boshladi, lekin o'zini tutib oldi, ikki-uch marta qisqa nafas olib, tupugini yutdi va qo'limga qo'lini qo'yib, erkalagan ohangda dedi:

– Aziz o'g'lim, yarashmagan so'zlarni mendan eshitmaysan.

Lekin u shunchalar qizishib ketgandiki, ro'molchasi bilan yuzi, boshi va qo'llarini artib olmaganicha, davom ettira olmadi.

– Kompesonga basharangni yoraman, degandim, keyin, agar aldayotgan bo'lsam, Parvardigor mening basharamni yorsin, deb qasam ichdim. Biz bitta – suzuvchi qamoqxona-da saqlanar edik, lekin qanchalar harakat qilmay, uzoq vaqt unga yaqinlashishning uddasidan chiqolmadim. Nihoyat, kunlarning birida orqasidan kelib bo'yniga tushirdim, u

o'girilib, basharasini tutib berdi, lekin meni ko'rib qolib, jazo kamerasi tashladilar. O'sha barjadagi jazo kamerasi tajribali, buning ustiga sho'ng'ish va suzishni biladigan odam uchun hech nima emasdi. Qochib ketib qabrlar orasida, ularda yotganlar va barcha tashvishlardan qutulganlarga havas qilib yashirinib yurganimda birinchi marta bolaginamni ko'rib qoldim!

U menga mehr bilan qaragan edi, hozirgina unga chinakamiga achinib o'tirgan bo'lsam ham, yana xunuk ko'rinib ketdi.

– Bolaginamning so'zlaridan Kompesonning ham o'sha botqoqlikda berkinib yurganini bilib oldim. U mendan judayam qo'rqqanidan qochib qolgandi, faqat mening ham qirg'oqda ekanimdan bexabar edi. Uni qidirib topdim. Basharasini urib yordim. „Endi, mendan ko'radiganingni ko'rasan. O'zimni ham ayab o'tirmayman, lekin seni qaytarib olib boraman“. Agar kerak bo'lganda, askarlarsiz, sochidan tortib bo'lsa ham uni barjaga bir o'zim olib borgan bo'lardim.

Turgan gapki, bu yerda ham unga marhamat ko'rsatildi – jentlmenlarcha o'tmishi hisobga olindi! Uni o'ldirib qo'yishimdan qo'rqib, vahimadan nima qilayotganini bilmay qochib ketgan, deb hisoblashdi va yengil jazo tayinlashdi. Meni kishanlab, yana mahkamaga tortishdi va bir umrga surgun qilishdi. Lekin men, o'g'lim va siz, Pipning do'sti, ko'rib turganingizdek, u yerlarda umrbod qolib ketmadim, shuning uchun mana, huzuringizdaman.

U yana ro'molchasi bilan artindi, shoshmasdan cho'ntagidan tamaki chiqardi, trubkasini olib, uni tamaki bilan to'ldirdi, o'rnidan turdi va cheka boshladi.

– U o'lganmi? – dedim men sukunatni buzib.

– Kimni aytyapsan, o'g'lim?

– Kompesonni.

– Bir narsani ayta olaman: agar tirik bo‘lsa, meni o‘lib ketgan, degan umid bilan yashamoqda. O‘shandan beri u haqida eshitmadim.

Gerbert qalam bilan ochiq turgan kitobning ichiga nimalarnidir yozmoqdaydi. Provis trubkasini chekib, olovga tikilib qolganidan foydalanib, u kitobni sekin men tomonga surdi, unda: „Artur – miss Xevishemning ukasi. Kompeson – unga uylanmoqchi bo‘lgan o‘sha odam“, deb yozilgandi.

Kitobni yopib, Gerbertga sezilar-sezilmas bosh irg‘adim, keyin kitobni bir chekkaga surib qo‘ydim; biz olovning oldida turib, trubkasini chekayotgan Provisga unisiz tikilardik.

XLIII BOB

Uning hikoyasidan keyin menda yangi gumonlar paydo bo‘ldi, to‘g‘rirog‘i, avvalgi, g‘ira-shira gumonlar aniq shaklga kirdi. Agar Kompeson tirik bo‘lsa va Provisning qaytib kelganini bilib qolsa, oqibati nima bo‘lishi aniq edi. Kompesonning Provisdan qanchalar qo‘rqishini mendan yaxshi biladigan odam yo‘q edi; u Provis tasvirlab bergandek odam bo‘lgani uchun ham, dushmanidan bir umrga qutilish uchun uni sotishiga shubha yo‘q edi.

Provisga Estella to‘g‘risida og‘iz ochmagandim va bundan keyin ham u haqida indamaslikka qat‘iy qaror qildim. Lekin Gerbertga Estellani va miss Xevishemni ko‘rmasdan chet elga ketolmasligimni aytdim. Provis bizga tarixini hikoya qilib berganida kech kirgandi. Men keyingi kuniyoq Richmondga borishga qaror qildim.

Missis Brendlining uyiga kelganimdan keyin, Estellaning oqsochini chaqirishdi, u esa bekasi qishloqqa ketganini aytdi. Qayoqqa? Odatdagidek, Satis Xauzga. Odatdagidek emas, dedim men, chunki u hech qachon mensiz u yoqqa bormasdi. U qachon qaytadi? Javobda meni hayrat-

lantirgan mazmun bor edi; oqsochning taxminicha, agar Estella qaytgudek bo'lsa, qisqa muddatga kelib-ketishi mumkin ekan. Menga hech nimani tushuntirishni xohlama-yotganliklaridan, boshqa hech narsani tushunmadim, butunlay o'zimni yo'qotib, uyga qaytdim.

Kech kirib, Provis uyiga chiqib ketganidan keyin (uni doimo kuzatib qo'yar va doimo diqqat bilan atrofni tekshirardim), Gerbert bilan maslahatlashib, miss Xevishemnikidan qaytmagunimcha chet elga borish to'g'risida og'iz ochmay turishga qaror qildik. Ungacha ikkalamiz o'zimizcha buni qanday aytish kerakligini o'ylab ko'radigan bo'ldik: yo o'zimizni shubhali odamlar kuzatib yurganidan qo'rqqandek ko'rsatamiz yoki Angliyadan tashqariga chiqmaganimni bahona qilib, sayohat qilgim kelayotganini ro'kach qilamiz. Provis har qanday taklifimni qabul qilishiga ikkalamiz ham shubha qilmayotgandik. Va ikkalamiz ham uni ortiq bunday xatarga qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblayotgandik.

Keyingi kuni uyalib o'tirmasdan, borib albatta Joni ko'rib kelishim kerak, deb aldadim; Joga va uning ismiga nisbatan shunchalar pastkashlik qilishga qodir edim! Provisga yo'qligimda juda ehtiyot bo'lishi zarurligini uqtirdim, Gerbertdan, men qanday kuzatgan bo'lsam, uni shunday kuzatib yurishni iltimos qildim. Bir kundan keyin qaytib kelaman, shunda uning sabr kosasini to'ldirmasdan, qanday qilib jentlmenlarcha hayot kechira boshlash to'g'risida o'ylab ko'rsa bo'ladi. Shunda, xarid qilish yoki biror o'xshashroq bahona bilan uni Angliyadan olib chiqib ketsa bo'ladi, degan fikr xayolimga keldi (keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Gerbert ham bu to'g'rida o'ylagan ekan).

Xullas, miss Xevishemning uyiga tashrif uyushtirib, tong otmasdan birinchi dilijon bilan jo'nab ketdim va qashshoqlardek bulutlar uvadalaridan hamda tuman par-

chalaridan libos kiygan, titroq, yig'loq, tortinchoq kun yorisha boshlaganida, London uzoqda qolib ketgandi. Shitirlab yog'ayotgan yomg'ir tagida „Zangori qobon“ oldiga yetib keldik. Og'zida ovqat bilan aravani kutib olish uchun darvozadan kim chiqib keldi deng? Bentli Dramlning shaxsan o'zi!

U o'zini meni ko'rmaganga olganidan, men ham shunday qildim. Harakatlarimizning soxta ekani bilinib qolayotgandi, bu ham ozdek ikkalamiz bir vaqtda yemakxonaga kirib keldik, u hozirgina nonushta qilgan joyda menga choy tayyorlab qo'yilgandi. Shahrimizda uni ko'rish menga pichoq sanchilishi bilan teng edi – uning nimaga kelganini juda yaxshi bilardim.

Bir oy avval chop etilgan, yog' bosib ketgan gazetani o'qiyotgan qilib ko'rsatib – unda mahalliy yangiliklardan tashqari begona unsurlarning – qahva, sho'rva, baliq qaylasi, go'sht yog'i, eritilgan moy hamda vinoning qizamiqni eslatadigan izlarini ko'rish mumkin edi – stol yoniga o'tirdim, u bo'lsa kamin yoniga turib oldi. Uning o'choq oldida turishi asta-sekin menga alam qila boshladi va men uni bu imtiyozdan mahrum qilishga qat'iy qaror qildim. Kaminga yaqinlashib, ko'mirni aralashtirish maqsadida kosovga qo'l uzatdim, buning uchun uni mister Dramlning oyoqlari va panjara orasidan o'tkazishga to'g'ri keldi, lekin avvalgidek o'zimni uni ko'rmayotganga solayotgandim.

– Salomlashingiz kelmayaptimi? – so'radi mister Draml.

– E, bu sizmisiz, – dedim men kosovni qo'limda mahkam siqib. – Men bo'lsam olovni kim to'sib qo'ydi, deb o'ylab o'tiruvdim.

Shundan keyin bor kuchim bilan kosovni ishga soldim, ko'mir lang'illab yona boshlagach yelkalarimni yozib, olovga orqa o'girib, Dramlning yonidan joy oldim.

– Yaqinda keldingizmi? – so‘radi mister Draml yelkasi bilan sekingina meni bir chetga surarkan.

– Ha, – javob berdim men o‘z navbatida uni asta-sekin chap yelkam bilan itarib.

– Gadoytopmas joylar ekan, – dedi Draml. – Adashmasam, sizni shu yerlik deyishardi.

– Ha, – tasdiqladim men. – Aytishlaricha, bu yerlar sizning Shropshiringizga juda o‘xshab ketarmish.

– Hecham o‘xshamaydi, – dedi Draml.

Keyin mister Draml etiklarimga qaradi, men uning etiklariga nazar soldim.

– Kelganingizga ko‘p bo‘ldimi? – so‘radim undan kammin oldidagi joydan bir duym ham bo‘shatib bermaslikka qat‘iy qaror qilib.

– Zerikib qolish uchun yetarli muddat, – javob berdi Draml yasama esnoq bilan va, aftidan, yon bosmaslik siyosatini davom ettirishga qaror qilib.

– Bu yerda uzoq bo‘lasizmi?

– Hozircha bilmayman, – javob berdi mister Draml.

Ichimdan kelayotgan titroqdan, agar mister Draml yelkasini yana bir tola soch o‘lchamida o‘ng tomonga surishga urinib ko‘rsa, uni derazadan uloqtirib yuborishim mumkinligini his qilib turardim; ayni chog‘da agar mening yelkam shunday urinishni amalga oshirgudek bo‘lsa, mister Draml ham meni dahliz tomon uloqtirib yuborgan bo‘lardi. U hushtak chala boshladi. Men ham shunday qildim.

– Shu yaqin orada botqoqliklar ko‘p, deb eshitdim? – dedi Draml.

– Ha, – dedim men. – Nima bo‘libdi?

Mister Draml avval menga, keyin etiklarimga qaradi, keyin: „E Xudoyim!“ deb kulib yubordi.

– Juda xursand ko‘rinasiz, mister Draml? – dedim unga.

– E yo‘q, – javob qildi u, – unchalik emas. Ko‘nglimni

sal yozish uchun otga o'tirib, botqoqliklarni o'rganib qaytmoqchiman. Aytishlaricha, uzoq qishloqlar, kichkina qovoqxonalar... ustaxonalar... va boshqa narsalar uchramish. Hoy!

– Nima istaydilar, ser?

– Otim tayyormi?

– Kiraverishda kutib turibdi, ser.

– Xo'sh, unda gap shu, bugun havo yomon, yosh xonim ot minmaydi.

– Xo'p bo'ladi, ser.

– Bu yerda tushlik qilmayman, o'sha xonimnikiga tushlikka taklif qilinganman.

– Xo'p bo'ladi, ser.

Draml menga qaradi, u qanchalar befarosat bo'lmasin, yog' bosgan basharasidagi behayo tantana aksidan shunchalar quturib ketdimki, uni buklab (ertakdagi qaroqchi yalmog'izni shunday qilgandi), lovullab turgan cho'g' ustiga o'tqazib qo'yishga tayyor edim.

Bir narsa ikkalamizga ham ayon edi: yordam kelmagunicha u ham, men ham kamin oldidan bir qadam ham nari ketolmasdik. Biz ko'kraklarimizni oldinga chiqarib, yelklarimizni va oyoqlarimizni bir-biriga tirab, qo'llarimizni orqaga qilib, mixlab qo'yilgandek yonma-yon turardik. Derazadan yomg'ir pardasi ortida egarlangan ot ko'rinib turar, dasturxonga nonushtamni olib kelib qo'yishgan, Dramlning nonushtasidan qolgan idish-tovoqni olib ketishgandi va xizmatkor meni stol yoniga taklif qildi, unga bosh irg'adim, lekin ikkalamiz ham joyimizda qolaverdik.

– O'shandan beri Qayinzorga hech bordingizmi? – so'radi Draml.

– Yo'q, – dedim men. – Chittaklarning o'tgan safar qilgan ishlari menga yetadi.

– Ikkalamiz kelisha olmay qolganimizdami?

– Ha, – dedim qisqa qilib.

– Qo‘ysangiz-chi, ular sizga marhamat ko‘rsatishdi axir, – dedi zaharxandalik bilan Draml. – Bunchalar yengil bo‘lish yaramaydi.

– Mister Draml, – dedim unga, – bu mavzuda gapirmasangiz ham bo‘lardi. Jahlim chiqqanida, (o‘shanda shunday bo‘lgandi deyotganim yo‘q) men stakan otmayman.

– Men esa otaman, – dedi Draml.

Unga yana bir-ikki marta qarab, ichimdan g‘azab qaynab kelayotganini his qildim-da, unga:

– Mister Draml, bu suhbatni men boshlaganim yo‘q va uni yoqimli deb bo‘lmaydi, degan fikrdaman, – dedim.

– Albatta, yoqimli emas, – dedi u kibr bilan yelkasi osha. – Buni o‘ylab o‘tirmasa ham bo‘ladi.

– Binobarin, – davom etdim men, – bundan keyin tanish-bilishchilikni umuman yig‘ishtirib qo‘ysak, deb taklif qilmoqchiman.

– To‘la qo‘shilaman, – dedi Draml. – O‘zim ham shuni taklif qilgan bo‘lardim, to‘g‘rirog‘i, hech qanday taklifsiz shunday qilgan bo‘lardim. Lekin sizga hali ko‘p sabr kerak bo‘ladi. Shusiz ham ko‘p narsa yo‘qotdingiz.

– Bu bilan nima demoqchisiz?

– Hoy! – deb qichqirdi Draml javob bermay.

Kiraverishda xizmatkor paydo bo‘ldi.

– Quloq soling, hoy. Ismingiz nimaydi? Yosh xonim bugun otda sayr qilmasligini va unikiga tushlikka taklif qilinganimni eslab qoldingizmi?

– Xuddi shunday, ser.

Xizmatkor kaftini soviy boshlagan choynakka tekizib, menga yolborib qaradi va chiqib ketdi. Shundan keyin Draml o‘ng yelkasini qimirlatmaslikka tirishib, cho‘ntagidan sigara chiqardi, uchini tishlab uzdi, lekin joyidan qimirlamadi. Jahlim chiqqanidan, nafasim siqar ekan,

yana bir soʻz aytilsa Estellaning ismi tilga olinishini sezib turardim, ammo uni aynan shu odam aytishini sira ham istamasdim; shuning uchun men, xonada oʻzimdanda boshqa hech kim yoʻqdek, toʻgʻrimdagi devorga tikilganimcha oʻzimni jim turishga majbur qilayotgandim. Bu ahmoqona soqovlar oʻyini yana qancha davom etishi nomaʼlum edi, lekin koʻp oʻtmay xonaga issiq kurtkalarining tugmalarini yoʻl-yoʻlakay yechib va qoʻllarini bir-biriga ishqab, uchta toʻladan kelgan fermer kirib keldi – koʻrinishidan, ularni xizmatkor ichkariga yoʻllagandi – va shunchalar ahillik bilan oʻchoqqa yaqinlashdilarki, ularga joy boʻshatib berishdan boshqa ilojimiz qolmadi.

Dramning qoʻpollik bilan otning yolidan ushlab egarga oʻtirganini koʻrdim, ot tipirchilab, orqaga tisarila boshladi. U ot choptirib ketdi, deb oʻylab turganimda, qaytib kelib, ogʻzidagi yoqishni unutgan sigarasi uchun olov berishlarini baland ovozda talab qildi. Qayerdandir – mehmonxona darvozasidanmi yoki koʻchadanmi, chang libosli bir odam uning yoniga keldi va Draml egar ustida egilib, sigarasini tutatayotganida u kulib mehmonxonaning pastki derazalariga bosh irgʻadi, binoga orqa oʻgirib turgan odamning qiyshiq yelkalari va taralmagan sochlari menga Orlikni eslatdi.

Kayfiyatim shunchalar buzilgandiki, oʻsha lahzada u Orlikmida, boshqa odammi, menga farqi yoʻq edi, nonush-taga ham qoʻl urmadim, yuz-qoʻllarimdan yoʻl gʻuborini yuvib, tanish, eski uyga yoʻl oldim, qani endi bu uyni umuman koʻrmagan, hech qachon ostonasidan hatlab oʻtmagan boʻlsam!

XLIV BOB

Miss Xevishem va Estellani pardozi stoli turadigan va devordagi shamdonlarda mum shamlar yoqib qoʻyilgan xonada uchratdim. Miss Xevishem kamin yonidagi kichki-

na divanda o'tirar, Estella uning oyoq tomonida, yostiq ustidan joy olgandi. Estella to'qir, miss Xevishem unga qarab o'tirardi. Kirib kelganimda ular boshlarini ko'tardilar va baravariga mendagi o'zgarishni sezib qoldilar. Ular bir-birlariga qarab qo'rganlaridan shunday xulosa chiqardim.

– Pip, – dedi miss Xevishem. – Seni qaysi shamol uchirdi, Pip?

Uning ko'z qarashi qattiq edi, lekin nimadandir noqulay ahvolda ekanini sezib qoldim. Estella bir lahzaga to'qishni to'xtatib, menga tikildi va o'sha zahoti ko'zlarini olib qochdi, lekin barmoqlarining harakatidan, kar-soqovlarining tilida saxovatpeshang kimligini bilaman, deytogandek bo'ldi.

– Kecha Richmondga Estella bilan gaplashib olish uchun borgan edim, miss Xevishem, – dedim men, – lekin nima uchundir uning bu yerga jo'nab ketganidan xabar topdim. Keyin men ham kelaverdim.

Miss Xevishem menga uchinchi yo to'rtinchi marta o'tir, deb ishora qilayotgani sababli, u, odatda, o'tiradigan pardozi stolida yonidagi stulga o'tirdim. O'sha kuni halokat parchalari atrofda sochilib yotgan bu makonda o'sha joy eng qulay bo'lib ko'ringandi.

– Estellaga aytmoqchi bo'lgan gaplarimni, huzuringizda, miss Xevishem... tez orada... bir lahzadan keyin aytaman. Bundan hayron bo'lmaysiz va u siz uchun yoqimsiz ham bo'lmaydi. Men siz istaganchalik baxtsizman.

Miss Xevishem avvalgidek menga tikilib turar, Estella to'qishda davom etar va barmoqlarining harakatidan so'zlarimga quloq solayotgani ko'rinib turardi; lekin u hamon boshini ko'tarmasdi.

– Saxovatpesham kim ekanini bildim. Bu quvonchli xabar emas va menga hech narsa – na boylik, na obro', na mansab olib kelmaydi. Ayrim sabablarga ko'ra, bu to'g'ri-

da batafsil gapira olmayman. Gap o'zganing siri haqida ketyapti.

Estellaga qarab turib va gapimning davomini o'ylab jim qoldim, shunda miss Xevishem takrorladi:

– Bu sening emas, o'zganing siri. Xo'sh, u yog'i-chi?

– Qishlog'imdand (bekorga undan tashqariga chiqqan ekanman) boshqa hech nimani bilmaydigan paytimda, menga birinchi marta bu yerga kelishni buyurganingizda, miss Xevishem, bu yerga, mening o'rnimga kelishi mumkin bo'lgan har qanday bola kabi, inijliklaringizni ko'taradigan va buning uchun tegishli haq oladigan xizmatkor sifatida kelib qolgan bo'lsam kerak.

– Ha, Pip, – dedi miss Xevishem boshi bilan tasdiqlab, – aynan shunday bo'lgandi.

– Va mister Jeggers...

– Mister Jeggers, – deb ishonch bilan davom ettirib ketdi miss Xevishem, – bu ishga aralashmagan va hech nimani bilmasdi. U mening ham, saxovatpeshangning ham ishonchli vakili bo'lib chiqqani – sof tasodif. Buning hayron qoladigan joyi yo'q, uning mijozlari juda ko'p. Nima bo'lganda ham bu oddiy tasodif va bu yerda hech kimning hech narsada aybi yo'q.

Holdan toygan chehrasiga qarab, hozirga qadar u hech nimani yashirmay, haqiqatni gapirayotganiga har qanday odam ishonch hosil qilgan bo'lardi.

– Lekin men adashib, uzoq vaqt noto'g'ri xayollarga berilib yurganimda siz ataylab meni ogohlantirmadingizmi?

– Ha, – dedi xonim yana qat'iyat bilan bosh tebratib, – seni fikringdan qaytarib o'tirmadim.

– Bu shafqatsizlik emasmidi?

– Men kim bo'libmanki, – dedi miss Xevishem baland ovozda va hassasini yerga shunchalar jahl bilan urdiki, Es-

tella unga hayron bo'lib qarab qo'ydi, – men kim bo'libmanki, ey qodir Egam, mendan shafqat talab qilsalar?

Savolim ojizona berilgandi va og'zimdanda beixtiyor chiqib ketgandi. Kutilmagan g'azab o'rnini badqovoq sukunat egallagach, buni miss Xevishemga aytdim.

– Xo'sh, xo'sh, – dedi xonim. – Davom et-chi!

– Xizmatim uchun menga shohona haq to'landi, – dedim uni tinchlantirish uchun, – menga temirchilik kasbini egallash imkoniyati berildi va hozirgacha bir narsani o'zim uchun oydinlashtirish maqsadidagina savollar berdim. Endi maqtasa arzigulik maqsad yo'lida davom etmoqchiman. Mening ataylab yanglish xayollarga berilishimga monelik qilmay, miss Xevishem, siz nafsi o'tkir qarindoshlaringizni jazolamoqchi... boplab qo'ymoqchi bo'ldingiz... Balki, sizga tegib ketmaydigan va ularga nisbatan niyatlaringizni to'g'ri ifodalaydigan boshqa bir so'zni o'zingiz aytarsiz?

– To'g'ri, lekin bunga o'zlari sababchi! Sen ham. Shuncha kechirgan uqubatlarimdan keyin, fikrlaringizdan qaytarish uchun mashaqqat chekib o'tirishim kerakmidi? O'zingiz o'zingizni tuzoqqa tushirdingiz. Bu yerda mening ishtirokim yo'q.

Tinchlanib olishini kutib turib (negaki oxirgi so'zlarni u yana g'azab bilan, baland ovozda aytgandi), davom etdim:

– Ayrim qarindoshlaringizni, miss Xevishem, men yaxshi taniyman va Londonga borgan kunimdan boshlab ular bilan muntazam uchrashib kelyapman. Ularning mavqeyim xususida, xuddi o'zim kabi soddadillarcha yanglishganliklarini bilaman. Sizga bu gaplarni eshitish yoqadimi, yo'qmi, menga ishonishni ixtiyor etasizmi, yo'qmi, mister Metyu Poket va uning o'g'li Gerbertga nisbatan, hamonki ularni oliyanob, to'g'riso'z, fitna va hasad qo'lidan kel-

maydigan insonlar sifatida tan olmas ekansiz, o'ta adolatsizlik qilyapsiz.

– Ular sening do'stlaring, – dedi miss Xevishem.

– O'rnimizni egallab oldi, deb o'ylab yurganlarida ular men bilan do'stlashdilar, – e'tiroz bildirdim men, – ayni paytda, agar yanglishmayotgan bo'lsam, Sara Poket, miss Jorjiana va missis Kamilla menga umuman do'stlik qilmadilar.

Bunday qiyoslash bilan Gerbert va otasining qadrini miss Xevishemning nazarida oshira olgandek ko'rindim va bu narsa meni xursand qildi. U menga sinchkov nazar soldi va xotirjamlik bilan so'radi:

– Ular uchun nima so'ramoqchisan?

– Faqat bir narsani – ularni boshqalar bilan bir xil ko'rmasligingizni. To'g'ri, ular bir oiladan, lekin bir-birlaridan butunlay farq qiladilar. Ko'rib turganingizdek, – dedim men qizarib ketayotganimni his qila turib, – menda ayyorlik yo'q va agar xohlaganimda ham ular uchun sizdan nimadir so'ramoqchi bo'layotganimni yashira olmasdim. Miss Xevishem, oliyanob bir ish – do'stim Gerbertga, o'ziga sezdirmaganda holda, oyoqqa turib olishi uchun pul ajrata olganingizda, buni qanday amalga oshirishni sizga aytgan bo'lardim.

– Nega o'zi bilmasligi kerak? – so'radi xonim hassasi ustida qo'llarini qovushtirib va meni yaxshiroq ko'rish uchun oldinga egilib.

– Negaki, – dedim men, – o'zim ikki yil avval ushbu oliyanob ishni undan so'ramasdan boshlagan edim va buni bilib qolishini istamayman. Boshlagan ishimi oxiriga yetkazib qo'yishga monelik qilayotganini tushuntirib bera olmayman. Hali men aytgan begona sirning bir qismi bu.

– Yana nima?

– Estella, – dedim men titray boshlagan ovozimni yengib olishga harakat qilarkanman, – sizni ko‘pdan beri sadoqat bilan sevishimni bilasiz.

Unga murojaat qilayotganimni eshitib, Estella boshini ko‘tardi va to‘qishni to‘xtatmagan holda menga o‘ta xotirjamlik bilan qaradi. Miss Xevishemning nazari mendan unga, undan menga o‘tayotganini his qildim.

– Agar yanglish xayollarga berilib yurmaganimda bu to‘g‘rida avvalroq gapirgan bo‘lardim. Miss Xevishem bizlarni bir-birimizga mo‘ljallab qo‘ygan, deb o‘ylardim... umid qilardim. Tanlash huquqi sizga berilmagan, degan xayolda indamay yurdim. Lekin endi buni aytishim kerak.

Estellaning chehrasi xotirjamligicha qolaverdi, barmoqlari to‘qishda davom etdi, lekin u bosh chayqab qo‘ydi.

– Bilaman, – dedim bu harakatga javoban. – Bilaman. Qachonlardir sizni o‘zirniki deb atashimga hech bir umid yo‘qligini bilaman, Estella. Shu yaqin orada hayotim qanday kechishini, na qayerda bo‘lishimni, na qashshoqlikka tushib qolish-qolmasligimni bilmayman. Lekin sizni sevaman. Sizni shu uyda birinchi marta ko‘rganimdan beri sevaman.

O‘sha, o‘sha xotirjamlik bilan, to‘qishni to‘xtatmasdan, Estella yana bosh chayqab qo‘ydi.

– Agar miss Xevishem o‘ylab shu ishni qilgan bo‘lsa, uning tomonidan bu shafqatsizlik bo‘lgan, bechora bir bolaning ta’sirchanligidan foydalanib, shuncha yil besamara umid, amalga oshmaydigan orzu bilan qiynab kelish – borib turgan shafqatsizlikdan boshqa narsa emas. Ammo, ehtimol, u bu to‘g‘rida o‘ylamagandir. O‘zining azoblari bilan bo‘lib, menikini unutmadi, Estella.

Miss Xevishem qo‘lini yuragi ustiga qo‘yib olib, dam Estellaga, dam menga qarab, qimirlamay o‘tirardi.

– Ko‘rinishdan, – dedi Estella xotirjam ovozda, – men

tushuna olmaydigan qandaydir tuyg'ular... xayollar – ularni qanday atashni bilmayman – borga o'xshaydi. Siz, meni sevaman deyapsiz, aytayotgan so'zlaringizni tushunaman, xolos. Qalbimda hech narsa uyg'otmaysiz, hayajonga solmaysiz. Nima desangiz ham menga farqi yo'q. Sizni ogohlantirishga harakat qilganman, o'zingiz ayting to'g'rimi?

– Ha, – dedim men qayg'uga botib.

– Ha. Lekin siz gaplarimni jiddiy qabul qilmadingiz, ehtiyot bo'lmadingiz. Axir shunday deb o'yladingiz, to'g'rimi, ayting?

– Axir, siz, Estella, shunchalar navqiron, shunchalar ma'suma, shunchalar latofatlisiz! Yo'q, bu tabiatga zid axir!

– Mening tabiatimga zid emas, – e'tiroz bildirdi u. Va har bir so'zini ta'kidlab, dedi: – Bu menda shakllantirilgan tabiatga mos keladi. Sizni qolgan odamlardan boshqachasiz, deb o'ylaganim uchun ularni aytyapman. Mendan boshqa hech narsa kutmang.

– Bentli Dramlning shu yerda, shaharchamizda ekanini, xushomadlari bilan sizni ta'qib qilayotgani to'g'rimi emasmi?

– To'ppa-to'g'ri, – dedi Estella o'ta nafratlanadigan odam to'g'risida gapirayotgandek befarqlik bilan.

– Uni o'zingizdan nari itarmayotganingiz, birga ot ustida sayr qilayotganingiz va bugun u siznikida tushlik qilishi ham to'g'rimi?

– To'ppa-to'g'ri.

– Estella, axir uni sevmaysiz, to'g'rimi?

Uning barmoqlari birinchi marta to'qishdan to'xtadi va chin yurakdan javob berdi:

– Yana o'sha gapni takrorlayapsiz. Yoki, hech narsaga qaramasdan, meni hali ham jiddiy gapirmayapti, deb o'ylayapsizmi?

– Lekin siz unga turmushga chiqolmagan bo‘lardingiz-ku, Estella?

U miss Xevishemga qaradi va to‘qishini qo‘ymasdan, bir lahzaga o‘ylanib qoldi. Keyin:

– Nega sizga to‘g‘risini aytmay? Unga turmushga chiqyapman.

Qo‘llarim bilan yuzimni berkitdim, uning so‘zlari meni qiynoqqa solib, o‘zimni ancha vaqt qo‘lga ololmadim. Yana boshimni ko‘targanimda miss Xevishemning yuzi shunchalar qo‘rqinchli tus olgan ediki, qayg‘uga botib, o‘zimni yo‘qotayozgan bo‘lsam ham, meni dahshatga solmay qo‘ymadi.

– Estella, azizam, miss Xevishem sizni bu mash‘um, to‘g‘rilab bo‘lmas qadamni tashlatishiga yo‘l qo‘ymang! Mayli, siz uchun kim nima bo‘lmay, – shundayligini bilaman – lekin o‘zingizga munosibroq er tanlang. Sizni ko‘rishdan zavqlanadigan boshqa ko‘p yaxshi erkaklar, chinakamiga sevadigan kam sonlilarini o‘lar darajada haqoratlash, kamsitish uchun miss Xevishem sizni Dramlga uzatyapti. Menchalik ko‘p yillardan beri bo‘lmasa ham, balki, o‘sha kam sonli erkaklar orasida sizni mendek sadoqat bilan sevadigani bordir. O‘shani baxtli qiling, siz uchun buni ko‘tarish menga osonroq bo‘ladi!

Murojaatim jo‘shqinligi bilan uni hayratga soldi va agar Estella ruhiy holatimni tasavvur qila olganida, ehtimol, unda hamdardlik uchqunini yoqa olgan bo‘lardim. U yumshoqroq ovozda dedi:

– Dramlga turmushga chiqyapman. To‘yga tayyorgarliklar boshlab yuborilgan, yaqinda to‘y bo‘ladi. Nega tutingan onamdan norozi bo‘lyapsiz? U hech narsa qilgani yo‘q. O‘z ixtiyorim bilan shunday qilyapman.

– O‘z ixtiyoringiz bilan shunday ablahning bo‘yniga osilyapsizmi, Estella?

– Sizningcha, kimning bo‘yniga osilishim kerak? – e’tiroz bildirdi u tabassum bilan. – Unga hech narsa berolmasligimni darrov tushunib oladigan odamningmi (agar odamlar buni his qilolsalar)? Foydasi yo‘q. G‘isht qolipdan ko‘chgan. Menga ham, erimga ham yomon bo‘lmaydi. Miss Xevishem esa siz aytgandek to‘g‘rilab bo‘lmas qadamni qo‘yishga meni majbur qilgani yo‘q, aksincha, u turmushga kechroq chiqishimni xohlagan bo‘lard; lekin hozirgi turmush tarzidan charchadim, uning menga yoqadigan tomonlarini hech ko‘rmayapman va o‘zgartirish niyatidaman. Menimcha, bu to‘g‘rida yetarli gaplashib oldik. Biz hech qachon bir-birimizni tushuna olmaymiz.

– U shunchalar ablah, shunchalar farosatsizki! – dedim men iztirob ichida.

– Tashvish qilmang, uning uchun saxovat farishtasi vazifasini bajarmayman, – dedi Estella. – Umid ham qilmasin. Xo‘sh, mana mening qo‘lim. Keling, shu tarzda xayrlashamiz, orzularga boy bola... yoki erkakmi?!

– Oh, Estella! – ingradim men va achchiq ko‘zyoshlarim, ularni ushlab turishga qanchalar harakat qilmay, uning qo‘liga tom-di. – Agar Angliyada qolish va avvalgidek odamlarning ko‘ziga qarash peshonamga yozilgan bo‘lsa ham, sizning Dramlga xotin ekaningizga qanday chidayman?

– Bo‘lmagan gap, – dedi u. – Bo‘lmagan gap. Tezda ko‘nikib qolasiz.

– Hech qachon, Estella!

– Bir haftadan keyin men haqimda o‘ylashni ham unutilib yuborasiz.

– Unutaman? Siz – hayotimning bir qismi, mening bir qismimsiz. Bu yerga oddiy qishloq bolasi bo‘lib kelib, o‘shandayoq qalbimni chuqur jarohatlaganingizdan beri o‘qigan har bir satrimda siz borsiz. O‘shandan beri nimani-

ki ko'rsam – daryoda, kemalarning yelkanlari, botqoqliklar, bulutlar, yorug'lik va qorong'ilik, shamol, dengiz, o'rmon va ko'chalarda siz bordeksiz. Londondagi eng mustahkam binolarning qo'llaringiz joyidan qimirlatishga ojiz toshlari qanchalar mustahkam bo'lsa, siymongiz shunchalar mustahkam va o'chmas bo'lib qalbimda avval-u hozir va umrbod yashaydi. Estella, oxirgi nafasimgacha jismimning bir bo'lagi, menda bor barcha yaxshi narsalarning – ular qanchalar kam bo'lmasinlar – va barcha yomon xislatlarning bir bo'lagi bo'lib qolasiz. Lekin hozir, vidolashuv lahzalarida sizni faqat yaxshilik bilan bog'layman va bundan keyin faqat yaxshilik bilan eslashga va'da beraman, negaki yuragim qanchalar og'rimasin, menga yomonlikdan ko'ra ko'proq yaxshilik qilganingizga ishonaman. Parvardigor sizni afv etsin va yarlaqasin!

Ushbu bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar oqimi iztirobning qaysi to'lqinida yaraldi, buni o'zim ham bilmayman. U qalb yarasidagi qon misoli tashqariga oqib chiqdi. Ikki-uch lahza Estellaning qo'lga lablarimni bosib turdim, keyin xonadan chiqib ketdim. Lekin, Estella menga ishonchsiz hayrat bilangina qarab turgan vaqtda, qo'lini hamon yuragining ustidan olmagan miss Xevishemning yuzi qayg'u va tavbaning qo'rqinchli niqobiga aylanib ulguranimni unutganim yo'q (ma'lum sabablarga ko'ra, uni tez orada yana esladim).

Hammasi tugagan, vayron bo'lgandi! Shunchalar ko'p narsa yo'qotgandimki, ko'chaga chiqqanimda, kunduzgi yorug'lik, ichkariga kirib ketayotganimdagiga nisbatan xira tortib qolgandek ko'rindi. Bir muncha muddat shahar chetidagi kimsasiz ko'chalarda yashirilib yurdim, xayollarimni jamlashga ulgurgach, Dramlni ko'rmaslik uchun mehmonxonaga qaytib bora olmasligimni; hech kim bilan gaplashgim kelmayotganidan dilijonga o'tira olmasligimni

tushundim va Londonga piyoda yo‘l oldim, holdan toy-gunimcha yurish va yana yurishdan yaxshiroq narsa o‘ylab topa olmadim.

Tun paytida kamdan kam hollarda Templga bu tomondan kirganim sabab va yo‘l yurib, hamma yog‘im loy bo‘lib ketgani uchun qorovul, tabiiyki, yarim ochiq darvozadan kiritishdan oldin, meni boshdan oyoq yaxshilab ko‘zdan kechirdi. Shubhadan xoli bo‘lishi uchun unga ismimni aytdim.

– O‘zim ham sizsiz, deb o‘yladim, ser, lekin ishonqiramadim. Sizga xat bor, ser. Uni olib kelgan odam, shu yerning o‘zida, fonusimning yorug‘ida o‘qishingiz kerakligini aytib qo‘yishni buyurgandi.

Ham hayron bo‘lib xatni oldim. Xat eskvayr¹ Filip Pipga yuborilgan, yuqori burchagida: „Ultimos, hozirning o‘zida o‘qilsin“, degan yozuv bor edi. Konvertni ochdim va qorovul yaqinroqqa olib kelgan fonus yorug‘ida Uemmikning qo‘li bilan yozilgan quyidagi so‘zlarni o‘qidim:

„Uyga bormang“.

XLV BOB

Ushbu xabarni o‘qishim bilan Templ darvozasidan orqaga qaytib, Flit-stritgacha yugurib bordim, u yerda tungi izvoshni uchratib qolib, Kovent-Gardendagi tunning istagan paytida joy topiladigan „Xammams“ mehmonxonasiga yetib oldim. Xizmatchi surishtirib ham o‘tirmay eshikni ochdi, tokchasida qator turgan shamlarning birinchisini yoqib, ro‘yxatidagi birinchi xonaga kuzatib qo‘ydi. Xona quyi qavatda joylashgan bo‘lib, maqbaraga o‘xshab ketar, derazasi hovliga qaragan va deyarli butunicha bahaybat, to‘rt ustunli so‘ri ixtiyoriga berib qo‘yilgandi, u bir

¹Eskvayr – Angliyada zodagon va mulkdorlarning ismi-sharifiga qo‘shib aytiladigan so‘z (*tarj.*).

oyog'ini hech bir tortinishsiz kamin ichiga kirgizib olgan, ikkinchisini eshikning narigi tomoniga chiqarib qo'ygan, jajjigina yuvinish chinnisini g'iq etmaydigan qilib devorga taqagandi.

Tungi chiroq berishlarini so'ragandim, xizmatchi o'sha ajoyib paytlarda udum bo'lgan, didsiz ishlangan hassa shamni olib kirdi. Hassaga sal-pal o'xshab ketadigan bu jihoz, xiyol tegib ketsangiz sinib tushardi, undan hech bir narsani yoqib ololmasdingiz, sham yonlaridan teshikchalar ochib qo'yilgan baland jez minoraning ichiga o'rnatilgan bo'lib, teshiklardan devorga yorug' doirachalarning aksi tushar, doirachalar menga o'ta qiziqsinib qarayotganga o'xshardilar. Shilinib ketgan oyoqlarim, yurakdagi bezovtalik bilan, na o'lik va na tirik holda o'ringa cho'zilgach, men ushbu afsonaviy maxluqning ham, o'zimning ham ko'zlarimni yumishga ojiz ekanim ayon bo'ldi. Tun sukunati va qorong'iligida ikkalamiz bir-birimizga qarab vaqt o'tkazdik.

Qanchalar umidsiz edi o'sha tun! Qanchalar xavotirli, mungli, uzun edi u! Xonada kul va qizigan chang hidi anqirdi. Yuqoriga, pashshaxonaning burchaklariga qarab yotib, go'sht do'konidan kelgan qancha ko'k pashsha, bozordagi qancha temirchak, atrofdagi joylardan kelgan qancha burga-yu bitlar yoz kelishini poylab yotishgandir, deb o'yladim.

Keyin ular to'kilib ham turishsa kerak, degan fikr xayolimga keldi va o'sha zahoti yuz-ko'zimga nimadir asta-sekin tegayotgandek yoqimsiz tasavvur paydo bo'ldi, undan orqam, bo'ynilarim qichishib, shubhalarimni oshirib yubordi. Oradan qanchadir vaqt o'tgach, odatda, tun sukunatiga rahna soladigan g'alati tovushlarni eshita boshladim: burchakda turgan javon shivirlar, kamin xo'rsinar, jajji yuvinish chinnisi buzuq soat kabi chiqillar, tokchadan vaqti-vaqti bilan gitara ovozi kelib qolardi. Taxminan, o'sha

vaqtning o'zida devordagi doiracha-ko'zlarning har birida: „Uyga bormang“, degan yozuv paydo bo'ldi.

Na atrofimni o'rab olgan tungi sharpalar, na tungi ovozlari bu so'zlarni haydab yuborishga ojiz edilar: „Uyga bormang“. Badandagi og'riq misol fikr-u xayolim ana shu ikki so'zda bo'lib qolgandi. Sal avvalroq, gazetalarda, tunda allaqanday odam „Xammams“ mehmonxonasiga kelib, o'rinda o'z joniga qasd qilgani, ertalab qonga belanib yotgan ahvolda topilgani xabar qilingan edi. Bu voqea hozir o'zim yotgan ana shu dahmada sodir bo'lgan, degan fikr miyamga o'mashib qoldi, o'rnimdan turib, yerda yoki jihozlarda qon izlari yo'qmikan, deb qaray boshladim; keyin eshikni ochib, xizmatchi yoqib o'tirgan fonusni uzoqdan ko'rsam ham, yengil tortaman, degan umidda tashqariga qaradim. Lekin fikr-u zikrim nega uyga borishim mumkin emas, u yerda o'zi nima voqea sodir bo'ldiykin, qachon uyga bora olaman, Provis uyidamikan, degan savollar band qilganidan, boshqa narsalarga joy qolmagandek edi. Hatto Estellani, bugun biz bir umrga xayrlashganimizni, vido-lashuvning ikir-chikirlarini, uning har bir qarashi, har bir so'zi, barmoqlarini epchillik bilan harakatlantirib to'qib o'tirganlarini eslasam ham, baribir hamma joyda: „Uyga bormang“ degan ogohlantirish ko'rinaverdi. Nihoyat, jismonan va ruhan holdan toyib, mudrab qolganimda esa ko'z o'ngimda tutundan yozilgan bahaybat fe'l paydo bo'ldi, uni tushashim kerak ekan. Buyruq mayli: uyga borma, u uyga bormasin, uyga bormaymiz, uyga bormang, ular uyga bormasinlar. Keyin shart mayli: men uyga bora olmagan bo'lardim, borishni istamagan bo'lardim, borishim kerakmas edi, borishga qaror qila olmagan bo'lardim, borishga botinmagan bo'lardim va hokazo, aqldan oza boshlaganimni his qilibgina narigi tomonimga ag'darilib, yana devordagi yorug' doirachalarni kuzata boshladim.

Meni soat yettida uygʻotishlarini buyurgandim, negaki birinchi navbatda Uemmikni koʻrishim zarurligini va mavjud sharoitda uning uolvortcha qarashlarigina men uchun foydali boʻlishi mumkinligini tushunib turardim. Shunchalar yoqimsiz tunni oʻtkazgan xonani tark etishni sabrsizlik bilan kutayotganimdan, eshikni taqillatishlari bilan oq oʻrnimdan sakrab turdim.

Soat sakkizda Qasrning kungurador devorlariga yaqin keldim. Omadim kelib qalʼa darvozasi oldida ikkita issiq non koʻtarib olgan xizmatkor qizni uchratib qoldim, u bilan koʻtarma koʻprikdan oʻtdim va yerosti yoʻli orqali oʻzi hamda Qariya uchun choy tayyorlayotgan Uemmikning oldida paydo boʻldim. Eshigi ochiq xonaning ichkarisida hali oʻrnidan turmagan Qariyaning oʻzini ham koʻrish mumkin edi.

– Ha, mister Pip! – dedi Uemmik. – Qaytibsiz-da?

– Ha, – javob qaytardim men, – lekin uyga bormadim.

– Juda yaxshi-da, – dedi u qoʻllarini bir-biriga ishqab. – Men har ehtimolga qarshi Templning barcha darvozalarida siz uchun xat qoldirgandim. Siz qaysi darvoza orqali kirdingiz?

Javobimni eshitib boʻlib, u gapida davom etdi:

– Bugun barcha boshqa darvozalarni aylanib chiqib, xatlarimni yoʻq qilaman; ehtiyoj boʻlmagan hujjatlarni saqlash kerak emas, degan qoidaga amal qilaman. Endi sizga bir iltimos bilan murojaat qilishga ijozat bering: Qariya otamga mana bu kolbasani qovurib berish sizga malol kelmaydimi?

Bu ishni juda katta mamnuniyat bilan bajarishimni aytdim.

– Unday boʻlsa siz ketaverishingiz mumkin, Meri-Enn, – dedi Uemmik oqsoch qizga va u koʻzdan gʻoyib boʻlgach, ayyorona koʻz qisib: – Biz esa mister Pip, shu yoʻl bilan yakkama-yakka qolamiz, – dedi.

Do'stona munosabati va g'amxo'rliги uchun unga minnatdorchilik bildirdim, men cholga kolbasa qovurar ekanman va Uemmik unga non kesib, yog' surar ekan, past ovozda suhbatlasha boshladik.

– Shunday qilib, mister Pip, – dedi Uemmik, – biz bir-birimizni tushunamiz. Hozir xususiy shaxslar sifatida suhbatlashyapmiz, maxfiy ishlarni birinchi marta muhokama qilmayapmiz. Xizmat yuzasidan fikr bildirish boshqa narsa. Biz esa siz bilan xizmatda emasmiz.

Fikriga qo'shilishga shoshildim. Shunchalar hayajonlanayotgan edimki, kolbasani mash'alaga o'xshab yondirib yubordim va o'sha zahoti uni puflab o'chirdim.

– Kecha ertalab, – dedi Uemmik, – o'zingizga ma'lum joyda, u yoqqa sizni bir marta olib borgandim, – hatto yuzma-yuz uchrashuvda ham, mister Pip, ismlar va atamalarni aytishdan qochgan yaxshi...

– Ancha yaxshi, – tasdiqladim men, – sizni tushun yapman.

– ...kecha ertalab, – davom ettirdi Uemmik, – o'sha joyda tasodifan eshitib qoldimki, koloniyalarga aloqasi bor va qanchadir ko'char mulkka ega bo'lgan qandaydir odam... aniq kimligini bilmayman... ismini aytmaymiz...

– Kerak ham emas, – dedim men.

– ...dunyoning allaqaysi burchagidan – ko'p odamlar, har doim ham o'z xohish-irodalariga bo'ysunib emas va, asosan, davlat hisobidan... boradigan joydan...

Uning yuziga diqqat bilan qarayman deb kolbasani alangalatib yubordim, oqibatda o'zim ham chalg'idim, Uemmikni ham chalg'itib qo'yib, buning uchun uzr so'radim.

– ...qayerga ketayotganini aytmasdan g'oyib bo'lib, shov-shuvga sababchi bo'lgan emish. Shular asosida, – dedi Uemmik, – turfa xil taxminlar va fikrlar yurganmish.

Yana eshitdimki, sizni va Templdagi uyingizni kuzatishayotgan ekan, ehtimol, hali ham kuzatishayotgandir.

– Kim? – so‘radim men.

– Bu mavzuga tegmaslikni afzal ko‘raman, – dedi Uemmik gapni chetga burib. – Xizmat burchimni unutmashim kerak. Turli paytlarda o‘sha yerda boshqa ko‘p qiziqarli voqealar xususida qanday eshitgan bo‘lsam, bu to‘g‘rida ham shunday xabar topdim. Hech kimdan hech qanday ma‘lumot olganim yo‘q, bu to‘g‘rida faqat eshitdim.

Gapdan to‘xtamagan holda u qo‘limdan kolbasa va sanchqini olib, kichikroq patnis ustiga Qariya uchun nonushta tayyorladi. Lekin Qariyani ovqatlantirishdan oldin yotoqqa kirib, cholning bo‘yniga oppoq toza sochiq bog‘ladi, o‘tirishiga yordam berdi va qalpog‘ini boshining chekkasiga surib qo‘ygandi, Qariya chapani odamlarga o‘xshadi-qoldi. Keyin Uemmik ehtiyotlik bilan otasining oldiga nonushtani qo‘ydi va so‘radi: – Xo‘sh, Qariya, hammasi joyidami? – Chol quvnoq kayfiyat bilan javob qaytardi: – Ajoyib, o‘g‘lim, ajoyib! – Qariyaning ko‘rinishi begona ko‘zlarning tushishi uchun hali tayyor bo‘lmaganidan, hech kimni ko‘rmayapman, deb tasavvur qilish kerak edi, binobarin, o‘zimni hech narsani sezmayotgan qilib ko‘rsatdim. Uemmik oldimga qaytganidan keyin undan so‘radim:

– Meni va uyimni kuzatayotganlari (o‘zim ham bundan shubhalanib yurgandim), siz hozir gapirgan odam bilan bog‘liq, to‘g‘rimi?

Uemmikning yuzi o‘ta jiddiy tus oldi.

– Aniq shunday, deb aytmagan bo‘lardim. To‘g‘rirog‘i, ilgari aytmagan bo‘lardim. Lekin hozir, ha, shunday yoki shunday bo‘ladi, shunga qarab ketyapti, deb ayta olaman.

Litl-Britenga nisbatan qullarcha sadoqat unga aniqroq gapirishga imkon bermayotganini ko‘rib va u shundoq

ham o‘z qoidalaridan anchagina chetga chiqib ketganini minnatdorchilik bilan qayd qilib, boshqa savol berib o‘tirmaslikni lozim topdim. Lekin olov oldida biroz o‘tirgach, yana bitta savol berishga botinmoqchiman, unga javob berish yoki bermaslikni o‘zingiz hal qiling, qaroringizni to‘g‘ri qabul qilaman, dedim. Uemmik nonushta qilishdan to‘xtadi, qo‘llarini qovushtirib, ko‘ylagining yenglarini shimardi (qulay uy sharoitidan to‘la bahra olish uchun u kamzul kiymasdan nonushta qilayotgandi) va savolingizni kutyapman, degandek ishora qildi.

– Asl familiyasi Kompeson bo‘lgan yaramas odam to‘g‘risida biror nima eshitganmisiz?

U yana bosh irg‘ab, javob qaytardi.

– U tirikmi?

Yana tasdiq ishorasi.

– U Londondami?

Uemmik yana bosh irg‘adi, pochta qutisining tirqishini yaxshilab yopdi va yakuniy bosh irg‘ashdan keyin nonushta qilishni davom ettirdi.

– Endi, – dedi Uemmik, – hamonki savollar tugagan ekan – u yaxshilab tushunib olishim uchun bu so‘zlar-ni ta’kidlab, takror aytdi – eshitgan narsalarimdan xabar topganimdan keyin nimalar qilganimni aytib bermoqchiman. Sizni uydan topaman, deb Garden-Kortga bordim; topolmaganimdan keyin mister Gerbertni qidirib Klarriker idorasiga bordim.

– Uni topgandirsiz? – so‘radim men yuragim taka-puka bo‘lib.

– Uni topdim. Ismlarni tilga olmasdan va tafsilotlarsiz unga, agar do‘stingizning uyida yoki unga yaqinroq joyda – aytaylik Tom, Jek yoki Richard borligini bilsangiz, do‘stingizni kutib o‘tirmasdan Tom, Jek yoki Richardni boshqa joyga ko‘chirib turilsa yaxshi bo‘lardi, dedim.

– Hayron bo‘lib, boshi qotib qolgandir?

– Ha, avvaliga boshi qotib qoldi. Tom, Jek yoki Richardni hozir uzoqroqqa olib ketishga harakat qilish xavfli deganimdan keyin umuman boshi qotib qoldi. Quloq soling, mister Pip. Mavjud sharoitda, modomiki o‘sha odam kelib bo‘lgan ekan, katta shaharning o‘zidan yaxshiroq joy yo‘q. Muddatidan avval indan chiqmaslik kerak. Berkinib olish kerak. Hamma yoq tinchiguncha kutish kerak, hatto chet el havosidan nafas olish uchun ham, burunni tashqariga chiqarmay turish kerak.

Unga qimmatli maslahati uchun minnatdorchilik bildirib, Gerbert nima chora ko‘rganini so‘radim.

– Mister Gerbert, – javob berdi Uemmik, – yarim soatcha o‘ziga kelolmay o‘tirdi, keyin bir tadbir o‘ylab topdi. U hech kimga aytmaslik sharti bilan bir yosh qizga uylanmoqchi ekanini, uning yotib qolgan bemor otasi borligini aytdi, bundan siz, shubhasiz, xabardorsiz. Otasi kemada xizmat qilgan ekan, hozir derazaning oldida yotib daryoda yuqoridan pastga harakatlanayotgan kemalarni ko‘rib yotarkan. O‘sha qizni siz tanisangiz kerak?

– Hozircha yo‘q, – deb javob berdim.

Tan olib aytishim kerakki, Klara, Gerbertni ortiqcha xarajatlar qilishga o‘rgatyapti, deb o‘ylab meni unchalik xush ko‘rmasdi; Gerbert qizga ikkalamizni tanishtirishni taklif qilganida, u unchalik xursand bo‘lmagan, do‘stim menga bor gapni aytib bergach, tanishuv kechroq muddatga qoldirilgandi. Gerbertga xufyona yordam bera boshlaganimdan keyin ushbu holatga men falsafiy qarab kelganman; o‘z navbatida, Gerbert ham, qaylig‘i ham, uchrashgan kezlarida uchinchi bir odamning hozir bo‘lishini unchalik istashmasdi; Gerbertning gapiga qaraganda Klaraning men to‘g‘rimdagi fikri sezilarli darajada ijobiy tomonga o‘zgaragan va biz ko‘pdan beri bir-birimizga ta‘zim va salomlar

yo'llayotgan bo'lsak ham hali bir marta ham yuzma-yuz kelmagandik. Aytmoqchi, Uemmikka barcha tafsilotlarni aytib o'tirganim yo'q.

– Ular yashaydigan uy, – davom etdi Uemmik, – darvo bo'yida, London ko'prigidan pastroqda, Laymxaus va Grinvich orasida joylashgan, uning sohibasi, ma'lum bo'lishicha, anchagina hurmatga sazovor beva ayol bo'lib, u yuqori qavatda joylashgan jihozlangan xonalarni ijaraga bermoqchi ekan; mister Gerbert mendan Tom, Jek yoki Richardni vaqtincha o'sha yerga joylashtirsak, nima deysiz, deb so'radi. Men quyidagi uch sababga ko'ra ushbu rejani ma'qullashimni aytdim: birinchidan, shaxsan o'zingiz u joylarning yaqinida ham bo'lmaysiz, odam bosgan katta-yu kichik ko'chalardan ham anchagina narida. Ikkinchidan, o'zingiz u yerga bormay turib, Tom, Jek yoki Richard to'g'risida mister Gerbert orqali ma'lumot olib turishingiz mumkin bo'ladi. Uchinchidan: ma'lum muddat o'tgandan keyin va xavf-xatar bartaraf bo'ldi, degan fikrga kelib, Tom, Jek yoki Richardni xorijiy kemaga o'tkazishni xohlab qolsangiz, marhamat, kema yonginangizda, o'tirib, yo'lga otlanish mumkin.

Ushbu dalillardan ancha ko'nglim tinchib, Uemmikka qayta va qayta rahmat aytdim va davom etishini so'radim.

– Shunday qilib, ser, mister Gerbert ishga g'ayrioddiy ishtiyoq bilan kirishdi va kecha oqshomda, soat to'qqizlarda Tom, Jek yoki Richardni – kimligining bizga qizig'i yo'q – yangi joyga eson-omon ko'chirib qo'ydi. Ilgari yashab turgan joyining egalariga uni Duvrga chaqirib qolishdi, deb aytili, u haqiqatan ham Duvr yo'lidan jo'nab, keyin chetga burildi. Bularning yana bir ijobiy tomoni – bari sizning yo'qligingizda sodir bo'lgani, ya'ni kimdir siz bilan alohida qiziqayotgan bo'lsa, o'sha soatlarda siz Londondan ko'plab chaqirim narida bo'lgan-

siz va butunlay boshqa ishlar bilan shug'ullangansiz. Bu shubha qiluvchilarni chalg'itib, ma'lum darajada murakkab muhit yaratadi; shuning uchun hatto kecha oqshomda qaytgudek bo'lsangiz ham uyingizga bormaslikni maslahat bergandim. Bu yanada ko'proq anglashilmovchilikka sabab bo'ladi, anglashilmovchilik esa sizga qo'l keladi.

Keyin Uemmik nonushtani tamomladi, soatiga qaradi va kamzulini kiya boshladi.

– Shuni ham bilib qo'yingki, mister Pip, – dedi u yengiga qo'l solar ekan, – ko'rinishidan men qo'limdan kelgan hamma ishni qildim; lekin bundan ham ko'proq narsani qila olganimda – men uolvortcha nuqtayi nazardan va faqat xususiy shaxs sifatida gapiryapman – mamnuniyat bilan bajargan bo'lardim. Mana manzil. Bugun oqshomda, uyingizga borishdan avval, u yerga kirib, Tom, Jek yoki Richard yaxshi joylashganiga o'zingiz ishonch hosil qilsangiz, hech bir qo'rqinchli ish so'dir bo'lmaydi, kecha uyingizga borish kerak bo'lmaganining yana bir sababi shunda. Lekin uyingizga qaytgach, qaytib u yerga bormang. Arzimaydi, mister Pip, arzimaydi, – yengidan qo'llari chiqar-chiqmas ularni qizg'in siqib qo'ydim. – Va nihoyat, sizga o'ta muhim bir fikrni aytishga ijozat bering. – U qo'lini yelkamga qo'yib, sirli ohangda dedi:

– Uning ko'char mulkini shu oqshomdayoq qo'lga kiritishga harakat qiling. Uni oldinda nima kutayotganini aytish qiyin. Ko'char mulkni bekorga yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymang.

Bu mavzudagi qarashlarimni Uemmikka tushuntira olishimga zig'irchalik ham ko'zim yetmaganidan, urinib ham o'tirmadim.

– Ketishim kerak, – dedi Uemmik. – Oqshomgacha vaqtigingizni shu yerda o'tkazishni maslahat bergan bo'lardim, albatta, boshqa zarur ishlaringiz bo'lmasa. Ko'rinishingiz ancha horg'in va Qariya bilan xotirjam vaqt o'tkazishingiz

foydadan xoli bo'lmaydi – u tezda o'rnidan turadi – va bir bo'lak... cho'chqacha esingizdami?

– Albatta, – dedim men.

– Unda, bir bo'lak selli cho'chqa go'shti. Siz qovurgan kolbasa ham o'shaning go'shti – xullas, barcha ko'rsatkichlari bilan yuqori sifatli cho'chqacha. Albatta, mazasini ko'ring, eski tanishligimiz hurmati. – Keyin yaxshi kayfiyat bilan qichqirdi: – Xayr, Qariya otam!

– Ajoyib, Jon, ajoyib, bolaginam! – dedi chol eshikning orqasidan.

Tezda tosho'choq oldida uxlab qoldim, keyin kun bo'yi Qariya bilan o'rindiqlarda dam mudrab, dam uyg'onib, bir-birimizga ovunchoq bo'ldik. Tushlikka cho'chqa go'shti bilan o'sha yerda yetishtirilgan sabzavotlardan tanovul qildik, keyin cholga eng yaxshi niyatlar bilan bosh irg'ab o'tirdim, charchab ketganimdagina beixtiyor bu ishni qilmagan bo'lishim mumkin. Qorong' tushgandagina, u yerdan chiqib ketdim; Qariya qoqnon qovurishga tayyorgarlik ko'ra boshlagandi va choy idishlarning soniga, shuningdek, cholning devordagi taxtachalarga tikilib qo'yishiga qaraganda, choyga miss Skiffinsni kutayotganlarini tushundim.

XLVI BOB

Tegirmon hovuz bo'yidagi siyrak, g'alati uylar orasidan old tomoni yog'och, uchala qavatida osma ayvoni borini tanladim; uning eshigiga „Missis Uimpl“, deb yozib qo'yilgandi. Menga aynan shu odam kerak bo'lganidan, eshikni taqillatdim; uni yoshi o'tinqiragan, yoqimtoy va ochiq yuzli ayol ochdi. Aytmoqchi, uning o'rnini o'sha zahoti Gerbert egalladi, – u indamay meni mehmonxonaga boshlab kirib, eshikni qulfladi. O'zini uyidagidek his qilayotgani ko'rinib turgan tanish chehrani ushbu begona joyda ko'rish g'alati edi.

– Hammasi joyida, Gendel, – dedi Gerbert, – u deyarli xursand, faqat seni juda ham ko‘rgisi kelyapti. Mening suyukli qallig‘im hozir otasining oldida, bir lahza sabr qilsang, u keladi va men sizlarni tanishtirib qo‘yaman, keyin yuqoriga chiqamiz... Ha, ha, bu uning otasi (Yuqoridan allaqanday vahimali irillash ovozi keldi va yuzim o‘zgarib ketgan bo‘lsa ehtimol).

– Choli tushmagur qarib quyulmagan shaytonning o‘zginasi bo‘lsa kerak, – dedi Gerbert jilmayib, – lekin uni hech qachon ko‘rmaganman. Rom¹ hidini sezyapsanmi? Ichgani-ichgan.

– Romnimi?

– Ha, – dedi Gerbert, – bod kasali bor odamga buning qanchalar foydasi borligini bir tasavvur qilib ko‘rgin. Buning ustiga u bor oziq-ovqatlarni xonasida saqlaydi va kundaligini o‘lchab beradi. Xonasi baqqolning do‘koniga juda ham o‘xshasa kerak.

U gapini tugatmasdan, irillash davomli o‘kirishga aylandi, keyin o‘chdi.

– Pishloqni o‘zim kesib beraman, deganidan keyin albatta o‘kiradi-da, – dedi Gerbert izoh berib. Hamma a‘zolarida bodi bor odam o‘ziga azob bermasdan o‘ng qo‘li bilan Gloster pishlog‘ini qanday kessin?

Qariya o‘ziga yana yaxshigina azob berdi shekilli, o‘kirik yangi kuch bilan takrorlandi.

– Yuqori qavatni Provisga ijaraga bergani missis Uimpl uchun kam uchraydigan omad bo‘ldi, – dedi Gerbert. – Odatda, ijarachilar bunday shovqindan qochib qoladilar. Bu uy juda g‘alati, to‘g‘rimi Gendel?

Ha, uy g‘alati edi, lekin saranjom va ozoda ham.

¹Rom – shakarqamishdan tayyorlangan o‘tkir spirtli ichimlikning bir turi (tarj.).

– Missis Uimpl – ajoyib uy bekasi, – davom etdi Gerbert fikrimni eshitib bo‘lib. – Uning onalarcha g‘amxo‘rligi bo‘lmaganida Klaram nima qilgan bo‘lardi, bilmadim. Axir Klaraning qari Boyo‘g‘lidan boshqa hech kimi, na onasi va na qarindoshlari bor.

– Nahotki uning ismi Boyo‘g‘li bo‘lsa, Gerbert?

– Yo‘q, yo‘q, men uni shunday deb chaqiraman. Uning ismi – Barli. Ota-onamning gapini hisobga olganda, qarindosh-urug‘i yo‘q, ajdodlarini deb o‘ziga va atrofdagilarga azob bermaydigan qizni sevish baxt emasmi?!

Gerbert Klara Barli bilan, qiz Xemmersmitdagi allaqanday o‘quv yurtini tamomlayotganida tanishganini eslatib o‘tdi; kasal otaga qarash uchun uni uyga chaqirib olganlaridan keyin, yoshlar oqko‘ngil missis Uimplga bor gapni aytib berishgan, o‘shandan beri nozik did sohibasi bo‘lgan beka mehr bilan ularning hissiyotlarini ehtiyotlab, yo‘lga solib kelmoqda edi. Yoshlar, rom, bod va kambag‘allar uchun do‘kondan o‘zga mavzularda fikrlashga qodir bo‘lmagani uchun, qariya Barlini yurak sirlaridan voqif qilmaslikka kelishib olgandilar.

Qariya Barlining to‘xtovsiz o‘kirishi va shiftdagi to‘sinlarning qisirlashiga e‘tibor bermay, shivirlab suhbatlashayotganimizda eshik ochilib, ichkariga qo‘lida savat ko‘tarib olgan, novda qomatli, qora ko‘zli, yigirma yoshlardagi chiroyli qiz kirib keldi. Gerbert shoshib uning qo‘lidan savatni oldi va Klarasini menga tanishtirdi. Qiz chindan ham latofatli edi, uni yovuz odamxo‘r qariya Barli o‘g‘irlab ketib, o‘ziga xizmat qilishga majburlagan oqko‘ngil farishta, deb tasavvur qilish qiyin ish emasdi.

Gerbert ikkimiz va Provis tosho‘choq yonidan joy olganimizdan keyin, Uemmikning gaplari va unga ma‘lumot keladigan manbalarga ishonasizmi, deb Provisga savol berdim.

– Ha, ha, – bolaginam, – javob berdi u jiddiylilik bilan. – Jeggers o‘z ishini yaxshi biladi!

– Shunday qilib, – gapimni davom ettirdim men, – Uemmik bilan gaplashdim va uning ehtiyot choralarini ko‘rish to‘g‘risidagi maslahatlarini sizga yetkazmoqchiman.

Keyin unga, bir narsadan tashqari, bor gapni aytib berdim. Uemmik Nyugeyt qamoqxonasida eshitganlarini (mahbuslardanmi, nazoratchilardanmi – menga noma‘lum), kimdir uning qaytib kelganidan xabar topgani, uyimni kuzatganlarini aytib berdim; Uemmikning ma‘lum muddat „indan chiqmaslik“, ko‘rishmay turishimiz zarurligi, Angliyadan qanday qilib chiqib ketish to‘g‘risidagi qarashlaridan xabardor qildim. Vaqti kelgach, albatta u bilan ketishimni, yoki Uemmikning qaysi yo‘l xavfsizroq ekani to‘g‘risidagi maslahatiga qarab orqasidan borishimni ham aytdim.

Shu paytgacha olovga tikilib, xayol surib o‘tirgan Gerbert, Uemmikning taklifini o‘ylay turib, unda bizlar bilan o‘rtoqlashsa arziydigan bir fikr tug‘ilganini aytib qoldi.

– Gendel, ikkalamiz ham eshkakdan yaxshi foydalanishni bilamiz, vaqti kelganda mister Provisni Londondan daryoning quyi oqimiga qarab o‘zimiz olib chiqib ketsak bo‘ladi. Bu bizga ortiqcha shubhalardan xoli bo‘lish imkonini beradi, mavjud barcha imkoniyatlarni hisobga olishimiz kerak. Hozir qish bo‘lsa ham, hechqisi yo‘q; hoziroq qayiq topib, Templ zinasi yonida saqlashing va daryo bo‘ylab yuqoridan pastga suzib yurishing mumkin. Har kuni mashq qilsang, tezda hamma bunga o‘rganib qoladi va odamlarning e‘tiborini tortmay qo‘yasan. Yigirma yoki ellik marta suzganingdan keyin, yigirma birinchi yoki ellik birinchi marta yana shu ishni qilayotganingni ko‘rib hech kim hayron bo‘lib o‘tirmaydi.

Reja menga yoqdi, Provis-ku judayam xursand bo‘lib

ketdi. Biz uni amalga oshirishga qaror qildik, Tegirmon hovuz yonidan suzib o'tadigan bo'lsak, Provis bizni tani-maganga oladigan bo'ldi. Lekin, bundan tashqari, har sa-far bizning suzib o'tayotganimizni ko'rganida, „Hammasi yaxshi“ demoqchi bo'lsa, sharq tomonga qaragan deraza darpardasini tushirib qo'yishiga kelishib oldik.

Pastda Gerbertdan mahbusimiz Provis familiyasida qolaveradimi, deb so'radim. Yo'q, albatta, dedi u, yangi qo'shning familiyasi mister Kembl. Do'stim yana shuni aytdiki, uyda yashovchilar Kembl haqida faqat bir nar-sani bilishadi: uni Gerbertga ishonib topshirishgan, yangi ko'chib kelgan odam hech nimaga zoriqmay va hech kim-ga qo'shilmay yashashi kerak.

Keyingi kuni o'zimga qayiq topgani jo'nab ketdim. Bu ish ko'p vaqt talab qilmadi, qayiqni uyimdan ikki daqiqa-lik joyga, Templ zinasiga yetkazib berishdi. Shundan ke-yin eshkak eshishni ba'zan o'zim, ba'zida Gerbert bilan mashq qila boshladim. Sovuq, shamol va yomg'irlarga ahamiyat bermay, ko'pincha daryoga chiqadigan bo'ldim va bir necha kundan keyin hech kim menga ahamiyat ber-may qo'ydi. Avvaliga Blekfrayer ko'prigidan yuqoriroqda suzib yurdim, lekin keyinroq, ayniqsa, suv ko'tariladigan vaqtning o'zgarishi bilan London ko'prigigacha boradigan bo'ldim. Gap o'sha yomon nom chiqargan eski London ko'prigi to'g'risida boryapti, kunning ba'zi paytlarida suv bu yerdan girdoblar va o'ramalar paydo qilib shiddat bilan oqib o'tardi. Ammo boshqa qayiqchilarga razm solib turib xavfli joylardan o'tib ketishni o'rganib oldim, shundan ke-yin ko'p sonli kemalar va qayiqlar orasidan o'tib, tez-tez Eritgacha ham borib keladigan bo'ldim. Tegirmon hovuz qarshisidan birinchi marta Gerbert bilan o'tdim va keta-yotganimizda ham, qaytayotganimizda ham sharqiy dera-zaning darpardasi ikki marta ochib-yopilganini ko'rdik.

XLVIII BOB

Izvosh yollab, Jeggers va Uemmik uchalamiz Jerard-Stritga yo‘l oldik; yetib borishimiz bilan ovqat tortildi. Turgan gapki, bu uyda Uemmikning Uolvortdagi hissiyotlariga hatto uzoqdan bo‘lsa ham, qoshimni sal ko‘tarib bo‘lsa ham ishora qilishni xayolimga keltirmayotgandim; lekin vaqti-vaqti bilan do‘stona ko‘z urishtirib qo‘yishga qarshi emasdim. Ammo buning sira iloji bo‘lmadi! U boshini faqat mister Jeggersga qarash uchun ovqatdan ko‘tarar, qarshimda go‘yo boshqa, men bilgan Uemmikning qarama-qarshi egizagi o‘tirgandek, men bilan o‘ta quruq va sovuq muomala qilardi.

– Mister Pipga miss Xevishemdan kelgan xatni jo‘natdingizmi? – so‘radi undan mister Jeggers biz hali dasturxon atrofida joylashib ulgurmasdan.

– Yo‘q, ser, javob qildi Uemmik. – Mister Pip bilan idoraga kelganingizda xatni pochta bilan jo‘natmoqchi bo‘lib turgandim. Mana o‘sha xat. – Keyin u xatni menga emas, xo‘jayiniga uzatdi.

– Bu yerda ikki qatorgina yozuv bor, Pip, – dedi mister Jeggers xatni menga berar ekan. – Miss Xevishem manzilingizni aniq bilmaganidan, xat Litl-Britenga jo‘natilgan. Xonim siz aytgan bir ish bo‘yicha o‘zingizni ko‘rmoqchi ekanini yozgan. Borasizmi?

– Ha, – dedim men u mazmunini aniq bayon qilgan xatga ko‘z yugurtirar ekanman.

– Qachon bormoqchisiz?

– Bir ishga juda bog‘liqman, – dedim men og‘zini baliqqa to‘ldirib olgan Uemmikka qarab, – vaqtim ham un-aqa ko‘p emas. Mayli, zudlik bilan yo‘lga chiqaman.

– Modomiki, mister Pip zudlik bilan yo‘lga chiqish niyatida ekan, – dedi Uemmik mister Jeggersga qarab, – javob yozib o‘tirmasa ham bo‘ladi.

Bu soʻzlardan, paysalga solish kerak emas, degan buyruqni tushunib, ertasiga joʻnab ketishimni ularga ayt-dim. Uemmik bir qadah musallas ichib menga emas, yana mister Jeggersga qaradi.

Oʻsha lahzada oqsoch ayol Molli Jeggersning yoni-da turib, dasturxonga qandaydir taomni qoʻyayotgan edi. Taomni ehtiyotkorlik bilan qoʻyib boʻlgach, u orqaga che-kindi va tortinib, nimadir deyish bilan oʻzini oqlamoqchi boʻldi. Shunda barmoqlarining harakatini koʻrib, hayrat-dan qotib qoldim.

Jeggers unga ruxsat berdi va ayol xonadan tovushsiz chiqib ketdi. Lekin mening nazarimda u hali ketmagan-dek edi va koʻz oʻngimda aniq gavdalanardi. Men uning qoʻllariga, koʻzlariga, qalin sochlariga qarab turardim; ularning yonida oʻzim juda yaxshi bilgan boshqa qoʻllar-ni, boshqa koʻzlarni, boshqa sochlarni koʻrayotgan ham-da shafqatsiz er bilan yigirma yil yashagandan keyin ular qanday koʻrinishlarini tasavvur qilishga urinayotgandim. Va yana oqsoch ayolning qoʻllari va koʻzlariga qarar ekanman, oxirgi marta, Estella hamrohligida tashlandiq bogʻ va vayrona pivoxona ichida daydib yurganimda, meni qamrab olgan oʻsha tushuntirib boʻlmaydigan his-siyotni esladim. Shu hissiyotning aynan oʻzini dilijondan menga tikilib turgan koʻzlar va oʻziga imlayotgan qoʻlni koʻrganimda boshimdan oʻtkazganimni; yana izvoshda qiz bilan qorongʻi koʻchada ketayotganimda birdaniga fonusning yorugʻ nurlari tushganida, oʻsha hissiyotning oʻzi meni yashin misol qamrab olganini ham esladim. Estellaning ismi tilga olinganida toʻqiyotgandek harakat qilayotgan barmoqlarni va diqqat bilan nazar solayotgan koʻzlarni koʻrgach, xotiramdagi ana shunday boʻshliqning oʻrni toʻlganini tushundim. Va menda, bu ayol – Estel-laning onasi, degan chuqur ishonch paydo boʻldi.

– Uemmik, – dedim unga ikkimiz tashqariga chiqqach, – mister Jeggersnikiga birinchi marta mehmonga borishimdan avval uning oqsochiga e'tibor qaratishimni maslahat berganingiz esingizdami?

– Shunday qilganmidim? – dedi u. – Bo'lishi mumkin. E jin ursin, albatta esimda! Qulfim hali to'la yechilmabdi.

– Bo'ysundirilgan yo'lbars – uni shunday ataganmidingiz?

– Siz uni qanday atagan bo'lardingiz?

– Xuddi siz kabi. Ayting-chi, Uemmik, mister Jeggers uni qanday qilib bo'ysundirgan?

– Bu uning siri. Ayol unikida ko'p yildan beri yashaydi.

– Menga uning tarixini aytib bering! Qiziqishimning alohida sabablari bor. Oramizda aytiladigan narsa hech qayoqqa ketmasligini yaxshi bilasiz-ku axir.

– Umuman olganda, uning tarixini bilmayman, – javob berdi Uemmik, – to'g'rirog'i, juda oz narsa bilaman. Lekin bilganlarimni sizga aytib beraman. Turgan gapki, siz bilan hozir faqat xususiy shaxslar sifatida suhbatlashyapmiz.

– Albatta.

– Yigirma yilcha avval bu ayolni Old-Beylida qotillikda ayblab sud qilishgan, sud uni oqlagan. Yoshligida u sohibjamol edi, menimcha, unda lo'lilarning qoni bor. Nima bo'lganda ham o'zingiz yaxshi tushunasiz, o'sha paytlarda uning qoni yetarli darajada qaynoq bo'lgan.

– Lekin, uni oqlashibdi-ku?

– Mister Jeggers uni himoya qilgan, – davom etdi Uemmik menga ma'noli nazar tashlab, – va hammani hayratga solib, bu ishni olib borgan. Ish qo'l siltab ketiladiganga o'xshardi, unda hali tajriba ham yo'q edi, lekin shunchalar ustalik bilan vaziyatdan chiqib ketdiki, hamma qoyil

qoldi: aynan o‘shanda u o‘ziga obro‘ orttirib olgandi, desak ham bo‘ladi. U, ishni umuman to‘xtatirmoqchi bo‘lib, politsiya mahkamasida kunlab qolib ketardi; sud majlislarida bo‘lsa o‘zi so‘zga chiqa olmagan taqdirda, advokatdan bir qadam ham nari ketmasdi, advokat esa boshdan oxirgacha uning ko‘rsatmasi bilan gapirardi – bu hammaga ayon edi. Qotillik jarayonida bu ayoldan o‘n yoshlar chamasi kattaroq, bo‘yi ham uzunroq va suyaklari yo‘g‘onroq boshqa bir ayol rashk oqibatida o‘ldirilgandi. Ikkala ayol ham daydilik bilan shug‘ullanganlar, mister Jeggersnikida yashayotgani, hali juda yoshligida allaqanday daydiga erga tekkan, odamlar aytmoqchi, bir piyola suv bilan nikohlab qo‘yilgan va shaytondek qizg‘anchiq bo‘lgan. O‘ldirilgan ayolni (yoshiga qaraganda albatta u anavi odamga mosroq bo‘lgan) Xaunslou-Xis yaqinidagi somonxonadan topganlar. U rosa kaltaklanib, tirnab tashlangan, keyin esa bo‘g‘ib o‘ldirganlar. Gumon qilinishi mumkin bo‘lgan yagona odam, ana shu ayol bo‘lgan va mister Jeggers, bu ayol jismonan bunday qotillikni amalga oshirishga qodir emas, degan dalilni himoyaga asos qilib olgan. Menga ishonavering, – dedi Uemmik yengimdan tortib, – u paytlarda Jeggers, ayolning qo‘llari qanchalar kuchli ekanini umuman tilga olmagan, hozir esa boshqa gap.

(Uemmikka Jeggers bizni mehmonga chaqirganida xizmatkor ayolni qo‘llarini ko‘rsatishga majbur qilganini aytib berdim.)

– Aytmoqchi, ser, – davom etdi Uemmik, – bilasizmi yana nima bo‘ldi, – tasodifan albatta, – qamoqqa olingan kunidan boshlab o‘sha ayol shunchalar ustalik bilan ki-yintirilganki, chindan ham aslidagiga qaraganda nozikroq, kuchsizroq ayolga o‘xshab qolgan; odamlarning aytishicha, ayniqsa ko‘ylagining yenglari shunday turganki, qo‘llarini

o'ta ingichka va zaif ko'rsatgan. Badanida bir-ikkita ko'kargan joyi bo'lgan – qaysi ayolda bo'lmaydi deysiz! – lekin qo'llarining orqa tomonida qattiq tirnab tashlangan joylari qayd qilingan va: ular tirnoq izlarimi yoki yo'qmi, degan savol tug'ilgan. Shunda, mister Jeggars, ayol qora tikan butalari orasidan o'tib kelganini, butalar uning yuz qismiga zarar yetkazmay, faqat qo'llarini tirnab tashlaganini isbotlagan; chindan ham ayolning badanidan bir nechta zirapcha topganlar va ular sudga daliliy ashyo sifatida topshirilgan, butalarni ko'zdan kechirganlarida ham u o'tib kelgan joyda ular sinib yotganini ko'rganlar, ayol kiygan ko'ylak parchalari va qon dog'larini topganlar. Lekin qo'rqmasdan ilgari surilgan dalil quyidagicha bo'lgan: ayolning rashkchi ekanini isbotlash maqsadida anchagina asosli shubhani ilgari surganlar, emishki, qotillik sodir etilgan fursatlarda bu ayol, eridan qasos olish uchun butunlay esini yo'qotib, uch yoshli farzandini ham bo'g'ib o'ldirganmish. Mister Jeggars himoyani quyidagicha davom ettirgan: „Biz bular tirnoq izlari emas, tikanak izlari deyapmiz va tikanaklarni sizga ko'rsatyapmiz. Siz bular tirnoq izlari, deb turib olyapsiz va ayni paytda, ayol, go'yo uch yoshlik farzandini o'ldirgan, degan taxmini ilgari suryapsiz. Lekin agar shunday bo'lsa, siz mazkur taxmindan barcha xulosalarni chiqarib olishingiz kerak. U farzandini chindan ham nobud qilgan va go'dak, onasiga yopishib, qo'llarini tirnab olgan, deb faraz qilaylik. Xo'sh, nima bo'libdi? Axir siz uni bolasini o'ldirgani uchun sud qilmayapsiz-ku, lekin shunday qilishingiz mumkin edi. Ko'rilayotgan ishga kelsak, siz bular tirnoq izlari, deb turib olayotgan ekansiz, bunga izoh ham topib qo'ygandirsiz, bilaks, hodisani sharhlash uchun ularni o'zingiz to'qib chiqargan bo'lasiz“ Xullas, ser, – dedi Uemmik, – mister Jeggars sud maslahatchilari miyalarini oxirigacha chalg'itib qo'ya oldi va sud ayolni begunoh, deb topdi.

– O‘shandan beri u Jeggersnikida xizmat qiladimi?

– Ha. Lekin bu hali hammasi emas, – dedi Uemmik, – ayol o‘zini oqlashlari bilan uning uyida, hozir qanday bo‘lsa shunday, ya‘ni bo‘ysundirilgan, itoatkor bo‘lib xizmat qila boshladi. O‘shandan beri u xizmat vazifasi talab qiladigan ayrim narsalarni o‘rgandi, lekin boshidanoq bo‘ysundirilgan edi.

– Bolasi o‘g‘ilmi, qizmi, esingizda yo‘qmi?

– Qiz deyishgandi.

– Bugun menga aytadigan boshqa gaplaringiz yo‘qmi?

– Yo‘q. Xatingizni oldim va yo‘q qildim. Boshqa hech gap yo‘q.

Biz yaqin do‘stlardek xayrlashdik va men yangi tashvishlar va xayollarning yuki ostida, eskilaridan aslo xalos bo‘lmaganim holda, uyga qaytdim.

XLIX BOB

Bunchalar tez kelganimdan miss Xevishem hayron bo‘lsa ko‘rsataman, degan xayolda, uning fe‘l-atvoridan hamma narsani kutsa bo‘lardi, xatni o‘zim bilan olib, ertalabki dilijonda Satis Xauzga yo‘l oldim.

Ilgarilari ham bo‘lganidek, kirib, xonim boshini ko‘tarsa, menga ko‘zi tushadigan qilib, kaminning yonidan joy oldim. U ko‘zimga shunchalar g‘arib ko‘rinib ketdiki, undan o‘pkalab yurishimga sababchi bo‘lgan alamdand ham achchiqrog‘iga meni duchor qilgan taqdirida ham, rahmim kelgan bo‘lardi. Men ham ushbu mudhish uyning bir bo‘lak vayronasiga aylanib qoldim, degan xayolda xonimga qarab turar ekanman, birdaniga uning nazari menga tushib qoldi. Xonim cho‘chib tushdi va:

– Bu tush emasmi? – dedi.

– Bu men, Pipman. Mister Jeggers kecha xatingizni bergandi, darrov yetib keldim.

– Minnatdorman. Minnatdorman.

Xuddi shunaqa uvadasi chiqib ketgan ikkinchi kresloni olovga yaqin surib, unga o‘tirdim va yuzida yangi, mendan hadiksirayotganga o‘xshagan ifoda ko‘rdim.

– Bu yerda oxirgi marta bo‘lganingda sen tilga olgan mavzuga qaytmoqchiman va yuragim har holda toshdan emasligini ko‘rsatmoqchiman. Lekin, sen, ehtimol, menda insoniylikdan nimadir saqlanib qolganiga endi ishonmay qo‘ygandirsan?

Uni xotirjam qilish uchun nimalardir degan bo‘ldim, shunda xonim menga tekkizishni xohlayotgandek qaltirayotgan qo‘lini ilgari cho‘zdi; uning niyatini tushunib, nima qilarimni o‘ylagunimcha, yana tez orqaga tortib oldi.

– Do‘sting uchun iltimos qilganingda, foydali, yaxshi ish qilishni sizga o‘rgata olaman deganding. O‘sha ishni amalga oshirishni xohlagan bo‘larmiding?

– Juda, juda xohlagan bo‘lardim.

– U qanday ish ekan?

Men ilgarilari ham sezib yurgandek, chehrasida qat‘iyat ifodasi bilan u qo‘lini hassaga tirab, diqqat bilan quloq solishga jazm qilib, olovga tikildi. Unga o‘z mablag‘larim hisobidan Gerbert uchun ulush to‘lamoqchi bo‘lganimni, lekin endi bu ishni uddasidan chiqolmasligimni hikoya qilib berdim. Va o‘sha zahoti qiyinchiliklarimning sababini unga aytib berolmasligimni, negaki bu boshqa bir odamning asrori bilan bog‘liq ekanini tushuntirdim.

– Xo‘sh, – dedi miss Xevishem, bosh chayqab. – To‘liq bo‘lishi uchun qancha pul yetmayapti?

Raqam juda katta ko‘ringanidan qo‘rqib uni aytishga qiynaldim.

– To‘qqiz yuz funt.

Tez orada u o‘rnidan turib, qalam va qog‘oz qidirib,

jonsiz xonaga ko‘z tashlab ko‘rdi. Lekin ulardan u yerda asar ham yo‘q edi, shunda xonim cho‘ntagidan chetiga oltin hal berilgan sarg‘ish tashrif qog‘ozlarini oldi va bo‘ynidagi xiralashib qolgan oltin g‘ilofdagi qalamcha bilan ulardan biriga yoza boshladi.

– Mister Jeggers bilan munosabating hali ham yaxshimi?

– Ha, albatta. Kechagina unikida ovqatlan dim.

– Mana topshiriq, uni olgach, mister Jeggers do‘stingga sarflay olishing uchun senga pul beradi. Bu yerda men pul saqlamayman; lekin mister Jeggers bilmasligini afzal ko‘rsang, pullarni o‘zim senga jo‘natishim mumkin.

– Tashakkur, miss Xevishem, pullarni uning idorasidan olganim menga juda qulay bo‘ladi.

U yozganlarini menga o‘qib berdi; ko‘rsatma aniq, tushunarli va shunday mazmunda ediki, pullarni o‘zi uchun ishlatib yuboradi, degan shubhaga aslo o‘rin qoldirmasdi. Xonim titroq qo‘llari bilan qog‘ozchalarni menga uzatdi; u bo‘ynidagi qalamcha ilingan zanjirni ham olib menga uzatayotganida qo‘llarining titrashi kuchaygandi. Bu orada u biror marta ham menga qaramadi.

– Eng ustidagi qog‘ozchaga ismim yozilgan. Qachonlardir, aytaylik singan qalbim kulga aylangach, oradan juda ko‘p vaqt o‘tganidan keyin, ismimning tagiga „Uni kechirdim“, deb yoza olsang, shu ishni qilishingni so‘rayman.

– Oh, miss Xevishem, – dedim unga, – bu ishni hozirning o‘zida amalga oshirishga ham tayyorman. Hammamiz ham juda og‘ir xatolarga yo‘l qo‘yamiz. O‘zim ko‘rlik qilganman, yaxshilikni bilmaganman, o‘zim kechirishlariga va yaxshi maslahatga muhtojman, sizdan xafa bo‘lishga haqqim yo‘q.

U endi menga qaradi va meni hayratga solib, meni dahshatga solib, oldimda tiz cho‘kib, qo‘llarini men tomon-

ga choʻzdi, ehtimol, hali yoshligida onasi ibodat qilishni oʻrgatgan va qalbi hali yaralanmagan kezlarida, qoʻllarini koʻkka shunday choʻzgandir.

Sochlari oqarib, qiyofasi adoyi tamom boʻlgan miss Xevishemni oyoqlarim ostida koʻrib, ich-ichimdan iztirobga tushdim. Oʻrningizdan turing, deb unga yolvora boshladim, yordam berish uchun qoʻllarim bilan uni ushladim; lekin xonim qoʻlimni ushlab olib unga yuzini bosdi-da, yigʻlab yubordi. Ilgarilari sira ham uning koʻzlarida yosh koʻrmagandim, zora ulardan yengil tortsa degan umidda, unga engashdim. Tiz choʻkib turgan miss Xevishem yerga holsiz yotib oldi.

– Oh! – deb hayqirdi u tushkunlikka tushib. – Nima qilib qoʻydim! Nima qilib qoʻydim!

– Agar siz, miss Xevishem, menga qanday yomonlik qilib qoʻyganingizni oʻylayotgan boʻlsangiz, sizga aytishim mumkin: juda kichkina yomonlik. Men hech nar-saga qaramay uni sevib qolgan boʻlardim... U turmushga chiqib boʻldimi?

– Ha!

– Bu savolni berib oʻtirmasam ham boʻlardi – huvillab yotgan uydagi yangi – boʻshliq hissiyotidan buni darhol tushunib olgandim.

– Nima qilib qoʻydim! Nima qilib qoʻydim! – U qoʻllarini qayirar, sochlarini ushlar va takror va takror: – Nima qilib qoʻydim! – degan faryod ichi-ichidan otilib chiqmoq-daydi. – Oʻtgan safar u bilan gaplashmaguningcha, bir zamonlar boshimdan oʻtkazganlarimni koʻzgudek senda koʻrmagunimcha nimalar qilib qoʻyganimni bilmagan edim. Nima qilib qoʻydim!

U „Nima qilib qoʻydim“ni yigirma, ellik, sanoqsiz mar-ta takrorladi!

– Miss Xevishem, – dedim u jim boʻlib qolgandan ke-

yin. – Meni deb vijdongingiz sizni qiynamay qo‘ya qolsin. Lekin Estella – boshqa gap; agar uning qalbini toshga aylantirib yetkazgan aziyatingizni ozgina bo‘lsa ham to‘g‘rilay olishga qodir bo‘lsangiz, o‘tmishdagi voqealarga abadiy aza tutish o‘rniga hozir shu ishni qilishingiz kerak.

– Ha, ha, buni bilaman. Lekin, Pip, azizim! – Erkalab aytilgan ushbu g‘ayrioddiy so‘zlarda ayollarga xos chuqur hamdardlik bordek edi. – Azizim, bolajonim! Menga ishon: dastavval, u uyimga kelib qolganida boshimga tushgan og‘ir musibatdan uni himoya qilmoqchi bo‘ldim. Avval-boshida boshqa hech narsani xohlamagandim.

– Nachora, – dedim men, – bo‘lishi mumkin.

– Lekin u voyaga yetgani va kundan kunga jozibali bo‘lib borgani sari, yomon ishga qo‘l urdim: uni ortiqcha maqtaydigan, hadyalar beradigan, o‘rgatadigan bo‘ldim, aqlini, qalbini o‘g‘irlab, o‘rniga bir parcha muz solib qo‘ydim.

– Uning tirik qalbiga tegish kerak emasdi, – dedim o‘zimni tiya olmay, – hatto o‘sha qalb singan yoki qonga belangan taqdirda ham.

Miss Xevishem bir daqiqacha menga telbalardek qarab turdi, keyin yana „Nima qilib qo‘ydim!“ boshlandi.

– Agar butun hayotimni bilganingda edi, – dedi u ingrab, – meni yaxshiroq tushungan, achingan bo‘larding.

– Miss Xevishem, – dedim iloji boricha yumshoqroq qilib, – hayotingizni bilaman, bu yerlardan birinchi marta jo‘nab ketgan paytimdan bilaman. Boshingizga tushgan musibatlar samimiy hamdardlik uyg‘otdi, ular sizga qanchalik ta‘sir ko‘rsatganini tushundim degan umiddaman. Oramizda bo‘lib o‘tgan voqealar Estella to‘g‘risida sizdan birgina savol so‘rash huquqini berarmikan menga? Hozirgi Estella emas, bu yerga birinchi marta kelib qolgan paytdagi Estella to‘g‘risida?

Beka yerda, ikki tirsagini uvadasi chiqib yotgan o‘rindiqqa tirab, boshini qo‘llari tomon egib o‘tirardi. Savolimni eshitib, u ko‘zlarimga tikildi va:

– So‘ra, – deb javob qaytardi.

– Estellaning ota-onasi kim?

Miss Xevishem bosh chayqadi.

– Ularni bilmaysizmi?

U yana bosh chayqadi.

– Bilmaysizmi?

U boshini chayqadi.

– Lekin uni misters Jegggers bu yerga olib kelgan yoki yuborgan, to‘g‘rimi?

– Olib kelgandi.

– Bu qanday ro‘y bergandi, aytib bering.

Xonim atrofga olazarak qarab, shivirlab gapira boshladi:

– Ushbu xonalardan chiqmay yashay boshlaganimga ancha vaqt bo‘lganida (qanchaligini aniq ayta olmayman – bu yerdagi soatlar nechada to‘xtab qolganini bilasan-ku), unga go‘dak qizchani tarbiya qilmoqchiligimni, uni ardoqlashni va mening ahvolimga tushib qolishidan asrab qolmoqchi ekanimni aytdim. U haqda avvalroq gazetalarda o‘qigandim, o‘zini esa birinchi marta iltimosimga ko‘ra uyni hozirgi ahvolga solish uchun kelganida ko‘rganman. U yetim qizchani qidirib ko‘rishini va‘da qildi. Kunlarning birida uni, uxlab yotgan holida bu yerga olib keldi, unga Estella deb ism qo‘ydim.

– O‘shanda u necha yoshda edi?

– Ikki yo uch yoshda. Uning o‘zi yetim qolganini va men uni qiz qilib olganimni biladi, xolos.

Jegggersnikidagi ayol uning onasi ekaniga shundoq ham shubha qilmayotgandim va hech qanday dalillarga ehtiyoj yo‘q edi. Lekin bu yerda, hamma uchun ravshan bo‘lib turgan bog‘liqlik bordek edi.

Tashrifimni cho‘zishga bahona qolmagandi. Gerbertning ishini hal qildim, miss Xevishem Estella to‘g‘risida bilganlarining hammasini aytib berdi, men esa xonimning vijdon azobini yengillashtirish uchun qo‘limdan kelgan hamma narsani aytib va qilib bo‘ldim. Xayrlasha turib bir-birimizga nimalar deganimizning ahamiyati yo‘q; lekin biz xayrlashdik.

Hovli sahniga chiqib, ko‘cha eshikni ochib berishi uchun oqsoch ayolni chaqirsammikan yoki yana bir marta yuqoriga ko‘tarilib, yo‘qligimda miss Xevishemga hech narsa bo‘lmaganiga ishonch hosil qilib, keyin ketsammikan, degan o‘yda ikkilanib turib qoldim. Ikkinchisini tanlab, zinadan ko‘tarila boshladim.

U bilan xayrlashgan xonaga nazar solib, xonim uvadasi chiqib yotgan o‘rindig‘ida, kaminning yonginasida o‘tirganiga guvoh bo‘ldim. Bildirmay ketish uchun sekin eshikni yopayotganimda ko‘z oldimda yorug‘ alanga paydo bo‘ldi va o‘sha zahoti boshdan oyoq alanga ichida qolgan miss Xevishemning men tomonga dahshatli hayqiriq bilan yugurib kelayotganini ko‘rdim.

Ustimda ikki qavatli shinel, yelkamdaplash bor edi. Ularni ustimdan yulib olib, u tomon chopdim, polga ag‘darib, kiyimlarimni ustiga yopdim; yopish uchun stol ustidan bahaybat dasturxonni, u bilan birga chirindilar to‘plami va uning ichidagi gazandalarni ham tortib oldim; biz yovuz raqiblardek bir-birimizga yopishib yerda yotardik, uni qancha ko‘p o‘rasam, u yanada kuchliroq faryod solar va xalos bo‘lishga urinardi, – bularning hammasini men keyinroq esladim; o‘sha daqiqalarda hech nimani o‘ylamayotgan, sezmayotgan, bilmayotgandim. Asta-sekinlik bilan yerda yotganimizni, tutun qoplagan xonada uvadalar uchib yurganini payqadim.

Xonimni ko‘rib bo‘lib, shifokor kuygan joylar jiddiy, lekin hayot uchun xavfsiz, kattaroq xatar – asablar qa-

shashida ekanini aytdi. Doktorning ko'rsatmasi bilan xonim uchun shu xonaning o'zida, yaralarni bog'lashga eng qulay yer – katta stol ustiga joy qildilar. Bir soatlardan keyin uni yana ko'rganimda, miss Xevishem bir paytlar hassasi bilan vaqti kelib yotqizadilar, deb urgan joyda yotgandi.

Xizmatkorlardan Estellaning Parijda ekanini bildim, iltimosimga ko'ra, doktor unga tezlik bilan xat yuboradigan bo'ldi. Miss Xevishemning qarindoshlariga xabar qilishni o'z zimmamga oldim va Metyu Poketga bo'lib o'tgan voqeani aytishga, qolganlarga aytish-aytmaslikni uning ixtiyoriga tashlashga qaror qildim. Londonga kelgan kunimning ertasiga Gerbert orqali rejamni amalga oshirdim.

L BOB

Tuni bilan ikki marta qo'llarimni qayta bog'lashdi, uchinchi marta ertalab bog'ichlarni almashtirishdi. Chap qo'lim tirsagimgacha qattiq va yelkamgacha o'rtacharoq kuygandi; u juda qattiq og'riyotgandi, olov o'sha tomonda ko'proq bo'lganidan, tag'in ham omadim bor ekan, deb hisoblayotgandim. O'ng qo'limda kuygan joylar kamroq bo'lib, hatto barmoqlarimni qimirlata olardim.

Bir kuni oqshomga yaqin, Gerbert kunduzgi yorug'likka qaraganda ko'proq alanganing yog'dusidan foydalanib bog'ichlarimni almashtirayotganda, birdaniga nimanidir eslab qoldi.

– Kecha kechki payt Provisning oldida ikki soatcha o'tirib qoldim, Gendel. U gapga tushib ketib, hayoti to'g'risida yana ayrim narsalarni aytib berdi. Esingdami u allaqanday ayol bilan qiynalib yashaganini ayta turib, jim bo'lib qolgandi... og'ritdimmi?

Seskanib ketdim, lekin uning qo'l tekkizishidan emas, so'zlaridan seskanib ketgandim.

– Yodimdan ko'tarilibdi, Gerbert, lekin endi esladim.

– Xullas, quloq sol. U hayotining o‘sha davri, u qanchalar mudhish, qanchalar dahshatli davr bo‘lgani to‘g‘risida gapirdi! Senga aytib beraymi? Yoki bu hozir seni qattiq hayajonga solib qo‘yadimi?

– Albatta gapirib ber. Hammasini, so‘zma-so‘z aytib ber.

Gerbert engashdi, bunchalar toqatsizlanayotganimning sababini bilmoqchi bo‘layotgandek menga diqqat bilan tikildi.

– Issig‘ing yo‘qmi? – so‘radi u kaftini peshonamga qo‘yib.

– Yo‘q, – dedim men. – Gerbert, azizim, Provis senga nima deganini aytib ber.

– U aytdiki, – dedi Gerbert, – ...ko‘rdingmi, bog‘ich shundoqqina ko‘chib tushdi, endi yangisini, soviganini qo‘yamiz... Xo‘sh, azizim, boshida seskanasan-a? Hechqisi yo‘q, o‘tib ketadi hozir... U o‘sha ayol yosh, juda rashkchi va qasoskor bo‘lgan, dedi. Chegarasi yo‘q darajada, Gendel.

– Chegara deganingda nimani nazarda tutyapsan?

– Qotillikni... Voy, nahotki og‘riqli joyingga tegib ketgan bo‘lsam? Judayam achishyaptimi?

– Yo‘q, bilinmayapti. Qanday o‘ldiribdi? Kimni o‘ldiribdi?

– Bilasanmi, balki, u qilgan ishni anglatish uchun bu o‘ta qo‘rqinchli so‘zdir, – dedi Gerbert, – lekin o‘sha ayolni qotillik uchun mahkamaga tortganlar, mister Jeggers uni himoya qilgan, muvaffaqiyat bilan himoya qilgan, aynan o‘shanda Provis uning ismini birinchi marta eshitgan. Qurbon boshqa bir ayol bo‘lgan, u birinchi ayoldan ancha baquvvat bo‘lgan, ular allaqanday omborxonada hayot-mamot jangiga chiqqanlar. Kim boshlagan, olishuv halol kechganmi-yo‘qmi – buni hech kim bilmaydi, le-

kin uning natijasini hamma yaxshi biladi: qurbon ayolni bo'g'ib o'ldirilgan holatda topganlar.

– O'sha ayolni qamaganlarmi?

– Yo'q, oqlaganlar... Bechora Gendelim, yana og'ritdimmi?

– Hecham og'rimadi, Gerbert. Xo'sh? Keyin-chi?

– O'sha oqlangan ayolning Provisdan bolasi bo'lgan va Provis uni juda-juda yaxshi ko'rgan. Raqibi bo'g'ib o'ldirilgan oqshomda ayol Provisning oldiga kelgan va bolani o'ldirishini (u uni qayerdadir saqlagan), Provis uni hech qachon ko'rolmasligini aytgan va o'sha zahoti g'oyib bo'lgan... Mana, eng qiyin qo'lni tamomladik, endi o'ng qo'l qoldi xolos, unisi hech gap emas. Yaxshisi hozircha fonusni yoqmay turaman, kaminning o'zi yetadi. Yaralarini ko'rmasam, qo'llarim dadilroq harakat qiladi... Lekin, azizim, seni bezgak tutyapti. Negadir tez-tez nafas olyapsan.

– Ehtimol, Gerbert. Xo'sh, shunday qilib, o'sha ayol aytganini qilibdimi?

– Aynan ana shu – Provis hayotidagi eng dahshatli narsa. Ha, u aytganini qilgan.

– Ya'ni Provis shunday deyapti.

– Ha, albatta, azizim, – dedi hayron bo'lib Gerbert va yana menga tikildi. – Hammasi uning so'zlari. Menda boshqa ma'lumotlar yo'q.

– Ha, bunga ishonish uchun yetarli ma'lumotlar yo'q.

– Farzandining onasiga yaxshi yo yomon munosabatda bo'lgani to'g'risida Provis indamadi, lekin ular Provis bizga bu yerda aytib bergan ayanchli turmushni to'rt-besh yilcha baham ko'rganlar, Provis, ko'rinishdan uni ehtiyotlab yurgan va xarob qilishni istamagan. Shuning uchun bolaning o'ldirilgani to'g'risida ko'rsatma berishga majbur qilishlaridan qo'rqib, ya'ni ayolni o'limga mahkum

qilishlaridan qo'rqib, g'oyib bo'lgan, – o'zi aytmoqchi, yo'ldan chetga chiqqan, – sud majlisida ham uni ayolning telbalarcha rashkiga sababchi bo'lgan Abel ismli odam sifatida tilga olib o'tganlar. Suddan keyin ayol suvga tushib ketgandek g'oyib bo'lgan-qo'ygan, shunday qilib Provis ham farzandidan, ham farzandining onasidan judo bo'lgan.

– Lutfan ayt-chi menga...

– Bir daqiqa, azizim, hozir tamomlayman. O'sha yovuz ruh, dunyo bunaqalarni kam ko'rgan, ablah Kompeson uning ko'rsatma berishdan bo'yin tovlaganini va nima uchun bunday qilganini bilgan, keyin uni butkul o'ziga tobe qilib olish va undan ko'proq foydalanish uchun chaquv bilan tahdid qila boshlagan. Provis uni, asosan, shuning uchun yomon ko'rishini kecha tushunib oldim.

– Ayt-chi menga, – dedim takroran, – va unutmaki, Gerbert, bu juda muhim, – bularning qachon sodir bo'lganini u senga aytdimi?

– Juda muhim? Unda shoshma, nima deganini aniq eslab olay. Bunday dedi: „Yigirma yilcha bo'ldi bunga, bundan kam emas, Kompesonga duch kelib qolgan paytlarim edi“. Cherkovingiz yonida unga uchrab qolganingda yo-shing nechada edi?

– Yetti yoshlar bo'lsam kerak.

– To'g'ri. O'sha voqea bo'lsa uch-to'rt yil ilgari bo'lib o'tgan, uning aytishicha, sen unga o'sha o'ta og'ir sharoitlarda yo'qotgan qizini eslatgansan, qiz taxminan sen bilan tengdosh bo'lgan.

– Gerbert, – dedim men bir lahzalik sukutdan o'zimga kelib, – derazadan tushayotgan yorug'da senga yaxshiroq ko'rinamanmi yoki kamindanmi?

– Kamindan, – javob berdi Gerbert yana menga yaqinroq kelib.

– Menga qara.

- Qarayapman, azizim.
- Menga tegib ko‘r.
- Tegypapman, azizim.
- Issig‘i baland yoki kechagi voqealardan keyin aqli joyida emas, deb o‘ylamayapsanmi meni?
- Y-yo‘q, azizim, – dedi Gerbert menga uzoq va diqqat bilan tikilib. – Biroz hayajondasan, lekin umuman olganda, har doim qanday bo‘lsang shundayсан.
- Har doim qanday bo‘lsam shundayligimni bilaman. Daryo bo‘yidagi uyda biz yashirib yurgan odam esa, Estelaning otasi bo‘ladi.

LI BOB

Miss Xevishemning boshiga tushgan falokat haqida Jeggars va Uemmikka aytib, ularning savollariga javob berib bo‘lib, cho‘ntagimdan Gerbert uchun menga to‘qqiz yuz funt berish to‘g‘risidagi miss Xevishemning ko‘rsatmasini oldim. Mister Jeggarsga tashrif qog‘ozchasini uzatganimda, ko‘zlari qoshlari tagiga yanada ko‘proq kirib ketgandek bo‘ldi, lekin u qog‘ozni Uemmikka berib, chek yozib imzo qo‘ydirishga olib kelishni buyurdi. Uemmik topshiriqni bajarayotganida men mister Jeggarsga, mister Jeggars top-toza etiklarida tebrana turib menga qarab turdi.

– Shaxsan o‘zingiz uchun hech narsa qilmayotganimizdan afsusdaman, – dedi u chekka imzo qo‘yilib, uni cho‘ntagimga solganimdan keyin.

– Miss Xevishem marhamat ko‘rsatib, o‘zimga biror nimada yordam bera olishi mumkinligini so‘radi va men yo‘q dedim.

– Nima ham qilardik, o‘zingiz bilasiz, – dedi mister Jeggars, Uemmik sekingina „Ko‘char mulk“, deb qo‘ydi.

– Sizning o‘rningizda, yo‘q deb javob qilmagan bo‘-

lardim, – dedi mister Jeggers, – lekin bunday ishlarda har kim o‘zi biladi.

– Ko‘char mulk har kimga kerak, – dedi Uemmik menga tanqid ko‘zi bilan qarab.

Bu yerga kelishimga sabab bo‘lgan mavzu xususida og‘iz ochishning vaqti keldi, deb qaror qildim-da, mister Jeggersga murojaat qildim:

– Lekin, ser, miss Xevishemdan har holda bir narsani iltimos qildim. Undan asrandi qizi to‘g‘risida gapirib berishni so‘radim va u bilganlarining barini aytib berdi.

– Shundaymi? – dedi mister Jeggers va etiklariga qarab qo‘yish uchun egildi, keyin yana qad rostladi. – Essiz! Men bunday qilmagan bo‘lardim, lekin xonim, albatta, o‘zi biladi.

– Estella to‘g‘risida miss Xevishemdan ham ko‘proq narsani bilaman, ser. Uning onasi kim ekanini bilaman.

Mister Jeggers menga savol nazari bilan qarab, so‘zimni takrorladi:

– Onasi?

– Uning onasini bor-yo‘g‘i uch kuncha oldin ko‘rganman. Siz ham ko‘rgansiz, ser. Uni bugun ham ko‘rgansiz.

– Rostdan-a?

– Estellaning ota-onasi to‘g‘risida, ehtimol, sizdan ham ko‘proq narsa bilarman, ser. Men uning otasini ham bilaman. Uning ismi Provis... Yangi Janubiy Uelslik.

Bu so‘zlarni eshitib hatto mister Jeggers ham seskandib ketdi. U yengil seskandi va o‘sha zahoti o‘zini qo‘lga oldi; o‘zini bor-yo‘g‘i ro‘molchasi kerak bo‘lib qolgandek ko‘rsatishga uringan bo‘lsa-da, baribir seskandi. Xabarimni Uemmik qanday qarshi olganini bilmayman, negaki u bilan xufyona muloqotlarimizdan hech narsani nazaridan qochirmaydigan mister Jeggersning xabar topishidan hadiksirab, o‘sha daqiqada u tomonga qaramayotgandim.

– Qanday dalillar bor, Pip? – dedi mister Jeggers va ro‘molcha burun tomon yarim yo‘lda to‘xtab qoldi, – Provisning bunday deb da‘vo qilishiga qanday dalillari bor?

– U da‘vo qilayotgani yo‘q, – dedim men, – hech qachon qilmagan ham. Qizining tirik ekanidan mutlaqo xabari yo‘q.

Bu safar qudratli ro‘molcha ham ojizlik qildi. Javobim shu qadar kutilmagan ediki, mister Jeggers odatiy amaliyotini bajarmayoq, ro‘molchani qaytarib cho‘ntagiga soldi va qo‘llarini qovushtirib, jiddiy va o‘tkir nigohini menga qaratdi, qiyofasida seskanish alomatlari ko‘rinmasdi.

Keyin men unga nimalarni bilishimni, qayerdan bilishimni aytib berdim va hikoyamni, Uemmikdan olgan ma‘lumotlarimni miss Xevishemdan eshitgan, deb xulosa chiqaradigan qilib tuzdim.

Mister Jeggers o‘ylanib, boshini qimirlatdi va hatto... hatto entikib qo‘ydi.

– Pip, dedi u, – sizga tasavvur qilinishi mumkin bo‘lgan hodisani bayon qilib beraman. Lekin, esingizda bo‘lsin, shunday bo‘lgan, deb hech narsani tasdiqlay olmayman.

Hech nimani tasdiqlay olmayman, deb alohida ogohlantirganini har doim yodimda tutishga uni ishontirishim uchun menga vaqt berib, u bir muddat jim qoldi.

– Xo‘sh, Pip, – dedi mister Jeggers. – Quyidagilarni tasavvur qiling: tasavvur qiling, ayol kishi, o‘zingiz bayon qilgan holatlarda farzandini yashirib qo‘yadi, lekin advokati himoyani to‘g‘ri olib borish uchun bola tirik yoki tirik emasligini bilishi zarurligini tushuntirgach, uni yashirib qo‘ygani tan olishga majbur bo‘ladi. Tasavvur qiling, o‘sha vaqtning o‘zida badavlat va telbanamo xonim advokatga asrab olish va tarbiya qilish uchun bola topib berishni topshiradi.

– Tushunyapman, ser.

– Tasavvur qiling, advokat zulm hukmronlik qilayotgan olamda faoliyat yuritgan va bolalar to‘g‘risida shuni bilardiki, ular haddan ziyod ko‘p tug‘iladilar va hammalari halokatga mahkumlar. Tasavvur qiling, advokat ularni o‘ta jiddiy ravishda jinoyat sudida sud qilganlarini ko‘p marta ko‘rgan, maslahatchilarga namoyish qilish uchun bolalarni qo‘lga olishga to‘g‘ri kelgan; tasavvur qiling, u bolalarni qamoqqa tashlaganlarini, savalaganlarini, surgun qilganlarini, jamiyatdan badarg‘a qilganlarini, binobarin, ularni jinoyatchi qilib tarbiyalab, voyaga yetishga imkon berib, keyin dorga osganlarini ko‘p marta ko‘rgan. Tasavvur qiling, u yo‘lida uchratgan barcha bolalarni, bir kun kelib baliqqa aylanib, uning to‘riga ilinishi kerak bo‘lgan baliqchalar, deb hisoblashga barcha asoslarga ega bo‘lgan, negaki ularni ayblagan, himoya qilgan, taqdir hukmiga tashlagan, ota-onalaridan judo qilgan, turli yo‘llar bilan haqorat qilgan va xo‘rlaganlar.

– Tushunyapman, ser.

– Tasavvur qiling, Pip, ana shu bir dunyo bolalar ichida qutqarilishi mumkin bo‘lgan kichkina va yoqimtoy qizcha uchrab qolgan: otasi uni o‘lgan deb hisoblab yurgan va surishtirishga qo‘rqqan; oqlovchi qizning onasini quyidagi bahonalar bilan itoatda ushlab turgan: „Nima jinoyat qilganingizni va qanday qilganingizni bilaman. Falon joyga borib, falonchiga hujum qilgansiz, falon holatda o‘zingizni himoya qilgansiz; keyin falon yoqqa borib, sizdan shubhalanmasliklari uchun mana bunday yo‘l tutgansiz. Har bir qadamingizni o‘rganib chiqdim va voqea qanday bo‘lganini o‘zingizga aytib beryapman. Qizingizdan voz keching, lekin sizni ayblovdan ozod qilishlari uchun uni sudda ko‘rsatish kerak bo‘lsa, uni albatta olib keladilar. Qizni menga topshiring va men sizni qutqarish uchun

qo'limdan kelgan barcha choralarni ko'raman. Agar siz xalos bo'lsangiz, bolangiz ham xalos bo'ladi; agar sizni qatl qilsalar, hech bo'lmasa bola qutulib qoladi". Tasavvur qiling, ayol bunga ko'ndi va sud uni oqladi.

– Sizni juda yaxshi tushundim.

– Bularning hammasi faqat tasavvur ekanini hammi?

– Ha, bularning hammasi faqat tasavvur ekanini ham.

Uemmik ham takrorladi:

– Faqat tasavvur.

– Tasavvur qiling, Pip, boshidan o'tkazgan kechinmalari, shuningdek, o'lim oldidagi qo'rquv ta'sirida o'sha ayolning miyasi biroz aynigan, odamlar orasiga qaytishga qo'rqqan va advokati oldiga panoz izlab kelgan. Tasavvur qiling, advokat uni qabul qilgan va har safar uning yovvoyi, itoatsiz fe'l-atvori tashqariga chiqay deganda, ayol butkul uning hukmi ostida ekanini eslatib, uni tinchlantirib kelgan. Ushbu tasavvur qilinayotgan holatni tushunyapsizmi?

– Albatta.

– Tasavvur qiling, o'sha qizcha voyaga yetib, maqsad bilan turmushga chiqdi. Uning onasi tirik. Otasi ham tirik. Ota va ona, bir-birlaridan xabarları bo'lmagan holda, bir-birlaridan shuncha chaqirim yoki shuncha quloch masofada yashab kelmoqdalar. Siz xabardor bo'lib qolganingizni istisno qilsak, sir avvalgidek sir bo'lib qolmoqda. Ana shu oxirgi bandni alohida uqib olishga harakat qiling.

– Yaxshi.

– Shu bandni alohida uqib olishni Uemmikdan iltimos qilaman.

Uemmik ham:

– Yaxshi, – dedi.

– Sir ochilsa kim manfaat topadi? Otami? Fikrimcha, farzandining onasi bilan uchrashuv uning ahvolini yengil-

lashtirmaydi. Onami? Fikrimcha, agar uni shunchaki ayblamagan bo'lsalar, hozir qayerda bo'lsa o'sha yerda qolgani ma'qul. Qizmi? Kelib chiqishi to'g'risidagi sirdan erini xabardor qilib, uni yigirma yil ilgari xalos bo'lgan xorlik va xo'rlikka qayta mahkum etishdan nima naf bor?

LII BOB

Qo'limdagi chek bilan mister Jeggersnikidan miss Skiffinsning hisobchi akasining oldiga bordim; u o'sha zahoti Klarrikerning idorasiga borib, uni oldimga boshlab keldi va men juda katta mamnuniyat bilan oramizdagi ishni yakunlab qo'ydim. Katta umidlarimdan xabar topganimdan beri faqat ana shu oliyjanob ishni qila oldim, faqat ana shu ishni oxiriga yetkazib qo'ya oldim.

Klarriker imkoniyatdan foydalanib, shirkati rivojlana-yotganini, amaliyotlarni kengaytirish uchun endi u Sharqda kichik bir bo'lim ocha olishini va modomiki, Gerbert endi unga sherik ekan, u yerga uni rahbar qilib tayinlashini aytib berdi. Bundan, agar o'zim Angliyadan chiqib ketmagan taqdirimda ham, tez orada do'stim bilan xayrlashishga to'g'ri kelishini tushundim. Aynan o'sha lahzada, meni ushlab turgan langarning zanjiri tezda uzilishini, shamol va to'liqlarning izmi bilan noma'lum tomonlarga yo'l olishimni his qildim.

Dushanbalarning birida Gerbert bilan nonushtaga o'tirgan edik, pochtdan Uemmikning quyidagi mazmundagi xatini olib kelishdi:

„Uolvort. O'qib bo'lgach yoqib yuborilsin. Haftaning boshida, yoki, aytaylik, chorshanba kuni, agar istasangiz, o'zingizga ma'lum ishni amalga oshirishga urinib ko'rishingiz mumkin. Endi yoqib yuboring“.

Xatni Gerbertga ko'rsatdim, keyin uni (avval yodlab olib) yoqib yuborib, nima qilishimiz kerakligini muhoka-

ma qila boshladik. Eshkak eshish qo‘limdan kelmasligini tan olmaslikning endi iloji yo‘q edi.

– Men o‘ylab-o‘ylab, Temzadagi qayiqchilardan birini yollashdan ko‘ra yaxshiroq usulni topgandayman. Kel, Startopni ola qolamiz. U yaxshi inson, eshkakni juda yaxshi biladi, ikkimizni yaxshi ko‘radi, ishonchli va halol ham.

O‘zim ham bu to‘g‘rida bir necha marta o‘ylagandim.

– Unga nimanidir izohlab berish kerak bo‘ladi-ku, Gerbert?

– Judayam ozgina narsani. Oxirigacha, buni hech kimga aytib bo‘lmaydigan hazil, deb o‘ylay qolsin; keyin Provisni kemaga o‘tqazish uchun muhim sabablar bor deb aytamiz. Sen ham u bilan ketasan, to‘g‘rimi?

– Ha, albatta.

– Qayoqqa?

Bu mavzu xususida ko‘p, mashaqqat bilan bosh qotirgandim va, umuman olganda, qaysi bandargohga – Gamburgami, Rotterdamgami yoki Antverpengami, – yo‘l olishning farqi yo‘q, muhimi uni Angliyadan olib chiqib ketish, degan qarorga kelgandim. Bizni olib ketishga rozi bo‘ladigan har qanday xorijiy kemaga chiqib olish mumkin edi. Qayiqda iloji boricha uzoqroqqa, shubha tug‘ilgan kezlarda savol-javoblar va ko‘rikdan eng ko‘p hadiksiraladigan joy – Greyvzendan, albatta, nariroqqa suzib borish kerak, deb hisoblardim. Xorijiy kemalar Londonni suv qaytishi mahal tark etishlarini hisobga olganda, biz avvalgi suv qaytish paytida daryo bo‘ylab suzib ketishimiz va kemaga chiqib olish mumkin bo‘lgan xoliroq bir joyda kutib turishimiz kerak edi. Agar avvaldan ma‘lumotlar to‘plansa, vaqtni aniq hisoblab chiqish qiyin ish emasdi.

Gerbert bilan hamma ehtiyot choralarini kelishib bo‘lganimizdan keyin uyga yo‘l oldim.

Eshikni kalitim bilan ochib, qutida menga yuborilgan, ko‘rinishdan juda kir bo‘lib ketgan, lekin savodli yozilgan xat borligini ko‘rib qoldim. Uni to‘g‘ri (albatta chiqib ketganimdan keyin) uyga olib kelishgandi va u quyidagi mazmunda edi:

„Agar bugun yoki ertaga kechki payt soat to‘qqizlarda botqoqlikka, to‘g‘on oldidagi, ohak kuydiriladigan o‘choq yaqinidagi uyga kelishdan qo‘rqmasangiz, afsuslanmaysiz. Amakingiz Provis to‘g‘risida nimanidir bilmoqchi bo‘lsangiz, vaqt o‘tkazmay albatta keling. Bir o‘zingiz keling. Ushbu xatni o‘zingiz bilan olib keling“.

LIII BOB

Chekkadagi bog‘lardan o‘tib, botqoqlikka qadam qo‘yganimda to‘lin oy chiqqan bo‘lsa ham tun zimiston edi. Botqoqliklar ortida osmonning tor, musaffo qismi yorishib turar va bahaybat qizg‘ish oy unga zo‘rg‘a sig‘ayotgan edi. Bir necha daqiqadan keyin u balandroqqa ko‘tarilib, pastroqdagi bulutlar ortiga yashirindi.

Kuchli yomg‘ir boshlandi. Tashqarida biron-bir yangi narsani ko‘rmay, botqoqlik yaqinidagi uyga kirdim, ivib ketmaslik uchun ostonada turib, tun qa‘riga tikila boshladim. Modomiki uyda sham yonayotgan ekan, yaqinda bu yerda kimdir bo‘lgan va tezda qaytadi deb o‘ylab, pilikning qancha yonganini ko‘rmoqchi bo‘ldim. Ichkariga qadam tashladim, lekin shamni olishga ulgurmadim, kimdir kuch bilan uni qo‘limdan urib tushirdi va o‘chirib qo‘ydi, keyingi lahzada esa orqamdan qalin arqondan sirtmoq tashlaganlarini tushundim.

– A-ha! – dedi kimdir tishlarini g‘ijirlatib va so‘kindi. – Endi mendan qutula olmaysan!

– Bu nimasi?! – qichqirdim men tipirchilab. – Bu kim? Yordam beringlar! Yordam beringlar!

Tirsaklarim biqinimga tortib qo'yilgan, kuygan qo'lim chidab bo'lmas darajada og'riyotgandi. Ko'rinmas allakim dam og'ir kafti bilan og'zimni yopar, dam qichqirishimni pasaytirish uchun ustimga yotib olar, kimningdir issiq nafasini sezar ekanman, meni nimagadir mahkam bog'lab tashlagunlariga qadar hech bir samarasiz, qutulishga intilaverdim.

– Mana endi, – dedi yana o'sha ovoz va so'kinib qo'ydi, – yana bir marta qichqirib ko'rgin, o'sha zahoti asfalasofilinga ravona bo'lasan.

Yaralangan qo'limning og'rig'iga chidolmay, hayratdan hali ham o'zimga kelolmagan bo'lsam-da, juda jiddiy do'q qilinaётganini tushunib jim bo'ldim va ozgina bo'lsa ham qo'limni bo'shatishga urindim. Lekin arqon bir barmoqchalik ham bo'shashmadi. Kuygan joyi bitmagan qo'lim qaynoq suvda pishirilayotgandek edi.

Deraza ortidagi qorong'i tun hech narsani ilg'ab bo'lmaydigan zimiston bilan almashganidan, ko'rinmas dushmanim darpardalarni yopganini tushundim. Qorong'ida timirskilanib, u chaqmoqtosh va pilik izlab topdi, keyin o't chiqarishga harakat qila boshladi. Pilikka sachrayotgan uchqunlarga, bor kuchi bilan uni puflashiga bezovtalik bilan qarab turdim, lekin lahzadan ham qisqa fursatlarda lablarinigina ko'roldim. Pilik namiqqanidan, bunday joyda tabiiy, uchqunlar birin-ketin o'chib qolmoqdaydi.

U shoshmayotgandi, chaqmoqtoshga po'lat cho'p bilan takror va takror zarba bermoqdaydi. Uchqunlar yomg'irdek yog'ila boshlaganlarida qo'llari, basharasining bir qismi ko'zimga tashlandi, keyin stol ustiga engashib o'tirganini ham ko'rdim, boshqa hech narsani ilg'ay olmadim. Mana, yana pilikka puflayotgan ko'karib ketgan lablar, nihoyat, pilik yondi va men Orlikni tanib qoldim.

Kimni ko'rishni kutgandim, to'g'risi bilmayman, fa-

qat Orlikni emas. Uni tanib qolganimdan keyin ahvolim haqiqatan ham yomonligini tushunib yetdim va har bir harakatini kuzata boshladim.

U shoshmasdan shamni yoqdi, pilikni yerga tashlab, tepkilab o'chirdi. Keyin meni yaxshiroq ko'rish uchun shamni bir chekkaga surib qo'ydi, tirsaklari bilan stolning ustiga yarim cho'zilib menga tikildi. Chordoqqa chiqadigan, devordan sal nariga, oyoqlari bilan polga mustahkamlangan osma yog'och zinaga bog'lab qo'yilganimni ko'rdim.

– Mana, – dedi u biz bir muddat bir-birimizga tikilib bo'lganimizdan keyin. – Endi mendan qutula olmaysan.

– Yechib yubor meni. Qo'yvor!

– Hozir-da, – dedi u. – Hozir qo'yib yuboraman. Ruhingni sug'urib, istagan tomoniga qo'yib yuboraman. Ozigina sabr qil.

– Nimaga meni bu yerga aldab chaqirib olding?

– Nahotki tushunmayotgan bo'lsang? – javob qildi u yovuz ko'zlarida o't yonib.

– Nega zimistonda menga hujum qilding?

– Negaki hammasini bir o'zim bajarmoqchiman. Ikki kishiga qaraganda bir kishining og'zi mahkamroq bo'ladi. Qarab tur hali shaytonvachcha!

Stolning ustiga yotib, mamnunlik bilan bosh chayqab, ojizligimdan shaytoniy jazavada ediki, yuragim orqaga tortib ketdi. Undan ko'zimni olmay jim turardim, u esa qo'lini bir burchakka tiqib, qo'ndog'iga mis qoplangan miltiqni sug'urib oldi.

– Buning nima ekanini bilasanmi? – dedi u meni mo'ljalga olayotgandek harakat qilib. – Uni ilgari qayerda ko'rganing esingdami? Gapir, bo'rivachcha!

– Esimda, – javob qildim men.

– Meni u yerdan haydab yuborganlari sening ishingmi? Senikimi? Gapir!

– Nima qilishim kerak edi?

– Faqat shuning o‘zi uchunoq seni o‘ldirish kamlik qiladi. Menga yoqadigan inson va mening o‘rtamga tiqilishga jur‘at etganing-chi?

– Qachon?

– Har doim. Meni doim unga yomon ko‘rsatarding.

– O‘zing o‘zingni yomon ko‘rsatgansan, aybni o‘zingdan qidir. Agar o‘zingni yomon ko‘rsatmaganingda, seni hech nima bilan yomon ko‘rsatib bo‘lmasdi.

– Yolg‘on gapiryapsan! Bu yerlardan meni daf qilish uchun kuchingni ham, pulingni ham ayamagan sen emas-miding? – Biddiga so‘nggi uchrashuvimizda aytganlarimni qaytarayotgandi. – Bo‘lmasa bilib qo‘y: bugun meni bu yerlardan daf qilmaganingga chindan ham achinasan. Ha, ha, oxirgi fartinggacha hamma pulingni sarflab bo‘lsa ham daf qilishing kerak edi!

Bu haqiqat edi – u tishlarini itdek g‘ijirlatib, bahaybat qo‘li bilan menga tahdid qilganida buni, ayniqsa, yaqqol his etdim.

– Meni nima qilmoqchisan?

– Nima qilardim? – dedi u qulochini bemalol yozish uchun o‘rnidan turib, keyin bor kuchi bilan stolga musht tushirdi, – o‘ldiraman, vassalom.

Yuzimga engasha turib, u asta mushtini yozdi, so‘lagi oqayotgandek kafti bilan lablarini artirdi, mendan ko‘zini uzmasdan yana o‘tirdi.

– Sen go‘dakligingdan qariya Orlikning yo‘lini to‘sib kelyapsan. Yetar, bugun u seni yo‘ldan supurib tashlaydi. Tamom! Kuning bitdi.

Ajalning sovuq nafasini his qila boshladim. Talvasada o‘zim tushgan tuzoqni ko‘zdan kechirib, qutulish yo‘llarini izlagan bo‘ldim; qutulishga yo‘l yo‘q edi.

– Bu ham kam, – dedi u yana stolga tirsaklarini qo‘-

yib, cho‘zilar ekan. – Sendan bir parcha latta, bir dona suyakcha ham qolmaydi. O‘ldirib o‘choqqa tashlayman – sendaqalarning ikkitasini o‘choqning oldiga ko‘tarib bora olaman – odamlar nima deb o‘ylashsa o‘ylayverishsin, ular hech nimani bila olishmaydi. Endi esa bo‘rivachcha, seni qo‘ydek bo‘g‘izlashdan avval, – dedi Orlik, – hali bunga navbat keladi, shuning uchun seni bog‘lab qo‘ydim – ustingdan mazza qilib kulib, ahvolingni tomosha qilaman. O, raqibim janoblari!

Yana yordamga chaqirsammikan, degan fikr xayolimdan o‘tdi, holbuki ushbu kimsasiz yerda hech kimdan najot kelmasligini hammadan ham yaxshi bilardim. Lekin uning razil xursandchiligi qarshisida g‘azab va nafrat menga kuch bag‘ishladi va lablarimni qattiq yumdim. Nima bo‘lganda ham unga tiz cho‘kish emas, kuch yetganicha, oxirigacha qarshilik ko‘rsatish kerak. O‘sha qo‘rqinchli lahzalarda hech kimga yomonlik tilamadim, Yaratgandan afv etishini so‘radim, menga aziz insonlar bilan xayrlashmaganimdan va endi hech qachon xayrlasha olmasligimdan, xatolarim uchun mendan juda ham qattiq xafa bo‘lmasliklarini so‘ray olmasligimdan afsuslandim, lekin Orlikni hozir ham sira ikkilanmay o‘ldirgan bo‘lardim.

Ko‘rinishdan u ichib olgandi, ko‘zlari qizarib, yallig‘lanib ketgandi. Bo‘yniga alyumin suvdon ilib olgan, bir vaqtlar ovqat va ichkilikni u ana shunday olib yurardi. U suvdonni lablariga yaqinlashtirdi, bir qultum ichdi; spirtli ichimlikning o‘tkir hidi anqidi, uning yuzida qizil dog‘lar ko‘paydi.

– Bo‘rivachcha! – dedi u yana stol ustiga cho‘zilar ekan. – Qariya Orlik hozir seni yana xursand qiladi: yalmog‘iz opangning o‘limiga sen aybdorsan.

U gapini sekin, qovushmay davom ettirarkan, yana barcha voqealar – opamga hujum, uning betob bo‘lishi, o‘limi juda katta tezlikda ko‘z o‘ngimdan o‘tdi.

– Yo‘q, bu sening ishing, ablah! – dedim men.

– Bu sening ishing, deb men senga aytyapman, hammasi seni deb bo‘lgan! – g‘azablanib ketdi Orlik va qo‘liga miltiqni olib, bor kuchi bilan havoda silkidi. – Bugun sening orqangdan kelgandek, opangning orqasidan sekin yaqinlashib, shunaqa tushirdim! O‘ldirdim, deb o‘ylagandim, yaqinroq joyda kattaroq o‘choq bo‘lganida qayta tirilmagan bo‘lardi. Lekin bu ishlarni Orlik emas, sen qilding. Seni har doim ayashardi, Orlikni so‘kib, kaltaklashardi. Qariya Orlikni so‘kib, kaltaklasharmidi, a? Mana endi javob berasan. Sen aybdorsan, javobini ham sen berasan.

Ikkinchi marta zahariga ichib olib o‘rindiqdan turdi va stolni nariga surdi. Keyin shamni ko‘tarib, yorug‘i yuzimga tushishi uchun zulmkor qo‘li bilan uni to‘sdi va ayyorona tantana bilan menga tikilib qoldi.

– Quloq sol, bo‘rivachcha, senga yana bir narsani aytib beraman. O‘shanda qorong‘ida, zinada sen qariya Orlikka qoqilib ketganding. Qariya Orlik u yerda nima qilayotgandi? Eshit, bo‘rivachcha, senga hammasini aytib beraman. Ikkalangiz meni bu yerlardan siqib chiqardingiz, bu yerlardagi nasibamdan mahrum bo‘ldim, shunda o‘zimga yangi o‘rtoqlar va yangi xo‘jayinlar topdim. Ular menga xatlar ham yozib beradilar, kerak bo‘lganida, tushundingmi bo‘rivachcha, o‘rnimga xat yozadilar! Sendan farqli ravishda, tirrancha, ular har kimning qo‘lini o‘xshata oladilar. Opangni dafn qilishga kelganingdayoq seni adoyi tamom qilishni rejalashtirgandim. Ishni puxta qilish uchun tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keldi, o‘shanda qanday yashayotganingni, qayerda bo‘lishingni kuzatishga qaror qildim. Hali ko‘rasan, bir kun qariya Orlikning qo‘liga tushasan, degandim o‘zimga. Seni qidiruvdim, Provis amakingni topdim. Zo‘rmi, a? Hali sening amaking bormi? Gerjerinikida mana bunday, ikkita barmog‘im bi-

lan bo‘ynini uzib olishim mumkin bo‘lgan jo‘jaligingdan bilaman (yakshanba kunlari uydan tashqarida daydib yurganingda qo‘lim tez-tez qichib turardi), o‘sha paytlarda hech qanday amaking bo‘lmagandi, bunisini bilamiz. Sening Provis amaking, qariya Orlik botqoqlikdan topib olib, opangni boplab tushirgunga qadar saqlab qo‘ygan o‘sha temir halqani bir paytlar oyog‘ida olib yurganini eshitib qolganimdan keyin, seni ham xuddi shu usul bilan yo‘q qilaman dedim, tushudingmi?.. Bu to‘g‘rida eshitib qolganimdan keyin... Xullas...

O‘zining haqoratomuz harakati bilan u shamni to‘g‘ri yuzimga taqagandi, beixtiyor chetga o‘girildim.

– A-ha! – qichqirdi u kulgidan to‘xtamay va yana sham bilan turtdi. – Bir marta kuyding-da, qo‘rqyapsan! Qariya Orlik kuyganingni biladi, qariya Orlik amakijoningni Angliyadan sekingina daf qilmoqchiligingni biladi, qariya Orlikni aldashga senga yo‘l bo‘lsin, u bugun kelishingni ham bilardi! Xo‘p, mayli bo‘rivachcha, senga yana bir narsa aytaman, bunisi oxirgisi. Bir odam bor, amaking uni pisand qilmaydi, sen qariya Orlikni pisand qilmaganingdek. Jiyanchasi asfalasofilinga yo‘l olganidan keyin amaking o‘sha odamdan ehtiyot bo‘lsin. Qarindoshchasidan bir parcha latta ham, bir bo‘lak suyak ham qolmaganidan keyin ehtiyot bo‘lsin. O‘sha odam Megvichning – ko‘rdingmi, menga familiyasi ham ma‘lum! – o‘zi bilan bir tuproq ustida tirik yurishiga hech qachon yo‘l qo‘ymaydi, Megvich boshqa yurtlarda yashab yurganida u haqidagi hamma narsani ayg‘oqchilik qilib bilib bo‘lgan. Yonginasida bunday raqib yurishini istamay, kerakli joyga xabar ham berib qo‘ygani tayin. Har qanday qo‘lni o‘xshatib yozadigan odam balki, o‘shadir, sen bunday qilolmaysan, tirrancha. Ehtiyot bo‘l, Megvich, Kompeson va dordan qocholmaysan!

U meni yana sham bilan turti, yuzim va sochlarim kuydi, bir lahzaga ko'zlarim qamashdi, keyin keng yag'rinini menga qaratib o'girildi va shamni stol ustiga qo'ydi. Qaytib menga o'girilgunicha xayolan kalima o'girishga, Jo, Bididi va Gerbertning yonida bo'lishga ulgurdim.

Stol va devor orasida bir necha qadamlik bo'shliq bor edi. U ana shu yerda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Uning shafqatsiz ko'zlari va uzun, lapanglayotgan qo'llariga qarab turib naqadar katta jismoniy kuchga ega ekanini bugunchalik aniq tasavvur qilmaganimni tushunib yetdim. Menda umiddan uchqun ham qolmagandi. Miyam qanchalik shiddat bilan ishlamasin, xayollar o'rniga namoyon bo'layotgan ko'rinishlar qanchalar ravshan bo'lmasinlar, u bir necha daqiqadan keyin meni butunlay yo'q qilib yuborishga uzil-kesil qaror qilmaganida, shuncha narsani aytib bermasligini har holda tushunib turardim.

U birdan to'xtadi, suvdonni qo'liga olib, tiqinini uloqtirib yubordi. Nazarimda tiqin, tarozining toshi misol polga qattiq ovoz chiqarib tushdi. U sekin-asta, suvdonni tobora tikka qilib ichmoqda, menga qaramay qo'ygandi. So'nggi tomchilarni u kaftiga quydi va yalab oldi. Keyin birdaniga jahli chiqib ketdi-da, so'kinib, suvdonni stol ustiga uloqtirdi va engashdi; keyin qo'lida tosh maydalaydigan og'ir bolg'a ushlab olganini ko'rdim.

Qabul qilgan qarorim esimdaydi: yalinib-yolvorishlarga vaqt ketkazmay, bor kuchim bilan qichqirdim va jonjahdim bilan xalos bo'lishga urina boshladim. Faqat oyoqlarim va boshim bog'lanmagandi, lekin o'zim ham ilgari bilmagan-sezmagan kuch bilan ozod bo'lishga urinayotgandim. O'sha zahoti tashqaridan kimlarningdir javoban qichqirgani eshitildi, eshikka tashqaridan yog'du tushdi, keyin kimlarningdir sharpalari, olishuv, ovozlar eshitildi

va Orlik, kimlarningdir tagidan, girdobdan chiqqandek sugʻurilib chiqdi-da, stolning ustidan sakrab oʻtib, qorongʻilik qaʻriga singib ketdi!

Oʻzimga kelib, qoʻllarim yechilgan, boshim kimningdir tizzasida, oʻsha xonaning oʻzida yotganimni payqadim. Narvonning toʻgʻrisida yotgan boʻlganimdan, hushimga kelayotib dastlab koʻzim tushgan narsa narvon boʻldi, shundan, hamon oʻzimdan ketgan joyda yotganimni tushundim.

Miyam butunlay karaxtligidan, kim meni suyab turganini koʻrish uchun oʻgirilishga ham majolim kelmadi; yotgan joyimdan narvonga qarab turganimda, kimningdir yuzi uni mendan toʻsib qoʻydi. Bu tikuvchi yugurdagingning yuzi edi!

– Bust-butunga oʻxshayapti, – dedi yugurdak bola oʻzini kattalardek tutib, – faqat rangi juda oqarib ketibdi!

Shu payt meni suyab oʻtirgan odam ustimga engashdi va men uni tanidim...

– Gerbert! Ey mehribon Xudoyim!

– Sekin, – dedi Gerbert. – Sekin, Gendel. Hayajonlanma.

– Va eski doʻstimiz Startop! – dedim men hayajon bilan u ham ustimga engashganida.

– U bizga nimada yordam berishni vaʼda qilganini eslagin-da, – dedi Gerbert, – hayajonni toʻxtat.

Hammasi esimga tushib, oʻrimdan turib ketdim, lekin qoʻlimning ogʻrigʻiga chiday olmay yana yotib oldim.

– Nahotki kechga qolgan boʻlsak, Gerbert? Bugun qaysi kun? Bu yerda qancha vaqt boʻldim?

Bu yerda bir-ikki kun – undan ham koʻproq yotib qolgan boʻlsam-a, degan qoʻrqinchli fikr xayolimdan oʻtdi.

– Kechga qolmadik. Bugun dushanba.

– Xudoga shukr!

– Ertaga seshanba, kun bo‘yi dam olsang bo‘ladi, – dedi Gerbert. – Lekin ingrayapsan-ku, bechora do‘stim. Qayering og‘riyapti? Tura olasanmi?

– Ha, ha, – dedim men. – Yurishga ham kuchim yetadi. Faqat qo‘lim qattiq zirqirayapti.

Ular qo‘limni ko‘zdan kechirib, qo‘llaridan kelgan yordamni berdilar. Qo‘lim yallig‘lanib, shishib ketgandi, birov sal tegsa ham achishib og‘riyotgandi. Gerbert va Startop ro‘molchalarini yirtib, shaharga yetib olib, yallig‘lanishni to‘xtatadigan bog‘lamalarni topgunimizcha qo‘limni ehtiyotlik bilan bo‘yinbog‘ga kirgizdilar. Bir necha daqiqadan keyin biz qorong‘i va bo‘m-bo‘sh uyning eshigini yopib, tosh konidan o‘tib, orqaga qaytdik. Fonus ko‘tarib olgan tikuvchining shogird bolasi – endilikda baquvvat shogird yigit oldinda fonus ko‘tarib borardi, eshikka o‘shanda mana shu fonusning yog‘dusi tushgandi. So‘nggi marta ko‘kka nazar solganimdan beri ikki soat o‘tgandi, oy balandroqqa ko‘tarilgan, yomg‘irga qaramay, zimiston chekingandi. O‘choqdan tarqalayotgan oq tutun bizdan narilab ketmoqdaydi, men yana ko‘kka qarab iltijo qildim, lekin endi bu shukronalik iltijosi edi.

Qanday qilib meni xalos qilganini gapirib berishga Gerbertni ko‘ndirganimdan keyin (avvaliga u gapirishni umuman xohlamadi), shoshganimdan imzosiz xatni xonamizda tushirib qo‘yganimni, u Startopni yo‘lda uchratib qolib, ikkalasi uyimizga kelishgani va xatni topib olishganini bilib oldim. Xat ohangidan u tashvishga tushgan, buning ustiga u Gerbertga yozgan maktubimning mazmuniga mos kelmagan. O‘n daqiqacha o‘ylab ko‘rgan, bezovtaligi tarqash o‘rniga kuchaygach, u pochta bekatiga borib, keyingi dilijon qachon ketishini bilmoqchi bo‘lgan, Startop ham u bilan birga borgan. Oxirgi dilijon ketib bo‘lganini bilgach va to‘siqlar paydo bo‘lgach.

bezovtalik haqiqiy xavotir bilan almashingan va izimdan yollanma izvoshta borishga qaror qilgan.

LIV BOB

Qadimgi London ko'prigi, dengiz chig'anoqlari yuklanadigan barkashlar va golland yelkanli qayiqlari to'xtab turgan Billingstet bozori, Tauerning Oq minorasi hamda Xiyonatkorlar darvozasi orqada qolib, biz bandargohning eng serqatnov qismiga tushib qoldik. Bu yerda Lit, Aberdin va Glazgodan kelgan kemalar yuk tushirmoqda va yuk olmoqda, pastdan ular bizga benihoya baland ko'rinmoqdaydi; o'nlab ko'mir tashuvchi kemalar shovqin-suron bilan tryumlaridan ko'mirni ko'tarib, barjalarga yuklamoqdaydilar; ertaga Rotterdamga yo'l oladigan kema shu yerda turardi, biz uni diqqat bilan ko'zdan kechirdik, Gamburgga ketadigani ham shu yerda edi, shundoqqina parraklari yonidan o'tdik. Mana nihoyat yuragim tez ura boshladi, qayiqning quyruq qismida o'tira turib, old tomonda Tegirmon hovuz qirg'og'i va zinani ko'rib qoldim.

– U o'sha yerdami? – so'radi Gerbert.

– Hozircha yo'q.

– To'g'rida. U bizni ko'rganidan keyin qirg'oqqa chiqishi kerak. Belgi-chi, belgi bormi?

– Bu yerdan ko'rmayapman... Yo'q, menimcha, ko'ryapman... Ana, uning o'zini ham ko'rdim! Chaqqonroq! Sekin, Gerbert! Eshkaklarni ko'taramiz!

Qayiq zinaga ohista tegdi, mana, Provis unga chiqib oldi va biz olg'a intildik. U dengizchilar kiyadigan dag'alplash kiyib olgan, qo'lida yelkan tikiladigan matodan qora sumka bor edi, bandargohlarning azamat lotsmani¹ bo'lgandi-qo'ygandi.

¹Lotsman – kemalarga bandargohga kirish yo'lini ko'rsatadigan yo'lboshlovchi.

Provis ikkimiz yuk xaltalarimizni tayyorlab, Gerbert va Startop bilan xayrlasha boshladik. Bir-birimizning qo‘llarimizni endi siqib bo‘lgandik, Gerbert ikkimiz ko‘zyosh ham qilib oldik, sal oldindagi kichik bir qo‘ltiqdan to‘rt eshkakli qayiq otilib chiqdi va u ham daryoning o‘rtasiga qarab harakatlana boshladi.

Hozirgacha bizga faqat tutun ko‘rinayotgandi, nega-ki kemanding o‘zi qirg‘oq muyulishining ortida edi; mana uning o‘zi ham ko‘rindi – u to‘g‘ri biz tomonga suzib kelayotgandi. Gerbert va Startopga kemadagilar bizni yaqqol ko‘rishlari uchun oqimga qarshi suzishni buyurdim, Provisga esa plashiga o‘ralib olib jim o‘tirishini aytdim. U tetik ovoz bilan: „Xotirjam bo‘l, o‘g‘lim“, dedi va haykaldek qotib o‘tirdi. Bu orada narigi qayiq, tajribali eshkakchilarning ixtiyoriga bo‘ysunib, yo‘limizni kesib o‘tdi, unga yetib olishimizga yo‘l qo‘yib berib, yonma-yon suza boshladi. Oramizda eshkaklar eshishga imkon beradigan masofanigina qoldirib, ular bizdan aslo uzoqlashmadilar – eshkak eshishni to‘xtatsak, ular ham to‘xtab, ikki-uch marta eshsak, ular ham aynan shunday qilib, harakatni davom ettirdilar. Yo‘lovchilardan biri rulni boshqarar va eshkak eshayotganlar bilan birga bizga diqqat bilan qaramoqdaydi; Provisga o‘xshab o‘ralib olgan ikkinchi yo‘lovchi ham bizga qaradi, keyin g‘ujanak bo‘lib oldi va ruldagi odamga bir narsa dedi. Boshqa hech kim hech nima demadi.

Bir necha daqiqadan keyin qarshimda o‘tirgan Startop qaysi kema birinchi bo‘lib kelayotganini aniqladi va: – Gamburniki, – deb shivirladi. – Kema juda tez yaqinlashmoqda, parraklari suvga urilayotganda chiqadigan ovoz borgan sari kuchaymoqdaydi. Mana hozir qayig‘imiz kemanding soyasiga tushadi, deb o‘ylay boshlagan edim hamki, narigi qayiqdan bizga murojaat qildilar. Men javob qaytardim.

– Orangizda o‘zboshimchalik bilan surgundan qaytib kelgan odam bor, – dedi rulda o‘tirgan odam. – Ana u, plashga o‘ralib o‘tiribdi. Uning ismi Abel Megvich, boshqa ismi – Provis. Men uni qamoqqa olaman va taslim bo‘lishni, sizlarga esa politsiyaga ko‘mak berishni taklif qilaman.

O‘sha daqiqadayoq eshkakchilariga hech qanday ko‘rsatma bermasdan, u qayig‘ini bizning qayiqqa juda yaqin olib keldi: biz o‘girilishga ulgurmayoq, ular bir eshkak eshishda oldinga o‘tib, eshkaklarni ko‘tarishdi va qayig‘imizning chetiga mahkam yopishib olishdi. Kemadagilar orasida qattiq hayajon ko‘tarildi, bizga nimalarnidir qichqirayotganlarini, mashinani to‘xtatishga bo‘lgan buyruqni, parraklarning to‘xtaganini eshitdim, lekin kema to‘xtamay ustimizga bostirib kelayotganini his qilayotgandim. O‘sha daqiqaning o‘zida rulda o‘tirgan odam qo‘lini mahbusning yelkasiga qo‘yganini, ikkala qayiqni oqim aylantira boshlaganini, matroslar oyoqlarini qo‘llariga olib kemanding quyruq tomoniga yugurayotganlarini eshitdim. Shu payt mahbus o‘rnidan sakrab turdi va qo‘lini politsiyachining yelkasi osha uzatib narigi qayiqda g‘ujanak bo‘lib o‘tirgan odamning boshidan plashni yulib oldi. O‘sha lahzaning o‘zida men bolaligimdagi ikkinchi mahbusning basharasini tanidim va hech qachon esimdan chiqmaydigan dahshatda qotib qolgan bu bashara o‘zini orqaga tashladi, kemadagilar hayqirib yuborishdi, yonginamda qattiq shaloplash, keyin qayiqning tagimdan chiqib keta boshlaganini his qildim. Qandaydir lahzalar ichida minglab tegirmon parraklaridan va minglab yog‘dulardan o‘zimni himoya qilayotgandek bo‘ldim; ushbu lahzalar tugagach, meni qayiqqa tortib olishdi. Gerbert bilan Startop ham shu yerda edilar, lekin qayig‘imiz va ikki mahbus g‘oyib bo‘lgandi.

Quloqni qomatga keltiradigan baqir-chaqir, otilib chiqayotgan bug'ning hushtagi, kemanding burilib-surilishlari orasida avvaliga osmonni suvdan va bir qirg'oqni ikkinchisidan ajrata olmay qoldim; lekin dengizchilar ustalik bilan qayiqni o'nglab oldilar va uch-to'rtta kuchli siltash bilan uni old tomonga yurgizib, atrofni diqqat bilan kuzata boshladilar. Tez orada suv sathida biz tomonga oqib kelayotgan qora narsani ko'rdik. Hech kim hech narsa demadi, lekin ruldagi odam qo'lini ko'tardi, eshkakchilar asta eshkaklarni qimirlatib, oqim qayiqni surib ketishiga yo'l qo'ymay turdilar. Qora narsa yaqinlashdi, shunda men Megvichning bir amallab, qiynalib suzib kelayotganini ko'rdim. Uni qayiqqa tortib olishdi va o'sha zahoti oyoq-qo'llarini kishanlab tashlashdi.

Qayiqni yana o'nglashdi, sukunat ichida suv sathini kuzatish davom etdi. Rotterdamga ketayotgan kema yaqinlashib qolgandi, hech narsadan xabarsiz, u shahd bilan suzib kelmoqdaydi. Kemadagilarga qichqirib ko'ril-di, to'xtatishga harakat qildilar, lekin kech bo'lgandi: bir daqiqadan keyin ikkala kema ham bizdan uzoqlashib ketdi, qayiq esa ular ko'targan to'lqinda chayqalmoqdaydi. Hamma yoq tinchib, kemalar ko'zdan g'oyib bo'lgandan keyin ham kuzatishni yana uzoq davom ettirdilar, lekin hamma buning besamar ekanini tushunib turardi.

Nihoyat chekindik va qirg'oq bo'ylab, bir qovoqxona suzib bordik, u yerdagilar bizni ko'rib juda hayron qolishdi. O'sha yerda men ko'krak qafasi ezilgan va boshi yorilgan Megvichning – u endi Provis emasdi! – azoblarini bir amallab yengillashtira oldim.

Aytishicha, u kemanding ostiga tushib qolgan va suv tagidan suzib chiqqanida unga boshi bilan tegib ketgan. Ko'krak qafasini, ko'rinishidan, qayiqning qirrasiga urib olgan, zarba shunchalar kuchli bo'lganki, nafas olishi qattiq

og'riq bilan kechmoqdaydi. „Kompesonni o'sha lahzalarda nimalar qilishga tayyor bo'lganimni aytib o'tirmayman“, dedi u, lekin boshidan plashini yulib olganida ablah o'rni-dan turib, o'zini orqaga tashlagan va ikkovlon qayiqdan suvga ag'darilganlar; qulayotgan Megvich qayig'imizni itarib yuborgani va politsiyachining uni tutib olishga urini-shi oqibatida qayiq ag'darilib ketgan. Yana u menga, ikka-lasi bir-biriga yopishib olganicha suvga cho'kkanlarini, suv ostida qattiq olishuv bo'lganini, keyin u bir intilishda suv yuzasiga chiqib olib, suzib ketganini aytib berdi.

U ayni haqiqatni hikoya qilib berayotganiga shubha qilishga asoslarim yo'q edi. Qayiqni boshqarib kelgan politsiya zobiti ham ularning suvga qulaganlarini aytib berdi.

Qovoqxonada soat uchlargacha bo'ldik, suv ko'tarila boshlaganda esa Megvichni qirg'oqqa olib borib, qayiqqa yotqizdilar. Gerbert va Startop Londonga quruqlik orqa-li ketishlari kerak edi. Vidolashuvimiz qayg'uli bo'ldi, qayiqqa chiqib, Megvichning yoniga o'tirayotganimda, u tirik ekan, endi mening joyim shu yerda bo'lishini his qilayotgandim.

Negaki, unga bo'lgan nafratimdan endi asar ham qol-magan, qo'limni ushlab yotgan, quvg'in, yarador, kishan-langan mahbus qiyofasida saxovatpesha bo'lishni xohlagan va uzoq yillar davomida menga nisbatan samimiy, minnat-dorlik, oliyjanoblik tuyg'ularini asrab kelgan odamnigina ko'rayotgandim. Uning qiyofasida men bilan, mening Joga munosabatimdan ancha yaxshiroq munosabatda bo'lgan insonnigina ko'rayotgandim.

Uning nafas olishi borgan sari qiyinlashar va ingrash-dan o'zini tuta olmay qolayotgan holatlari ko'payayotgan edi. Uning boshini sog' qo'lim bilan ushlab turishga uri-nar ekanman, tezroq kuni bitsa, og'ir azoblardan qutulgan

menga ochiq aytdi. Buni o‘zim ham yaxshi tushunayotgandim. Mahbusga qarindosh emasdim, tan olingan munosabatlarimiz yo‘q edi; qamoqqa olinguniga qadar u mening foydamga biron-bir vasiyatnoma yoki hadya vasiqasini yozmagandi, bu ishlarni endi qilishdan naf yo‘q edi. Uning mulkiga men hech qanaqasiga da‘vogar bo‘la olmasdim; shunda ushbu huquqni qo‘lga kiritish uchun besamar urinishlar bilan dilimni og‘ritib o‘tirmayman, deb ahd qildim va qarorimni keyinchalik ham o‘zgartirmadim.

Cho‘kib o‘lgan ayg‘oqchi musodara bo‘lgan taqdirda kattagina mukofotdan umidvor bo‘lgan va Megvichning mulklari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar yig‘gan, deyishga asoslar bor edi. Falokat sodir bo‘lgan joydan ko‘plab chaqirim narida badbashara bo‘lib ketgan jasadni topganlaridan keyin, uni tanib olish uchun cho‘ntaklaridagi narsalargina asos bo‘ldi – hamyonida saqlanib qolgan yozuvlarda Megvichdan katta miqdorda omonat pul qabul qilgan Yangi Janubiy Uelsdagi bank egasining ismi, anchagina qimmat turadigan yer mulklarining ro‘yxati qayd qilingandi. Megvich qamoqxonada mister Jeggersga bergan ro‘yxatga yuqoridagi ikki band kiritilgandi. Bu safar ushbu sho‘rpe-shonaning omiligi uning joniga oro kirgandi: Megvich modomiki ishga mister Jeggers kirishgan ekan, mening vorislik huquqim ta‘minlanishiga bir lahzaga bo‘lsa ham shubha qilmadi.

Uch kun o‘tgach, mahkama ayblovchisi kutayotgan guvoh yetib keldi va unchalar murakkab bo‘lmagan tergov nihoyasiga yetdi. Megvichning sudi bir oydan keyin o‘tadigan mahkama majlisiga belgilandi.

Hayotimning ana shunday qiyin pallasidagi oqshomlarining birida Gerbert kayfiyati buzilgan holatda uyga kelib:

– Azizim Gendel, tez orada sen bilan xayrlashishga majbur bo‘lsam kerak, – dedi.

Sherigi tomonidan ogohlantirib qo'yilganim uchun, bu xabarni eshitib, Gerbert kutgan darajada hayron bo'lmadim.

– Agar hozir Qohiraga jo'nab ketmasam, juda yaxshi imkoniyatlarni boy bergan bo'lamiz, lekin ikkinchi tomondan, senga eng kerak paytimda ketib qolyapman.

– Menga har doim keraksan, Gerbert, chunki seni har doim yaxshi ko'raman; lekin hozir boshqa vaqtdagidan ko'proq keraksan, deyo olmayman.

– Judayam zerikib qolasan.

– Bu to'g'rida o'ylashga vaqt yo'q, – dedim men. – Bilasan-ku, qancha vaqtga ruxsat bersalar, uning yonida shuncha o'tiraman, agar mumkin bo'lganida, kun bo'yi oldidan ketmasdim. Qolgan fursatlarda ham xayollarim baribir unda.

Megvich tushib qolgan dahshatli holatdan ikkalamiz ham chuqur iztirobda ekanimizdan, u to'g'rida boshqa aniqroq gaplarni aytishga kuchimiz yetmasdi.

– Aziz do'stim, – dedi Gerbert, – faqat ayriliq yaqin ekani sababli – u esajuda yaqin – senga savol berishga botinyapman: kelajaging haqida o'ylab ko'rdingmi?

– Yo'q, men kelajak to'g'risida o'ylashdan qo'rqaman.

– Lekin o'zingni unutib qo'yishga haqqing yo'q, bunday qilish umuman yaramaydi, azizim Gendel. Qani kel, shuncha yillik do'stligimiz hurmati, ishlaring to'g'risida biroz gaplashib olamiz.

– Roziman, – dedim unga.

– Yangi idoramizga, Gendel...

Odob yuzasidan kerakli so'zni aytishga botinmayotganini ko'rib, uning o'rniga o'zim ayta qoldim – ...klerk kerak bo'ladi.

– Ha, klerk. Va, tushunishimcha, vaqti kelib u (o'zing yaxshi tanigan bir klerkka o'xshab), bemalol sherikka ay-

lanib qolishi mumkin. Xo'sh, Gendel... xullas, azizim, mening yonimga borgin!

Gerbertga qizg'in minnatdorchilik bildirdim, lekin uning oliyjanob taklifiga hozir javob bera olmasligimni aytdim.

O'sha haftaning shanbasidayoq Gerbertni bandargohga olib ketadigan pochta aravasigacha kuzatib qo'ydim; do'stim yorqin umidlarga to'lib-toshib, lekin men bilan vidolashayotganidan juda xafa bo'lib jo'nab ketdi. Kichik bir qahvaxonaga kirib, u yerdan Klaraga Gerbertning jo'nab ketgani, unga hadsiz-sanoqsiz salomlarini yetkazib qo'yishimni so'raganini ma'lum qilib xat yubordim, keyin yolg'iz o'zim uyuq yo'l oldim – agar shunday deyish joiz bo'lsa, negaki endi uydaman deya olmasdim va dunyoda men endi uyim deb ayta oladigan joy yo'q edi.

LVI BOB

Sud majlisigacha bo'lgan butun muddat mobaynida Megvich qattiq betob bo'lib yotdi. Uning ikki qovurg'asi sinib, o'pkalardan biriga jarohat yetgandi, kun o'tgan sayin nafas olishi qiyinlashar va og'riq berardi. Shuning uchun u og'riqdan eshitilar-eshitilmas, juda past ovozda gapirar va ko'pincha sukut saqlardi. Lekin meni to'xtamasdan eshityishga tayyor edi, shu sababli gapirish va, nazarimda, unga eng zarur narsalarni o'qib berish, asosiy vazifam bo'lib qoldi.

Vaqt-soati kelgach, mister Jeggars ishni keyingi majlisga qoldirishni so'rab iltimosnoma yozdi. U keyingi majlisgacha yetib bormaydi, degan fikrda ushbu qadam qo'yilgandi, lekin iltimosnoma rad etildi. Uning ishini birinchilar qatorida ko'rdilar. Sudda uni stulga o'tqazdilar, menga mahbuslarga ajratilgan panjaraning yonida turib, uning qo'lidan ushlab turishga ruxsat berdilar.

Ishni ko‘rish uzoqqa cho‘zilmadi – hammasi ravshan edi. Uni himoya qilish uchun aytilishi mumkin bo‘lgan hamma narsa: surgunda qanday halol mehnat qilgani, qonuniy yo‘llar bilan boyluk orttirgani aytili. Lekin uning qaytib kelgani va endi hakam hamda maslahatchilar oldida turganidan hech kim ko‘z yumolmasdi. Uni aynan shuning uchun mahkamaga tortganlarini hisobga olganda aybdor deb tan olmaslikning iloji yo‘q edi.

Sud zalini, undagi hamma narsani, hatto oynadagi aprel quyoshi nurlarida yariqirayotgan yomg‘ir tomchilarini hozir ham ko‘rib turgandekman. Uning qo‘lini ushlagan holda panjara oldida turibman; uning orqasida o‘ttiz ikkita inson – erkaklar va ayollar qator qilib turg‘izib qo‘yilgan: ba‘zilari pisandsiz, boshqalari qo‘rquvdan g‘ujanak bo‘lib olganlar, ayrimlari piqillab yoki ho‘ngrab yig‘lamoqdalar, ayrimlari yuzlarini qo‘llari bilan berkitib olganlar, boshqa birlari xo‘mrayib atrofga alanglamoqdalar. Ayollarning ba‘zilari chinqirib yubordilar, lekin endi ularni tinchlantirib qo‘yishdi, o‘rtaga yana jimlik cho‘kdi. Bo‘yinlariga og‘ir zanjirlar ilib, medallarini taqib olgan sheriflar, sudda o‘ralashib yuruvchi mayda-chuyda xizmatchilar-u yirikroq vahshiylar, jarchilar, sud ijrochilari, teatrdagi kabi odamlar bilan liq to‘la zal – hamma endilikda hakam bilan yuzma-yuz qolgan mahkumlarga tikilib turibdi. Hakam ularga qarata nutq so‘zlamoqda. Ko‘z o‘ngida turgan baxtiqarolar ichida, deyarli go‘dakligidan qonunni buzib kelayotgan; bir necha marta qamoqqa tashlanib, boshqa jazolarni o‘taganidan keyin ma‘lum muddatga surgun qilingan; zo‘ravonlik ishlatib, u yerdan ustalik bilan qochgan, shundan keyin umrbod muddatga surgun qilingan, alohida qayd etilishga loyiq bir odam bor. Jinoyatlarini amalga oshirgan joylardan uzoqlarga borib qolganidan keyin, u ma‘lum muddat aybini tushungandek bo‘lgan va osoyishta, halol turmush

kechirgan. Lekin allaqanday mash'um soatlarda, uni uzoq vaqt jamiyatimizning og'riqli yarasiga aylantirib kelgan vasvasalar va odatlarning qutqulariga dosh berolmay, makonini tashlab, qonun hududiga kirishni ta'qiqlagan mamlakatga qaytib kelgan. Bu yerda uni tezlikda fosh qilganlar, lekin ma'lum muddat u adliya idoralaridan berkinib yurishga muvaffaq bo'lgan; qochishga urinish chog'ida uni ushlab olganlarida esa qarshilik ko'rsatgan va ataylabmi yoki g'azabdan nima qilayotganini bilmay qolibmi – buni endi o'zi yaxshi biladi – butun hayoti tarixidan xabardor bo'lgan va uni fosh qilgan kimsaning o'limiga sababchi bo'lgan. Uni surgun qilgan mamlakatga qaytib kelgani uchun o'lim jazosi belgilangan, keyinchalik aybini yanada og'irlashtirgani uchun u o'limga tayyor turishi kerak.

Oynalarda yaltirayotgan yomg'ir tomchilari orasidan quyoshning yorug' nurlari katta derazalarni yoritmoqda. Hakamdan o'ttiz ikki mahkumga qarab yog'dudan tashlangan yo'lka ularni bir-biriga bog'lagandi va bu bilan hamma narsadan voqif bo'lgan va hech qachon adashmaydigan, boshqa, abadiy hakam, ehtimol, bu yerda o'tirganlarning ayrimlariga, vaqti kelib hakam ham, mahkumlar ham teng ravishda uning huzuriga borishlarini eslatib qo'ymoqda edi. Yog'du tushib turganidan yuzi aniq ko'ringan mahkum, o'rnidan qiynalib turdi va: „Milord, o'lim hukmini menga Yaratganning o'zi chiqarib bo'lgan, lekin siznikini ham qabul qilaman“, deb yana joyiga o'tirdi.

Xudodan hukmni ijro etish to'g'risidagi farmonga imzo chekilgunga qadar uning jonini olishini iltijo qildim va shunday bo'lishiga qattiq ishonardim. Lekin uzoqroq yashasa-ya, degan xavotirdan iztirobga tushib, o'sha kuni oqshomdayoq Ichki ishlar vaziriga arznoma yozishga o'tirdim. Unda mahkum to'g'risida nimaniki bilsam, hammasini bayon qildim, Angliyaga faqat meni deb qaytganini

alohida ta'kidladim. Arznomani ehtiros, hissiyotlarga berilib yozdim, keyingi kuni uni jo'natib bo'lib, boshqa mansabdor shaxslarga, hatto hazrati oliyning nomlariga ham, afv etishlaridan umidvor bo'lmasam-da, yana arznomalar yozib chiqdim. Ushbu shikoyat maktublarini yozishga berilib ketib, hukm e'lon qilingandan keyin bir necha kun va tun davomida, stulda uxlab qolganlarimni hisobga olmaganda, hech tinim bilmadim. Ularni joy-joyiga jo'natib, o'sha joylardan nari ketolmadim: yaqinroqda bo'lsam harakatlarim zoye ketmaydigandek ko'rinaverdi. Telbalarcha hayajon va iztirobga berilib, oqshomlari shikoyatlarim yo'llangan katta idoralar va saroylar joylashgan ko'chalarni kezaverdim. Hozir ham bahorning sovuq, chang oqshomlarida g'arbiy Londonning eshiklari tambalangan dang'illama uylari joylashgan, qator, behisob fonuslar bilan yoritilgan ko'chalari menda g'amnok o'ylar uyg'otadi.

Kunlar o'tgani sayin Megvich shiftga befarq tikilgan ko'yi borgan sari ko'proq jim yotadigan bo'lib borar, u yoki bu so'zimni eshitganidagina befarq yuzida jonlanish belgilari paydo bo'lardi. Ba'zan u umuman gapira olmay qolar, bunday paytlarda u javob o'rniga qo'limni siqib qo'yardi; binobarin uning istaklarini tez tushunishni o'rganib olgandim.

Qamoqxonaga o'ninchi kuni kelganimda unda odatdagi qaraganda ko'proq o'zgarish borligini sezdim. Eshikdan uzilmayotgan ko'zlari kirib kelishim bilan yorishib ketdi.

– Aziz o'g'lim, – dedi u karavotining yoniga o'tirganimdan keyin, – kechga qolasan deb qo'rqayotgandim.

– Vaqt bo'ldi, – javob qildim men. – Darvoza oldida ham kutib turdim.

– Har doim darvoza oldida kutasan, shundaymi, bolaginam?

– Ha. Bir daqiqani ham yo‘qotmaslik uchun.

– Rahmat senga, o‘g‘lim, rahmat. Yaratgan senga sog‘lik ato qilsin. Mendan yuz o‘g‘irmading, o‘g‘lim.

Indamay uning qo‘lini siqdim, negaki undan yuz o‘g‘irmoqchi bo‘lgan vaqtlarimni unutilmasdim.

– Hammadan ham qadrlisi shuki, ustimda qora bulut paydo bo‘lganidan beri quyosh chiqib turgan kunlardagiga qaraganda men bilan yaxshiroq munosabatda bo‘lyapsan. Eng qadrlisi ana shu.

– Azizim Megvich, endi sizga bu narsani aytsam bo‘ladi. Nima deyyotganimni tushunyapsizmi?

Barmoqlari bilan qo‘limni sal siqib qo‘ydi.

– Bir vaqtlar qizingiz bo‘lgan, uni ardoqlagansiz va yo‘qotgansiz.

Barmoqlari qo‘limni qattiqroq siqdi.

– Qizingiz o‘shanda tirik qolgan va obro‘li odamlarning tarbiyasini olgan. U hozir ham tirik. U obro‘li, sohibjamol malika bo‘lib yetishgan. Va men uni sevaman.

So‘nggi intilish va mening yordamim bilangina u qo‘limni lablariga olib bordi, keyin yana ko‘kragi ustiga ohista qo‘yib, qo‘llari bilan uni yopdi. Yana bir lahzaga befarq ko‘zlari shiftga tikildi, keyin yumildi, va boshi ko‘kragi ustiga egilib tushdi.

Keyin, birgalikda biz nimalarni o‘qiganimizni eslab, ehromga ibodat qilish uchun kirgan ikki kishiga xayolim ketdi va uning o‘lim to‘shagi yonida aytish uchun quyidagilardan yaxshiroq so‘zlarni ayta olmasligimni tushundim: „Parvardigor! Gunohkor bandangga shafqat qil!“

LVII BOB

Bir-ikki kun dam divanda, dam yerda – qayerim og‘riyotganiga qarab, boshim og‘rib, oyoq-qo‘llarim qaqqashab, madorsiz va hissiz qimirlamay yotdim. Keyin

dahshat va nadomatlarga to'la bo'lgan nihoyasi yo'q tun boshlandi.

Ko'zlarimni ochganimda Jo derazaning yoniga bordi, menga orqa o'girib, ko'zini artdi. Men esam hali juda hol-sizligimdan, o'rnimdan turib, uning yoniga bora olmaganimdan, yotgan joyimda shivirlab, uni duo qila boshladim: „Parvardigor, uni yarlaqagin! Parvardigor, farishtalardek saxovati uchun uni yarlaqagin!“

Jo yana yonimga o'tirganida ko'zlari qizarib ketgandi, men uning qo'lini ushlab olgandim va ikkalamiz ham bax-tiyor edik.

- Qancha vaqt, Jo, azizim?
- Qancha vaqt kasal yotganingni bilmoqchimisan, Pip?
- Ha, Jo.
- Hozir mayning oxiri. Ertaga birinchi iyun.
- Shuncha vaqt sen shu yerda bo'ldingmi, Jo, azizim?
- Shunaqa shekilli, og'ayni.

Ezmalik qilaverib Joni qiynab qo'ymaslik uchun (bunga holim ham yo'q edi), o'sha kuni miss Xevishem to'g'risida undan hech nima so'rab o'tirmadim. Ertalab, u tuzalib ket-dimi, deb so'ragandim, Jo bosh chayqadi.

– U o'ldimi, Jo?

– Nimalar deyapsan, og'ayni, – dedi Jo tanbeh berib va ko'rinishidan meni asta-sekinlik bilan tayyorlab olish uchun, – faqat, bilsang... u yo'q...

– Tiriklar orasida yo'qmi, Jo?

– Shunday deyilsa, to'g'ri bo'ladi, – dedi Jo. – U tiriklar orasida yo'q.

– Keyin u uzoq yotdimi, Jo?

– Sen betob bo'lib qolganingdan keyin, adashma-sam – bir haftacha, – javob berdi Jo avvalgidek meni ayashga va hammasini sekin-asta ma'lum qilish niyatiga sodiq qolib.

– Jo, azizim, uning merosi to‘g‘risida hech narsa eshitmadingmi?

– Bilasanmi, og‘ayni, – dedi Jo, – aytishlaricha, u ancha avval hammasini miss Estellaning nomiga xatlab qo‘ygan ekan, aytmoqchimanki, unga bog‘lab qo‘ygan ekan. Lekin musibatdan ikki kun avval o‘z qo‘li bilan vasiyatnoma-ga qo‘shimcha qilib qo‘yibdi – yaxlit to‘rt mingni mister Metyu Poketga qoldiribdi. Eng qizig‘i, nima uchun unga yaxlit to‘rt mingni qoldirganini bilasanmi, Pip? „Nomi yuqorida zikr etilgan Metyu to‘g‘risida Pip bildirgan fikrga asoslanib“. Biddining aytishicha, u yerda aynan shunday deb yozilganmish, – dedi Jo va rohat qilib takrorladi: – „Nomi yuqorida zikr etilgan Metyu to‘g‘risidagi fikrga asosan“. Bir o‘ylab ko‘rgin-a, Pip, yaxlit to‘rt ming!

Joning nazarida „yaxlit“ so‘zi nimani anglatishi men uchun sir bo‘lib qolaverdi, lekin ko‘rinishdan, shunday shaklda pulning miqdori unga yanada ko‘proqdek tuyulayotgandi, negaki to‘rtta mingtalikni u yaxlit deb mam-nuniyat bilan takrorlamoqdaydi.

Joning hikoyasidan juda xursand bo‘ldim. Boshlagan yagona ezgu ishimning nihoyasiga yetganini ko‘rish nasib qildi. Undan boshqa qarindoshlarga ham merosdan tekkan-tegmagani to‘g‘risida nimalar bilishini so‘radim.

– Miss Saraga, – dedi Jo, – yiliga yigirma besh funt tegadigan bo‘ldi, o‘t pufagini davolashga dori oladi. Miss Jorjianaga yigirma funt – vassalom. Missis Kemelga, – Kamillani shunday aytayotganini tushundim, – kechalari uyg‘onganida zerikmasligi uchun sham sotib olishga yiliga besh funtdan tegadigan bo‘ldi.

Ko‘rsatmalar odamiga qarab shunchalar aniq berilgan-diki, Joning gaplariga to‘la ishondim.

– Endi, oshna, – dedi Jo, – seni yana bir yangilik bilan siylayman, shu bilan bugunga tamom. Bilasanmi, qariya

Orlik nima ishlar qilib qo‘ydi? Birovning uyiga o‘g‘irlikka tushibdi.

– Kimning uyiga? – so‘radim men.

– U odam ko‘krak kerishni yaxshi ko‘radi, bo‘lgani shu, – davom etdi Jo aybdorlarcha xo‘rsinib qo‘yib, – lekin inglizning uyi – uning qo‘rg‘oni, qo‘rg‘onga faqat urush sharoitida bostirib kirish mumkin. Uni gunohsiz umr kechirdi, deb aytib bo‘lmasa-da, har holda u allof, hurmatli odam edi.

– Hali ular Pamblochukning uyiga bostirib kirishganmi?

– Ha, Pip, ha, – dedi Jo, – kunlik tushumni va pul solingan qutisini olib qo‘yishgan, musallasini ichib, ovqatlarini yeb qo‘yishgan, rosa savalab, burnini bir tomonga qiychaytirib qo‘yishgan, o‘zini karavotiga bog‘lab rosa tepkilashgan, qichqirmasligi uchun og‘zini bir yillik ko‘chatlarning urug‘lari bilan to‘ldirishgan. Lekin u Orlikni tanib qolgan va endi u qamoqxonada.

Shu tarzda qadam-baqadam yurakdan suhbatlashish uchun barcha ihotalarni olib tashladik. Men hamon holsiz edim, lekin sekin-sekin, ammo ishonch bilan quvvatimga quvvat qo‘shilayotgandi. Jo bo‘lsa mendan nari ketmasdi va xayolimda men yana kichkina Pipga aylanib qolgandek edim.

Kamina sog‘ayib, Jo qishloqqa ketgach, uning orqasidan eski va qadrdon ustaxonamizga yo‘l olish va o‘sha yerda hamma gaplarni ochib tashlash, undan o‘pkalash va huzurida tavba qilish, va nihoyat, mavhum bir narsa sifatida paydo bo‘lib, endi aniq va qat‘iy niyatga aylangan maqsadni aytishdan boshqa nima ham qilardim?

Niyatim esa Biddining yoniga borish, unga tavba qilganim va taqdir hukmiga bo‘ysunganimni, bir vaqtlar orzu qilgan hamma narsani yo‘qotganimni aytishdan, uzoq o‘tmishga aylanib qolgan dastlabki iztiroblarim pallasida

yurakdan suhbatlashganlarimizni eslatishdan iborat edi. Keyin unga: „Bididi, menimcha, bir vaqtlar meni sevarding, mening telba qalbim esa sendan nari ketishga harakat qilsa-da, yoningda bo‘lsam xotirjam va shod bo‘lardi, bunday his-tuyg‘uni keyinchalik hech qayerda topmadim. Agar meni, hech bo‘lmasa avvalgi muhabbatningning yarmichalik seva olsang, barcha xatolarim va iztiroblarim bilan qabul qila olsang, xato ish qilib qo‘ygan bolani kechirgandek meni kechira olsang (men juda noqulay ahvoldaman, Bididi va yosh boladek erkalovchi qo‘l hamda yupantiruvchi so‘zlarga muhtojman), umid qilamanki, ilgarigiga qaraganda senga ozgina bo‘lsa ham munosibroq bo‘laman. Keyin Jo bilan ustaxonada ishlaymi yoki o‘zimiz tomonlarda boshqa ish qidirib ko‘raymi, yoki avval sening javobingni eshitmoqchi bo‘lganim uchun taklif qilganlarida rad javobini bergan ish joyi kutayotgan uzoq mamlakatga seni olib ketaymi, o‘zing hal qilasan buni. Agar hayotimni baham ko‘rishga rozilik bersang, azizam Bididi, hayotim yaxshi tomonga o‘zgaradi, o‘zim ham yaxshiroq odamga aylanaman va baxtli bo‘lishing uchun iloji boricha harakat qilaman“, deyman.

Niyatim shundan iborat edi. Yana uch kun o‘zimga to‘la davolanish uchun vaqt berib, uni amalga oshirish uchun qadrdon qishlog‘imga yo‘l oldim. Bu ishni qanchalar amalga oshira olganim hikoyamga xotima yasaydi.

LVIII BOB

Kelajakka mo‘ljallangan ajoyib umidlarimning barbod bo‘lgani to‘g‘risidagi xabar qadrdon shaharchamizga mendan ilgari yetib kelgandi. „Zangori qobon“da hamma narsani bilishar va u yerdagilarning munosabati hayratlanarli darajada o‘zgarganini sezdim. Mulkka egalikni qo‘lga kiritganimda menga yoqish uchun aylanib-o‘rgilib

xizmat qilgan „Zangori qobon“ning xo‘jayini endi omad mendan yuz o‘giranida juda sovuq muomala qilayotgandi.

Sababini bilmaganim holda ustaxonaga nazarim tushadigan soniyadan qo‘rqa boshladim va nihoyat uni ko‘rdim, ustaxona yopiq edi. O‘choqda olov yonmas, uchqunlar yomg‘ir bo‘lib sochilmas, bosqonlar ovoz chiqarmasdilar; ustaxona bo‘m-bo‘sh va sokin edi.

Lekin hayot nafasi uyni tark etmagandi, ko‘rinishidan mehmonxonaga ham jon kirgandi – ochiq turgan derazada oq parda hilpirar, tokchasiga yorqin gullar qo‘yilgandi. Uyning ichiga gultuvaklar osha qarayman degan niyatda sekin deraza tomonga yo‘naldim va kutilmaganda yer tagidan chiqqandek qarshimdan qo‘l ushlab olgan Jo va Bididi chiqib qolishdi.

Biddi arvohimni ko‘rayotgandek qichqirib yubordi, lekin o‘sha lahzadayoq bo‘yninga otildi. Men Biddining ochilib ketgani va latofatini ko‘rib, Bididi mening ozib-to‘zib ketganimni ko‘rib, yig‘lab yubordik.

– Bididi, azizam, qanchalar yasanibsansan!

– Ha, azizim Pip.

– Sen ham, Jo, qanchalar yasanibsansan!

– Ha, Pip og‘ayni.

Men Joga, keyin Biddiga, keyin yana Joga qaradim, va shunda...

– Bugun to‘yim kuni! – dedi Bididi baxtidan to‘lib-toshib. – Joga turmushga chiqyapman!

Ular meni oshxonaga olib kirishdi, bo‘yalmagan stol yonida bo‘ynimni egib o‘tirdim. Bididi qo‘llarimni o‘par, Jo yelkamni silamoqdaydi.

– Hali kuchga kirmagan odamni birdaniga hayratga solib qo‘yding, azizam, – dedi Jo.

Shunda Bididi:

– Shuni o‘ylamaganimni qara, Jo, juda ham xursand bo‘lib ketibman, – deb javob berdi.

Ular men bilan ko‘rishib turganlaridan baxtiyor, tashrifimdan boshlari osmonga yetgan, shunday kunda tasodifan uylariga kelib, xursandchiliklarini to‘kis qilganimdan zavq-u shavqqa to‘lib ketgandilar!

Xayolimga kelgan birinchi narsa, endilikda barbod bo‘lgan oxirgi umidim haqida Joning hech nima bilmagani uchun taqdirga benihoya shukrona aytish bo‘ldi. Menikida yashayotganida necha marotaba unga bu to‘g‘rida aytishga og‘iz juftlagandim. Agar o‘shanda Londonda u bir soatga ushlanib qolganida ham, qaytarib bo‘lmaydigan so‘zlar og‘zimdan chiqib ketgan bo‘lard!

– Azizam Bididi! – dedim men. – Butun dunyoda eringdan yaxshirog‘ni topa olmaysan, agar betobligimda menga qanday qaraganini ko‘rganingda, sen uni... yo‘q, yo‘q, sen uni hozirgidan ko‘proq yaxshi ko‘rmagan bo‘larding.

– Hozirgidan ko‘proq yaxshi ko‘ra olmasdim, bu to‘g‘ri, – dedi Bididi.

– Senga esa, Jo, dunyodagi eng yaxshi xotin nasib qilgan va u, aziz, oliyjanob, saxiy Joni munosib darajada baxtli qiladi!

Jo menga qaradi, lablari titray boshladi va ko‘zlarini yengi bilan yashirdi.

– Qadrdonlarim, Jo va Bididi, sizlar hozirgina cherkovdan qaytdingiz, mehr va saxovatga to‘lasiz, menga qilgan va men nonko‘rlik bilan javob qaytargan barcha yaxshiliklaringiz uchun kamtarona minnatdorchiligimni qabul qiling! Tez orada xorijga jo‘nab ketayotganim sababli bir soatdan keyin uyingizni tark etaman. Jo, azizim, bor vujudim bilan umid qilamanki, bolalaringiz bo‘ladi va anavi burchakda qish oqshomlarida o‘sha burchakni butunlay tark etgan boshqa bir bolani eslatadigan kichkintoy o‘g‘ling o‘tiradi.

Jo, unga nonko‘r bo‘lganimni aytma; Bididi, bag‘ritosh va adolatsiz bo‘lgan, dema; unga faqat ikkovingizni sadoqatingiz va saxovatingiz uchun chuqur hurmat qilganimni, va u mendan ko‘ra yaxshiroq odam bo‘lib yetishadi, chunki u sizning o‘g‘lingiz, deganimni aytib beringlar.

– O‘ylab topgan narsasini-chi, – dedi Jo yengini yuzidan olmay turib, – unga hecham bu gaplarni aytmayman. Bididi ham aytmaydi. Va hech kim aytmaydi.

– Endi esa qalbingiz bilan bu ishni qilganingizni bil-sam ham, ikkalangiz menga „Seni kechirdik“, denglar! Aytinglar va men so‘zlaringizni eshitib, ularni o‘zim bilan olib ketay, o‘shanda bundan buyon menga ishonishingizni va avvalgiga qaraganda men to‘g‘rimda yaxshiroq fikrda bo‘lishingizni bilib yuraman.

– Eh, Pip, mening aziz oshnam, – dedi Jo, – Xudo shohid, kechiradigan narsamning o‘zi mavjud bo‘lsa, seni kechirdim!

– Omin. Men ham, – dedi Bididi.

– Endi yuqoriga chiqib hujramni ko‘raman, u yerda bi-roz yolg‘iz qolmoqchiman. Keyin, dasturxoningiz atrofida yeb-ichganimdan keyin, chorrahadagi ustungacha meni kuzatib qo‘yinglar!

Bor narsamni sotib, menga qarz berganlarni hozircha u qadar shoshirmaydigan darajada xotirjam qildim-da, Gerbertning yoniga jo‘nab ketdim. Bir oyning ichida Angliya hududidan chiqib ketdim, ikki oydan keyin Klarriker va Kompaniya shirkatiga xizmatchi bo‘lib ishga kirdim, to‘rt oydan keyin esa mas‘uliyatli vazifani ishonib topshirdilar. Gap shundaki, Tegirmon hovuz yonidagi uyning shiftidagi yog‘ochlar qariya Bill Barlining hayqiriqlaridan qisirlamay qo‘ygandilar va Gerbert Klara bilan nikohdan o‘tish uchun jo‘nab ketgan, menga esa yo‘qligida Sharqiy bo‘limni boshqarib turishni topshirgandi.

Kompaniyaga uchinchi sherik bo'lgunimga qadar uzoq yillar o'tdi; lekin men Gerbert va uning xotini bilan xotirjam, sokin hayot kechirdim, kamxarajat bo'ldim, asta-sekin qarzlarimni to'ladim, Bididi hamda Jo bilan doimo yozishib turdim. Faoliyatga qo'shilganimdan keyingina, Klarriker sirni juda uzoq saqlab kelganini tan berib, haqiqatni boshqa yashirolmayman, deya Gerbertga bor gapni aytib berdi. Shunday qilib Gerbert hamma narsadan xabar topdi, hayratining va minnatdorchiligining cheki yo'q edi, do'stligimiz avvalgidan ham mustahkam qaror topdi. Savdo uyimiz mashhur bo'lib ketdi yoki qoplab pul orttirdik, deb o'ylash noto'g'ri bo'lardi. Biz o'ta katta ishlarga sarmoya tikmasdik, lekin yaxshi obro' topdik, halol ishladik va qashshoqlik nima ekanini bilmadik. Bularning katta qismiga, asosan, Gerbertning tuganmas g'ayrati va tetikligi tufayli erishdik; nega u menga hayotga moslashmagan odam bo'lib ko'rindi ekan, deb hayron bo'lib yurib, hayotga moslashmagan u emas, men bo'lsam kerak, degan xulosaga keldim.

LIX BOB

Dekabr oqshomlarining birida, qorong'i tushganiga chamasi ikki soatlar bo'lganida, qadrdon uyimizning zanjiriga qo'l tekkizganimda, Jo va Bididi bilan uchrashganimdan keyin o'n bir yil o'tgandi. Eshikni ohista taqillatdim, hech kim eshitmadi, sekin oshxonaga mo'raladim. U yerda, o'zining o'choq oldidagi eski joyida, o'sha-o'sha baquvvat va tetik, lekin sochlariga oq oralagan Jo trubkasini tishlab o'tirardi; Jo tizzasi bilan to'sib o'tirgan burchakda esa mening mitti kursichamda... men – kichkina Pip olovga tikilib o'tirardim!

– Sening sharafingga unga Pip, deb ism qo'ydik, og'ayni, – dedi Jo bolakayning yonidagi kursiga o'tirganimni

ko'rib (adashimning sochlarini to'zg'itib o'tirmadim!), senga biroz bo'lsa ham o'xshashini xohladik, ko'rinishdan niyatimizga yetdik shekilli.

Menga ham shunday ko'rindi. Ertasi kuni tongda kichkintoyni sayrga olib chiqdim, bir-birimizni binoyidek tushunib, miriqib suhbatlashdik. Qabristonda bo'ldik, bolakayni tanish yodgorlik ustiga o'tqazib qo'ygandim, o'sha baland joydan turib u ushbu qavmning a'zosi Filip Piripp, shuningdek, yuqorida zikr etilganning rafiqasi Jorjjananing qabrlarini ko'rsatdi.

– Biddi, – dedim men tushlikdan keyin suhbatlashib o'tirib, qizalog'i qo'lida uxlab qolgach, – Pipni, vaqtinchaga bo'lsa ham o'zim bilan olib ketsam bo'larkan.

– Yo'q, yo'q, – dedi Biddi muloyimlik bilan. – Sen uylanishing kerak.

– Gerbert bilan Klara ham shunday deyishadi, lekin uylanishim dargumon, Biddi. Ularnikida yashashga shunchalar ko'nikib qoldimki, uylanish xayolimga ham kelmayapti. Allaqachon qari bo'ydoqqa aylandim, shekilli.

Biddi qizalog'iga qaradi, uning qo'lchasini o'pdi, keyin hozirgina bolasiga tekkan issiq qo'lini qo'limga qo'ydi. Ushbu xatti-harakat va nikoh uzugining tekkizib qo'yilishida chuqur ma'no bor edi.

– Azizim Pip, – dedi Biddi, – uni aniq sog'inmayotganingga ishonching komilmi?

– Albatta... shunaqa shekilli, Biddi.

– Menga, shuncha yillik do'stingga ayt-chi. Uni butunlay esingdan chiqardingmi?

– Biddi, azizam, hayotimda bo'lib o'tgan va qandaydir iz qoldirgan hech bir katta yoki kichik voqeani unutganim yo'q. Lekin o'sha miskinlarcha orzu, bir vaqtlar uni shunday atagandim, o'sha orzu, Biddi, endi sarobga aylangan!

Lekin, shu so'zlarni aytayotganimda o'sha oqshom-dayoq eski uy joylashgan yerga bir o'zim borib, uni yodga olishni ko'nglimga tugib qo'ygandim. Ha, Estellani xotirlamoqchi edim.

Uning turmushi og'ir kechgani, shafqatsiz munosabatda bo'lgan, maqtanchoq va qizg'anchiq, qo'pol va betayin deb nom chiqargan eridan ajrashgani qulog'imga chalingandi. Erining otiga qilgan razillarcha munosabati oqibatida ro'y bergan baxtsiz hodisada halok bo'lganini ham eshitgandim. Estella undan qutulganiga, chamasi, ikki yil bo'lgan, o'ylashimcha, u qayta turmushga chiqib ulgurandi.

Biz kechki ovqatni erta qildik, er-xotinning marhamati bilan Bididi ikkimizning samimiy suhbatimizdan keyin men hali kunning yorug'ida shaharga yetib olish imkoniyatiga ega bo'ldim. Shoshmasdan qadam tashlab, tanish joylarni ko'zdan kechirib, o'tgan kunlarni eslab, Satis Xauz turgan joyga yetib borganimda, qorong'i tushib bo'lgandi.

Endi bu yerda na uy, na pivoxona, na boshqa binolar bor edi. Ko'hna bog'ning devorlarigina saqlanib qolgan. Huvullagan maydon taxta devor bilan o'rab olingandi, devor osha ichkariga mo'ralab, qari chirmoviq ayrim joylarda yana ko'karib, shag'al va chiqindi uyumlariga yashil gilam to'shaganini ko'rdim. Devordagi eshik qiya ochiq edi, uni kengroq ochib ichkariga kirdim.

Peshindan boshlab havoda sovuq, kumushrang tuman muallaq turib qolgan, hatto oy ham uni tarqatib ulgurmagandi. Lekin tuman oralab yulduzlar ko'rinar, oy ko'tarila boshlagan va kecha zimiston emasdi. Uyning qaysi qismi qayerda bo'lgani, pivoxona, darvoza, bochkalarning joylarini xatosiz chamalay olardim. Hammasini eslay turib, bog'ning o't-o'lan bosib ketgan yo'lkasiga ko'z yurgurtirarkanman, unda tanho kezayotgan odam sharpasiga ko'zim tushdi.

Aftidan, u ham meni payqagandi: qarama-qarshi tomondan kelayotgan sharpa to'xtab qoldi. Yaqinroq borib, uning ayol kishi ekanini ko'rdim. Yana ham yaqinroq bor-gandim, u ortiga o'girilib uzoqlasha boshladi, lekin keyin biroz o'ylagandek bo'lib, o'ziga yetib olishimga imkon berdi... Shunda u to'satdan seskandi va nimadandir hayratga tushgandek, ismimni aytdi.

– Estella! – deb qichqirib yubordim.

– Juda ham o'zgarib ketganman. Qanday taniy oldingiz, hayronman.

Darhaqiqat, uning husnidagi yoshlik tarovati endi yo'q edi, lekin tasvirlashga so'z ojiz viqor va joziba saqlanib qolgandi. Ha, bular yaxshi esimda edi, lekin ushbu mag'rur nigohlarda ilgari hecham bunchalar sokin qayg'uni ko'rma-gandim; bir vaqtlar hissiz bu qo'lning bunchalar do'stona teginishini sezmagandim.

Biz bog' kursisiga o'tirdik:

– Shuncha yil o'tib, ilk uchrashuvimiz bo'lib o'tgan aynan shu yerda ko'rishib turganimiz qanchalar g'ayriod-diy! Bu yoqqa tez-tez kelib turasizmi? – dedim unga.

– O'shandan beri bir marta ham kelmadim.

– Men ham.

Oy ko'tarilayotgandi, va men, oppoq shiftga tikilgan, endilikda so'nib bo'lgan, befarq ko'zlarni esladim. Oy ko'tarilayotgandi, foniyl dunyoda qulog'iga kirgan oxirgi so'zlarni aytganimda qo'limni qanday siqqanini esladim.

Estella ikkimizni qiynab turgan noqulay sukunatni bi-rinchi bo'lib u buzdi.

– Bu yerga kelishni ko'p martalab orzu qildim va umid bog'ladim, lekin turli voqealar yo'l bermay keldilar. Essiz, essiz, ko'hna uy!

Kumush tuman oyning ilk nurlaridan seskandi, shu nurlarning o'zi uning yonoqlaridan oqib tushayotgan ko'z-

Adabiy-badiiy nashr

CHARLZ DIKKENS

KATTA UMIDLAR

II

Roman

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2020

Tarjimon:

Shoazim MINOVAROV

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Ergasheva Nasiba</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
15.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ^{1/32}.
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 77–20.
Buyurtma raqami 365-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

Dickens, Charlz.

D 50 **Katta umidlar II.** [Matn]: roman / Charlz Dickens; tarjimon:
Shoazim Minovarov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6340-7-7

UO•K: 821.111-31

KBK 84.(4Bbr)